

S.I.Mirhayitova

**PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYA**

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIMI VAZIRLIGI

MUQIMIY NOMIDAGI QO`QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

moduli bo`yicha

O`QUV QO`LLANMA

Toshkent-2020

Pedagogik texnologiyadan tayyorlangan mazkur o`quv qo`llanma o`zida shu moduldan ma`ruzalar matni, amaliy mashg`ulotlar ishlanmasini mujassamlashtirgan bo`lib, oily ta`lim talabalari, o`qituvchilari uchun mo`ljallangan.

O`quv qo`llanmada pedagogik texnologiya fanining maqsadi va vazifalari, ilmiy-tadqiqot metodlari, dolzarb muammolari, ta`lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiya metodlaridan foydalanish istiqbollari va muammolari, pedagogik texnologiyaning darajalari, tuzilishi va nazariy asoslari, o`quvchi shaxsi ta`lim jarayoning obyekti va subyekti sifatida, pedagogik jarayon tizim sifatida, pedagogik texnologiyaning asosiy belgilari va tasnifi, pedagogik texnologiya turlari, ta`lim oluvchilar tomonidan bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirish darajalari, ularga erishishning maqsad va natijalarini shakllantirish va talabalarning o`quv yutuqlarini nazorat qilish, ta`limni tashkil etish shakllariining mohiyati, mazmuni, guruxlarni shakllantirish tamoyillari, ta`lim texnologiyasida o`qitish metodlarining o`rni, ahamiyati, tasniflanishi va ularni tanlash omillari, "keys-stadi" tushunchasining mohiyati, kelib chiqish tarixi, tipologiyalari va "keys-stadi" texnologiyasini tuzilishi, "hamkorlik pedagogikasi" texnologiyasi, uning mazmuni va o`ziga xosliklari, loyixa" tushunchasining mazmuni, mohiyati, loyixaviy ta`limning o`ziga xosliklari, o`quv loyixasi tushunchasi va "loyixa" texnologiyasini ishlab chiqish qoidasi, tabaqalashtirilgan va individual ta`lim texnologiyasi, axborot texnologiyalari va ta`limning jamoaviy hamda guruxiy texnologiyasi, insonparvarlik pedagogikasi, tarbiya san`ati va tenologiyasi, yaxlit yondashuv va tarbiyaviy ish kabilar yoritilgan.

O`quv qo`llanmadan umumiy o`rta ta`lim muassasalari, oily va o`rta maxsus ta`lim muassasalari pedagog xodimlari, tadqiqotchi-izlanuvchilar ham foydalanishi tavsiya etiladi.

Ma`sul muxarrir:

ZA.Xolmatova falsafa fanlari doktori, dotsent

Taqrizchilar:

N.Erkaboyeva pedagogika fanlari doktori, dotsent

B.Abdullayeva pedagogika fanlari doktori , dotsent

Mazkur o`quv qo`llanma Muqimiy nomidagi Qo`qon davlat pedagogika instituti ilmiy kengashining **2020** yil, _____ oyidagi, _____ qarori bilan OAKka tavsiya etildi.

So`z boshi

“Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi, avvalambor, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bog’liq”¹

O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi²da belgilangan “Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag’batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish” hamda Innovatsion rivojlanish vazirligining asosiy faoliyat yo’nalishlaridan ta’lim tizimida innovatsiyalarni ishlab chiqishni ta’minlash³ kabi ustuvor vazifalari ta’lim muassasalarida o’qituvchilar innovatsion faoliyatini tashkil etish zarurligini ko’rsatmoqda. Chunki kasbiy ta’limning xalqaro andozalarga to’liq mosligini ta’minlash va ijtimoiy buyurtma asosida malakali kadrlarni tayyorlashda yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va innovatsion faoliyatga tayyorlash amaliyotiga joriy qilish ta’lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Pedagogika oliy o’quv yurtlari uchun mo’ljallangan pedagogik texnologiya o`quv qo`llanmasi o’quv dasturida ilgari surilgan talablarga muvofiq yaratildi. O`quv qollanmaning maqsadi – pedagogik texnologiya fanining nazariy-metodologik asoslarini ochib berish, bo’lajak pedagoglar tomonidan ularning chuqur o’zlashtirilishiga erishish, talabalarda pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil eta olish ko’nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Muallaf

¹SH.M.Mirziyoev.Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamlkatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir-Toshkent:O’zbekiston,2017.-22b

² O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni.// O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to’plami. –T., 2017. –B.39.

³ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to’g’risida”gi Farmoni // QHMMB: 06/17/5264/0339-son 01.12.2017 y.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA PEDAGOGIKANING MUSTAQIL SOXASI SIFATIDA.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING RIVOJI.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING ILMIY ASOSLARI.

Reja:

1.1. Pedagogik texnologiya fan sifatida, uning asosiy kategoriyalari, metodologik asoslari va o'ziga xos jixatlari

1.2. “Texnologiya” va “pedagogik texnologiya” tushunchalari, uning paydo bo'lishi, tarixiy rivojlanish davrlari va pedagogik olimlarning “pedagogik texnologiya” tushunchasiga ta'riflari

1.3. Pedagogik texnologiyaning darajalari, tuzilishi va nazariy asoslari

Tayanch tushunchalar: pedagogik texnologiya, kategoriya, metodologik asos, “Texnologiya”, tarixiy rivojlanish, davr, pedagogik olimlar, darajalar, tuzilish, nazariy asoslar.

Pedagogik texnologiya pedagogikaning mustaqil soxasi sifatida

Pedagogik texnologiya pedagogikaning mustaqil soxasi sifatida XIX-asrning 2-yarmida rivojlandi va fanga kirib keldi. Pedagogika fani differensiyalash jarayonida pedagogika fani tarkibidan alohida yo'nalish, mustaqil fan bo'lib ajralib chiqdi. Pedagogik texnologiya fani hozirda pedagogikaning mustaqil soxasi sifatida OTM.larida o'qitilib kelinadi. Pedagogik texnologiya fanining asosiy maqsadi-yosh avlodda mazkur fan orqali BKM.larni shakllantirish, ta'lim-tarbiya jarayonini yuksak mahorat va san'at bilan bosqara olishdir.

Pedagogik texnologiya ta'lim – tarbiya jarayonini yuksak mahorat san'at bilan boshqarishdir.

Pedagogik texnologiya – texnologiyaga nisbatan tor tushuncha bo'lib-unda faqat ta'lim-tarbiyaning nazariy va amaliy asoslarini mahorat, san'at bilan o'rganish.

Pedagogik texnologiyalar pedagogik jarayonning ijtimoiy maqsadga yo'naltirilgan usul, shakl va uyushmalar yigindisiga asoslangan loyihadir.

Shuningdek, pedagogik texnologiyalar-pedagogik jarayonni yangicha qurish boshqarish tashkil etishning mexanizmidir.

Pedagogik texnologiya fan sifatida, uning asosiy kategoriyalari, metodologik asoslari va o'ziga xos jixatlari

Pedagogik texnologiya (PT) – shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3 – ming yillikda davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, Ta'lim beruvchifaoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

«Texnologiya»ning fan sifatida vujudga kelishiga – XVII asrda, sanoat ishlab chiqarishini paydo bo'lishi metallurgiya, mashinasozlik, jumladan sanoat jihozlari, paroxod, parovoz, o`q otuvchi qurollarni ishlab chiqarish jadal rivojlana boshlanishi, sabab bo`ldi. Bunday murakkab va mehnattalab mashina va

jihozlarni ishlab chiqarishni, faqat texnologik jarayoni aniq ishlab chiqilgan texnologik hujjatlar asosida tashkil etish mumkin edi. Ushbu hujjatlarda – xom ashyo, materiallar, yarim fabrikat va mahsulotlarni olish, ishlov berish, qayta ishlash yo'llari va usullarining murakkab jarayonlarini o'zaro bog'liq, ketma-ket va aniq bajariladigan harakat, operatsiyalarga bo'lib, rejalashtirilgan natijaga erishish tasvir etiladi. Bu kengaytirilgan va ommaviy ishlab chiqarishga asos bo'ladi. Bizning davrda, texnologiya deb, ma'lum ishni bajarish san'ati tushuniladi. Uni egallash uchun u aks ettirilgan texnologik hujjatlarni chuqur o'rganish taqozo etiladi.

«Texnologiya»ning fan sifatida shakllanishi, texnologiyani ko'paytirish va shu asosda mutaxassislarni ommaviy tayyorlash, hamda ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatini keltirib chiqardi.

«Texnologiya» va «Pedagogika»ning fan sifatida bir tarixiy davrda shakllanganligi, bu qonuniy hodisadir.

PT – bu Ta'lim beruvchi(tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida ta'lim oluvchi(talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va aks ta'sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarining jadal shakllanishini kafolatlaydigan jarayondir.

Yuqorida keltirilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki, PT tushunchasini izohlashda texnologiya jarayoni asos qilib olindi. Aslini olganda ham bu tushunchaga berilgan ta'riflar soni pedagogik adabiyotlarda nihoyatda ko'pdir. Pedagogik nashrlarda «texnologiya» atamasining xilma-xil ko'rinishlarini uchratish mumkin: «o'qitish texnologiyasi», «o'quv jarayoni texnologiyasi», «ma'lumot texnologiyasi» va hokazo.

O'qitish texnologiyasi PTga yaqin tushuncha bo'lsa-da, aynan o'xshash ma'noni anglatmaydi, chunki u ma'lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi aniq o'quv materialini o'zlashtirish yo'lini muayyan texnologiya atrofida ifoda etadi. U ko'proq xususiy metodika bilan bir jinslidir.


PT esa ma'lumot texnologiyasini joriy etish taktikasini ifodalaydi va «Ta'lim beruvchi– moddiy muhit – ta'lim oluvchi (talaba)» funksional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosida quriladi.

Hozirgi kunda o'qituvchilar metodikani ko'p hollarda texnologiyadan ajrata olmayptilar. Shu boisdan bu tushunchalarni aniqlashtirish kerak bo'ladi. Metodika o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasidan iborat. Metodikadan ko'zlangan aniq maqsad predmet mavzulariga oid nazariyalarni aniq hodisalar tekisligiga ko'chirishdir. Misol uchun, gaz qonunlari tushunchalarini shakllantirish metodikasi yoki energiyaning saqlanish qonunini fizika kursining elektr bo'limida qo'llash metodikasi va h.k.

PT o'qitish jarayonining o'zaro bog'liq qismlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, bosqichlarini qurish, ularni joriy etish shartlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni hi-sobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishini ta'minlaydi. Yoxud PT o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig'in-disidir. Texnologiya o'zining egiluvchanligi, natijalarning turg'unligi, samaradorligi, oldindan loyihalanish zarurati bilan

metodikadan farqlanib turadi. SHu bilan birgalikda ma’lum vaqt davomida PT o’quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish, deb qarab kelinadi. Faqat 70-yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning mohiyati yangicha talqin etila boshlandi. YApon olimi T.Sakamoto tomonidan «o’qitish texnologiyasi - bu o’qitishning maqbulligini ta’minlovchi yo’l-yo’riqlar tizimi bilan bog’liq bilimlar sohasi» ekanligi e’tirof etiladi.

Obyektiv borliqni o’rganishning tizimli yondashish metodi fanda keng ko’lamda qo’llanilgach, uning ta’siri ostida asta-sekinlik bilan PT mohiyatiga ham aniqlik kiritildi: rus olimasi N.F.Talizina texnologiyani «belgilangan o’quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat»deb tushuntiradi. Shuningdek, olima zamonaviy o’qitish texnologiya-si haqida fikr yuritib, uni alohida fan sifatida qarash lozimligini o’qtiradi: «O’qitish texnologiyasi – bu o’quv jarayonini nima real tavsiflasi o’sha, o’qituvchiga o’rnatilgan maqsadlarga erishish uchun nimaga tayanish zarur bo’lsa o’sha» Bu alohida fan .



1-rasm. Ppedagogik texnologiyaning asosiy aspektlari

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSLARI

1. Pedagogik texnologiyaning **ijtimoiy asosi** har bir shaxs, jamiyat va davlatning ta’lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi va shu ehtiyojlarni qondirishning maqsad va talablarini tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi.
2. Pedagogik texnologiyaning **falsafiy asosi** uning maqsadlari hamda tashkiliy shakl va usullarini falsafiy jihatdan to’g’ri yo’nalishda bo’lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

3. Pedagogik texnologiya fanining metodologik asosi uni amalga oshirishda qanday metodlarga asoslanishini belgilaydi, insonlarning olamini hamda o'zlarini bilishlari turli tarixiy davrlarda turlicha asoslarga ega bo'lgan va ular o'ziga xos metodlarni keltirib chiqargan. Hozir olam va uning hususiyatlari haqida xolis ma'lumotlar olish haqqoniy bilimlar hosil qilishning ilmiy metodikasi pedagogik texnologiyalarning metodologik asosi hisoblanadi. Metodologik asosning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi texnologiyalar uchun zaruriy shartdir.
4. Pedagogik texnologiyaning didaktik asosi uning ta'lim-tarbiya qoida va tamoyillariga muvofiqligini belgilaydi.
5. Pedagogik texnologiyaning pedagogik asosi . Zamonaviy pedagogika fanining ilmiy hulosalaridan kelib chiqadi. Bunda pedagogik texnologiyaning umumiy tarkibiy tuzilmasi, mazmuni, shakli, usullari, vositalari, pedagogik jarayonning tashkil qilinishi, olib borilishi, uning diagnostikasi, monitoringi, o'quv-mavzu rejalar va shu kabilarning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi ta'minlanadi.
6. Pedagogik texnologiyaning psixologik asosi psixologiya fanining ilmiy hulosalari va tavsiyalari bilan belgilanadi.
7. Pedagogik texnologiyaning fiziologik asosi o'quvchilarning turli yoshdagi fiziologik hususiyatlarini hisobga olishdan iborat.
8. Pedagogik texnologiyaning gigenik asosi ta'lim- tarbiya jarayonida salomatlikni saqlash talablariga rioya qilishdan iborat.
9. Pedagogik texnologiyaning mafkuraviy asosi uning milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi tamoyillarini o'zida mujassam etishi va ularni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishidan iborat.
10. Pedagogik texnologiyaning huquqiy-me'yoriy asosi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirishga doir qonuniy va meyoriy hujjatlar bilan belgilanadi.
11. Pedagogik texnologiyaning iqtisodiy asosi ta'lim menejmenti xulosalari va marketing tadqiqotlari natijalariga muvofiq belgilanadi.
12. Pedagogik texnologiyaning tarixiy asosi ta'lim-tarbiya masalalarini turli tarixiy davrlarda amalga oshirishning shakl va usullari, mazmuni hamda turli pedagogik nazariyalar haqidagi ma'lumotlardan iborat bo'lib ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarning kelib chiqishi uchun zamin hisoblanadi.
2-rasm. Pedagogik texnologiya asoslari

“Texnologiya” va “pedagogik texnologiya” tushunchalari, uning paydo bo'lishi, tarixiy rivojlanish davrlari va pedagogik olimlarning “pedagogik texnologiya” tushunchasiga ta'riflari

Tarixan “Texnologiya” tushunchasi texnik taraqqiyot bilan bog‘liq ravishda yuzaga kelgan va bu tushuncha san‘at, hunar va fan haqidagi ta‘limotga muvofiq keladi.

Texnologiya deganda, odatda ashyolarni qayta ishlash metodlari va ishlab chiqarish jarayoni hamda ularning ilmiy tavsiflarining majmui tushuniladi.

Siyosiy lug‘at (M.,1989)da texnologiyaga shunday izoh beriladi:

1) ishlab chiqarish jarayonida ashyolar, materiallar, yarim tayyor ashyolarni qayta ishlash, tayyorlash holati, xususiyati, shaklining o'zgarish metodlari yigindisi;

2) ashyolar, materiallar va yarim xom ashyolarga muvofiq ishlab chiqarish qurollari orqali ta'sir o'tkazish usullari to'g'risidagi fan.

«Qomusiy lug'at»da ham shunga yaqin izoh beriladi, lekin unda birmuncha kengroq yoritiladi: «Fan sifatida texnologiyaning vazifasi har tomonlama samarali va tejimli ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlash va amaliyotda undan foydalanish maqsadida fizika, kimyo, mexanika va boshqa qonuniyatlarini bajarish.» (M., 1979)

Texnologiya grekcha so'z bo'lib, "texnos"- san'at, mahorat, "logos"- ta'limot degan ma'nolarni bildiradi.

Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud bo'lgan: u texnik vositalar haqidagi ta'limot deb, hamda o'qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin qilingan. Hozir pedagogik texnologiyalarning bir qancha ta'riflari mavjud.

V.P. Bespalko pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi sifatida belgilaydi. U pedagogik tizim texnologiyalar ishlab chiqish uchun asos boladi, deb hisoblaydi. Bunda asosiy diqqat o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratiladi, didaktik vazifa va o'qitish texnologiyalari tushunchasidan foydalaniladi. Shu tariqa V.P. Bespalko o'quv jarayonini loyihalash g'oyasini ilgari suradi. Afsuski, hozirgi qadar pedagogik texnologiya va loyiha tushunchalari haqida aniqlik yo'q.

N.F.Talizina har bir pedagog real pedagogik jarayonni tashkil etishdan oldin o'quv jarayoni haqida texnologik darajada bilimlar tizimini bilib olgan bo'lishi shart deb hisoblaydi, U fan va amaliyot oralig'ida tamoyillarni olg'a suruvchi, metodlar ishlab chiquvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi alohida fan bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Ularsiz pedagogik jarayon texnologiya real o'qitish jarayoni sifatida asoslanmay qoladi.

Ayrim mualliflar o'qitish texnologiyalariga fan va san'at oralig'idagi fan deb qaraydilar, boshqalari uni loyihalash bilan bog'laydilar. Shunday qilib, bir yondashuvda o'qitish texnologiyalari o'qitishning barcha vositalarini qamrab olgan qandaydir jihozlash sifatida ham belgilanadi. Unda texnologiya o'quv jarayonini texniklashtirishni taqozo qiladi. Boshqa yondashuvda texnologiyaga ta'lim amaliyotini yangi yoki zamonaviylashtirilgan bilimlar bilan ta'minlashning usuli sifatida qarashga imkoniyat beradi. Bunda texnologiyaga ta'limning ilmiy tamoyillari va amaliyotini tatbiq etish sifatida qaraladi.

Texnologiya tushunchasi 60-yillardagi Amerika va G'arbiy Yevropada ta'limni isloh qilinishi bilan bog'liq ravishda kirib keldi. B.Blui, J. Koroll, P.Ya.Galperin, V.I.Davidov, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmikova, L.I.Zankov texnologiyalari mashhur. O'qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari V.P.Bespalko, N.F.Talizina, L.M.Fridman, Yu.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavsev, A.M. Matyushkin, M.I.Maxmutov kabi aksariyat psixolog va didaktikachilarga taalluqlidir.

Texnologik yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat o'qitish texnologiyalari bo'sh texnologiyalanganligi bo'yicha qolib ketmoqda. Bir qator texnologiyalarda nazariy asoslar kuehaytirilgan bo'lib, amaliy tomoni u qadar oydinlashtirilmagan.

T.A.Ballo texnologiyaning bir tomonini, ya'ni o'qitishda topshiriqli yondashuvni yoritadi. BoshqaJarida yo kompyuter orqali dasturlashtirilgan o'qitish yoki o'qitishning muammoli tuzilmasi ajralib turadi.

L.V. Zankov, T.Ya.Galperin, V.I.Davidov tadqiqotlarida bosqichli o'qitishning yaxlit texnologiyalari haqida fikr yuritiladi.

1. Pedagogik texnologiyada hali ko'p aniqlanmagan masalalar bor. Bu muammoni tadqiq etish, o'qitish texnologiyasining tushunchasi va metodologik mohiyatini aniqlash bilan bog'liq.

Pedagogik texnologiya o'ziga xos va potensial yaratiladigan pedagogik natijalarga erishish uchun, pedagogik tiziniing barcha tashkiliy tomonlariga aloqador nazariy va amaliy (ta'lim tizimi doirasida) tadqiqotlar sohasi sifatida belgilanadi.

«**Pedagogik texnologiya** — psixologik va pedagogik o'gitlar yig'indisi bo'lib, shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to'plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik omilini ham bildiradi» (B.Lixachev).

«**Pedagogik texnologiya** — o'quv jarayonini amalga oshirishning mazmuniy texnikasi» (V.P. Bepalko).

«**Pedagogik texnologiya** — rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi» (I.P. Volkov).

«**Texnologiya** — ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mahorati, malakasi va metodlar yig'indisi» (V.M. Shepel).

«**Pedagogik texnologiya** — talaba va o'qituvchining ularga zarur sharoit yaratish orqali o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha ular pedagogik faoliyatining har tomonlama o'ylangan modelidir.» (V. M. Manaxov).

«**Pedagogik texnologiya** — bu ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir» (YUNESKO).

«**Pedagogik texnologiya** — pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo'Mishning tizimli yig'indisi va tartibini bildiradi» (M.V.Clarin).

«**Pedagogik texnologiya** — o'zida turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta'riflari mazmunini qamrab olgan mazmuniy umumlashma hisoblanadi».(G.K. Selevko).

Texnologiyalar va pedagogik texnologiyalarga quydagicha ta'riflar berilgan:

- "Faoliyatda, biror ishda, mahoratda, san'tda qo'llaniladigan usullar yig'indisidir" (Izoxli lug'at ta'rifi)

- "Texnologiya – ishlov berish, axvolni o'zgartirish san'ati, mahorati, qobiliyati, metodlari yig'indisidir" (V. M. Shepelh)

- “Pedagogik texnologiya ta’limni rejalashtiriladigan natijalarga erishish jarayoni tafisloti” (I. P Volkov ta’rifi)

- “Ta’lim texnologiyasi – didaktik tizimning tarkibiy jarayonli qismi” (M. Chorshanov ta’rifi)

- “Pedagogik texnologiya- muayyan vaziyatlarda pedagogik maslaxatlarni yechishning optimal usuli” (A. Kushnir)

- “ Aniq natijani qo’lga kiritishga yo’naltirilgan aniq faoliyat” (V. P. Yudin ta’rifi)

- “O’qituvchining mahoratiga bog’liq bo’lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlaydigan, ta’lim oluvchi shaxsini shakllantirish jarayonning loyixasidir” (V.P. Bepalko ta’rifi)

- “O’qituvchining o’qitish (tarbiya) vositalari yordamida ta’lim oluvchilarga muayyan sharoit va izchillikda ta’sir ko’rsatish xamda mazkur faoliyatning maxsuli sifatida ularda oldindan belgilangan sifatlarni shakllantirish jarayonidir” (N. Saidaxmedov ta’rifi.)

Texnologiya va pedagogik texnologiyaga berilgan tahrif mazmunidan mahlumki mahorat sanhat bilan ta’lim jarayonini tashkil etish boshkarish amalga oshirish ma’nolari kelib chikadi.

Faqat, V.P.Bespalkoning ta’rifida pedagogik texnologiyani o’qituvchining mahoratiga bogliq bo’lmay ammo pedagogik jarayonning ijobiy muvaffaqiyatli bo’lishini taminlashini, ta’lim oluvchilar shaxsini esa ijobiy tomonga shakllantirishini ta’kidlagan. Bizningcha, olim Ta’lim beruvchimahoratiga bogliq bo’lmay deganda mulhtimediyan nazarda tutgan bo’lsa ajab emas. Chunki, mulhtimediya asosida dars o’tish jarayonida Ta’lim beruvchiboshqaruvchi rolini o’taydi, asosiy vazifani, dars loyixasini mulhtimediya (ovozli, rejali, ko’rgazmali, ma’lum bir soatga muljallangan, DTS ga mos keladigan dars shakli) boshqaradi ya’ni dars mulhtimediya asosida tashkil etiladi. Unda Ta’lim beruvchideyarli boshqaruvchi rolini o’taydi va passiv ishtirok etadi.Ta’kidlash joizki mulhtimediya asosida o’tilgan darslar yuqori saviyada bo’ladi.Unda ta’lim oluvchilarning ilmiy saloxiyati, bilish faoliyati shakllanadi.

Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish tarixi turli davrlarda turlicha ko’rinishlarda bo’lagan.


Masalan, pedagogik texnologiya-1940-1950-yillarda “ta’lim texnologiyasi”deb nomlanib ta’lim jarayonida texnik vositalardan (diafilm kineskop magnit metalari va boshqalar) dan foydalanib dars o’tishga nisbatan pedagogik texnologiya deb atalgan.

1950-1970-yillarda bilimlarni o’zlashtirishning barcha tomonini qamrab olib kompleks integrativ jarayonga nisbatan qo’llanilgan ta’lim turiga pedagogik texnologiyalar deb atalgan.


Hozirgi kunda pedagogik texnologiyalar deb ta’limning komphyuterli va axborot texnologiyalarini yaratish va dars jarayonida ulardan foydalanishga nisbatan aytiladi.

Hozirgi kunda pedagogik texnologiyalar bu ta’lim jarayonini tubdan islox etish, yangicha shakl, usul, vositalar asosiga qurish boshqarish va tashkil etishning mexanizmi va loyixasidir.

Klaster usulining mazmuniga ko'ra texnologiya va pedagogik texnologiyani quyidagicha izoxlash mumkin.



3-rasm “Texnologiya” soʻzining “Klaster” usulining mazmuniga koʻra izohlanishi



4-rasm “Pedagogik texnologiya” soʻzining “Klaster” usulining mazmuniga koʻra izohlanishi

Pedagogik texnologiyaning darajalari, tuzilishi va nazariy asoslari

Ta'lim amaliyotiga nisbatan pedagogik texnologiyaning uch sathi, ya'ni darajalari quyidagicha belgilanadi: umumpedagogik, xususiy metodik, lokal (modul).

1. **Umumiy pedagogik daraja.** Umumiy pedagogik (umumdidaktik,

umumtarbiyaviy) texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining yaxlit tizimligi, ma'lum bir region, o'quv yurti tomonidan uzliksiz ta'lim tizimining muayyan bir bosqichidagi texnologiyaning umumiy qo'nuniyatlari, ilmiy-nazariy asoslari, tamoyillari, amaliyotda qo'llashning umumiy xususiyatlari, shart-sharoitlarini ifodalaydi. Shu o'rinda qayd etish kerakki, uzliksiz ta'lim tizimining har bir bosqichida ta'lim mazmuni orqali tegishli o'ziga xos maqsad va vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilganligi sababli, pedagogik texnologiya ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Bu darajada pedagogik texnologiya pedagogik tizim tushunchasiga sinonim xisoblanadi. Uning tarkibiga ta'lim-tarbiya jarayonining maqsad va vazifasi, mazmuni, vosita va metodlari, tarbiya jarayonining ob'ekti va sub'ekti faoliyatining algoritmlari kiradi.

2. **Xususiy metodik darajada** pedagogik texnologiyaning muayyan bir predmet, kursni o'qitish jarayonining maqsad va vazifalarini amalga oshirish maqsadida foydalaniladigan ta'lim mazmuni, o'qitish vositalari, metodlari, shakllarining majmuasi tushuniladi.

3. **Lokal (modul) darajada** ta'lim-tarbiya jarayonining ma'lum bir qismining xususiy didaktik va tarbiyaviy maqsadini hal etishga qaratidgan texnologiya tushuniladi. Unda o'quvchilarning mustatsil ishlarini tashkil etish, o'quvchilar bilimni nazorat qilish, shaxsiy fazilatlarni shakllantirish kabi masalalar ko'zda tutiladi. Pedagogik texnologiyaning yuqorida qayd etilgan uchta darajasi bir-birini to'ldiradi va taqozo etadi. Biz pedagogik texnologiyani qo'llash haqida so'z yuritishdan avval, pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslariga to'xtalib o'tamiz.

Pedagogik texnologiya bir qancha asoslarga ega. Bulardan eng ahamiyatlilari ijtimoiy, falsafiy, metodologik, didaktik, pedagogik, psixologik, fiziologik, gigienik, mafkuraviy, huquqiy-me'yoriy, iqtisodiy, tarixiy, nazariy, amaliy va boshqa asoslar xisoblanadi. Ular bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

Pedagogik texnologiyaning ijtimoiy asosi har bir shaxs, jamiyat va davlatning ta'limtarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi va shu ehtiyojlarni qondirishning maqsad va talablarini, tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi. U shaxsning, jamiyatning va davlatning rivojlanishida asosiy omillardan hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning **falsafiy asosi** uning maqsadlari hamda tashkiliy shakl va usullarining falsafiy jihatdan to'g'ri yo'nalishda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Falsafiy oqimlar va yo'nalishlarning har biri ta'lim-tarbiya masalalariga o'ziga xos yondashadi. Shu sababdan pedagogik texnologiyaning falsafiy yo'nalishi uning to'g'ri yoki noto'g'riligini, jamiyatning ma'lum maqsadlariga muvofiq yoki zidligini ko'rsatadi. Bu pedagogik texnologiyalarga baho berishda asosiy ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning **metodologik asosi** uni amalga oshirishda qaqday metodlarga asoslanilishini belgilaydi. Insonlarning olamni hamda o'zlarini bilishlari turli tarixiy davrlarda turlicha asoslarga ega bo'lgan va ular o'ziga xos metodlarni keltirib chiqargan. Hozir olam va uning xususiyatlari haqida xolis ma'lumotlar olish, haqqoniy bilimlar hosil qilishning ilmiy metodologiyasi pedagogik texnologiyalarning metodologik asosi hisoblanadi. Metodologik asosning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi pedagogik texnologiyalar uchun zaruriy shartdir.

Pedagogik texnologiyaning **didaktik asosi** uning ta'lim-tarbiya qoida va tamoyillariga muvofiqligini belgilaydi. Didaktik talablar ta'lim-tarbiyaviy vazifalarning nazariy jihatdan to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiyaning didaktik jihatdan to'g'ri bo'lishi uning yuqori samaradorligining zaruriy sharti hisoblanadi. Buning uchun zamonaviy didaktikaning ilmiy xulosalaridan ijodiy foydalanish talab qilinadi.

Pedagogik texnologiyaning **pedagogik asosi** zamonaviy pedagogika fanining ilmiy xulosalaridan kelib chiqadi. Bunda pedagogik texnologiyaning umumiy tarkibiy tuzilishi, mazmuni, shakli, usullari, vositalari, pedagogik jarayonning tashkil qilinishi, olib borilishi, uning diagnostikasi, monitoringi, o'quv-mavzu rejalar va shu kabilarning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi ta'minlanadi. Pedagogik texnologiyalar hozirgi pedagogika fanining rivojlanishida katta o'rin egallab bormoqda.

Pedagogik texnologiyaning **psixologik asosi** psixologiya fanining ilmiy xulosalari va tavsiyalari bilan belgilanadi. Ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida to'g'ri foydalanish orqaligana kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu sababli pedagogik texnologiya psixologiya qonunlarini to'liq hisobga olishi talab qilinadi. Ta'limning har bir bosqichida tegishli yosh psixologiyasi xususiyatlariga moslashtirilgan pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi. Har bir bosqichda tegishli darajadagi bilim va tarbiya beriladi. Bu masalalarni o'rganish bilan pedagogik psixologiya fani shug'ullanadi.

Pedagogik texnologiyaning **fiziologik asosi** ta'lim oluvchilar-ning turli yoshdagi fiziologik xususiyatlarini hisobga olishdan iborat. Bunda o'gil va qiz bolalar fiziologiyasidagi farqlar aloxida xisobga olinishi lozim. Pedagogik texnologiya jarayonida fiziologik talablarni hisobga olish sog'lom avlodnivoyaga etkazishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning **gigienik asosi** ta'lim-tarbiya jarayonida salomatlikni saqlash talablariga rioya qilishdan iborat. Bunda turli zararli va ortiqcha ta'sirlarni bartaraf qilish, o'quv sharoiti: yoritilganlik, harorat, havoning toza-ligi, ta'lim oluvchining va o'qituvchining ish o'rni, jihozlar, o'quv nagruzkalarining me'yorlari, didaktik vositalarning qulayligi, sifati va shu kabilar tibbiyot,

fiziologiya, ergonomika, ekologiya talablariga, insonparvarlik va xalqparvarlik g'oyalariga muvofiq bo'lgan ilmiy asoslarda belgilab boriladi.

Bu talab va me'yorlarga rioya qilish pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini yaratadi. Bu masalalarni o'rganish bilan maktab gigienasi fani shug'ullanadi.

Pedagogik texnologiyaning **mafkuraviy asosi** uning milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasini tamoyillarini o'zida mujassam etishi va ularni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishidan iborat. Bunda barkamol insonni shakllantirishda mafkuraviy tarbiyaning fidoyi, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan boshqalarga ibrat bo'ladigan, bilimli, ma'rifatli, ijtimoiy faol insonni voyaga etkazishdan iborat asosiy vazifalarni amalga oshirib borishi har bir pedagogik texnologiya uchun dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning **huquqiy-me'yoriy asosi** ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirishga doir qonuniy va me'yoriy hujjatlar bilan belgilanadi. Bular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, „Ta'lim to'g'risida“gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiya sohasiga tegishli Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Xalq ta'limi vazirligining qaror va buyro'qdari, ular asosida tayyorlanib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan nizomlar, ustavlar va boshqa me'yoriy hujjatlar hisoblanadi. Pedagogik texnologiya jarayoni ishtirokchilari ushbu huquqiy-me'yoriy asoslarni tegishli darajada bilishlari va amalga oshirib borishlari lozim.

Pedagogik texnologiyaning iqtisodiy asosi ta'lim menejmenti xulosalari va marketing tadbikotlari natijalariga muvofik belgilanadi. Pedagogik texnologiya ijtimoiy soxadagi faoliyat bulgani sababli uning iqtisodiy samarasi o'ziga xos tartiblarda aniqlanadi va ta'minot masalalari xal kilib boriladi. Pedagogik texnologiya iqtisodiy asosining mustaxkam bo'lishi uni amaliyotda davom ettirish uchun zaruriy shart xisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning **tarixiy asosi** ta'lim-tarbiya masalalarini turli tarixiy davrlarda amalga oshirishning shakl va usullari, mazmuni xamda turli pedagogik nazariyalar xaqidagi ma'lumotlardan iborat bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarning kelib chiqishi uchun zamin xisoblanadi. Hozirgi pedagogik texnologiyalar turli davrlarda boshlangan ishlar, olib borilgan taxlillar, chiqarilgan xulosalar, mutafakkirlar bildirgan fikr-muloxazalarning rivojlantirilishi asosida paydo bo'lib, takomillashib bormoqda. Pedagogik texnologiyaning tarixiy asosi uning o'ziga xos ildizlarini tashkil qilishini xisobga olgan xolda ularni bilish va chuqur o'rganish kelgusi rivojlanish yo'llarini belgilashda muxim ahamiyatga ega.

Yuqorida aytilgan va boshqa asoslar umumlashtirilsa, har bir pedagogik texnologiyaning o'z nazariy va amalii asoslari kelib chiqadi. Ular aloxida maqsad, vazifalari, mazmuni, shakl, usul, vositalariga muvofiq belgilanadi.

Pedagogikada, o'qitish texnologiyalari bilan biiga ta'limiy texnologiyalar ham o'rin olgan. Ta'limiy texnologiyalar mazmun-axborot aspektini bildirsa, o'qitish texnologiyasi jarayonga aloqador deb hisoblanadi, ya'ni ular orasida hali ham aniq farqlar beigilanmagan.

Pedagogik texnologiya talabalarning tayyorgarlik darajasiga, ulaming axborotlar bilan tanishganlik va amaliy tayyorgarligiga moslangan bo'lishi lozim. Kasbiy ta'lim tizimida o'qitish texnologiyalari fundamental va amaliy bilimlaming o'zlashtirilishini, harakatlaming reflektivligini aks ettiradi va o'z kasbiy faoliyatini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiya Ta'lim beruvchiva talaba faoliyati bilan belgilanadi. Faoliyatning bunday turlariga ko'ra pedagogik texnologiyaning tuzilmasi aniqlanadi.

Pedagogik texnologiyaning tuzilmasi:

- konseptual asos,
- ta'lim jarayonining mazmuni
- texnologik jarayondan iborat bo'ladi.

Har bir pedagogik texnologiya muayyan ilmiy konsepsiyaga asoslanadi. Pedagogik texnologiyaning ilmiy konsepsiyasi ta'lim maqsadlariga erishishning:

- falsafiy,
- psixologik,
- ijtimoiy-pedagogik
- didaktik asoslashlami qamrab oladi.

Ta'lim jarayoni mazmuni ta'lim jarayonining:

- umumiy va aniq maqsadlari,
- o'quv material mazmunidan iborat bo'ladi.

Texnologik jarayon:

- o'quv jarayonini tashkil etish,
- Ta'lim beruvchifaoliyati,
- talaba faoliyati,
- o'quv jarayonini boshqarish usullari,
- o'quv jarayoni diagnostikasini qamrab oladi.

Tadqiqotchilar har qanday pedagogik texnologiyalami qanoatlantiradigan mezonlarni belgilaydilar:


- Izchillik pedagogik texnologiyaning mezoni sifatida jarayonning mantiqiyliqi, pedagogik texnologiyaning barcha qismlarining o'zaro bog'likligi, yaxlitligani o'z ichiga oladi.

- Boshqaruvga asoslanganligi pedagogik texnologiyaning mezonlaridan biri. U o'quv jarayoni diagnostikasi, uni rejalashtirish va amalga oshirishni loyihalash, undagi o'qitish metodlari va vositalari bilan o'zgartirib turishdan iborat bo'ladi.

- Samaradorlik mezoni pedagogik texnologiyaning ta'lim jarayonining konkret sharoitlarida olinadigan yo'qsak natijalami ko'zda tutadi.

- Qayta tiklash pedagogik texnologiyalar mezonlaridan biridir. Unda pedagogik texnologiyalami boshqa o'quv yurtlarida qo'llash imkoniyati tushuniladi. Shunday qilib, oliy maktabda mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi murakkab va doimiy harakatdagi tizimni tashkil etadi. Bu tizimda bo'lg'usi o'qituvchining texnologik tayyorgarligi alohida o'rin tutadi. U bo'lg'usi pedagogning intellektual rivojlanishi, faol o'qishi, ijodiy shaxsning rivojlanishi, tafakkuming kasbiy yo'nalganligini idrok qilish, o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishda tadqiqiy (ilmiy) tamoyillami amalga oshirish bilan bog'langan.

Bo'lg'usi pedagogning texnologik tayyorgarligi, oliy o'quv yurtida pedagogik texnologiyalami amalga oshirishni talab qiladi.



5-rasm Oliy o'quv yurti ta'lim jarayonida keng foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar

Pedagogik texnologiya fanining quyidagi asosiy tushunchalari mavjud:

1. Texnologiya – biror ishda mahoratda, jarayonda qo'llaniladigan yo'llar, usullar majmuasi.

2. Pedagogik texnologiya – pedagogik va texnologik yondashuvlar integrasiyasidir.

3. Pedagogik loyihalash – yaratilgan modelni dastlabki va yakuniy ko'rinishda ishlab chiqish va uni amaliy qo'llash darajasiga yetkazishdan iborat.

4. Pedagogik tizim –bir biribilan o'zaro bog'langan mo'ayyan munosabatda bo'lgan elementlar bilan tasvirlangan yahlit ta'lim tizimidir.

5. Pedagogik innovasiya – pedagogik jarayonga yangilik kiritish.

6. Pedagogik jarayon – Ta`lim beruvchiva ta`lim oluvchi orasidagi ta`limiy va tarbiyaviy munisabatlar tizimi.

Tayanch tushunchalar tahlili

pedagogik texnologiya	pedagogik va texnologik yondashuvlar integrasiyasidir
kategoriya	Moddiy dunyodagi narsa vahodisalarining eng muhim xususiyatlari va aloqalarini ifodalovchi muhim tushuncha ⁴
metodologik asos	olam va uning xususiyatlari haqida xolis ma`lumotlar olish, haqqoniy bilimlar hosil qilishning ilmiy metodologiyasi pedagogik texnologiyalarning metodologik asosi hisoblanadi.
texnologiya	biror ishda mahoratda, jarayonda qo`llaniladigan yo`llar, usullar majmuasi.
tarixiy rivojlanish	Tabiat va jamiyatning, undagi ma`lum sohalarning rivojlanishi, o`zgarish bilan bog`liq ma`lumotlar majmui
davr	Jamiyat taraqqiyotida yoki tabiatda muhim voqea, hodisa yuz bergan yoki o`ziga xos xususiyati bilan ajralib turadigan ma`lum vaqt oralig`i
pedagogik olimlar	Ta`lim va tarbiya jarayonining yangi qirralarini yorituvchi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug`ullanuvchi shaxslar
daraja	Ish-harakat, xususiyat yoki holatning me`yori, chegarasini anglatuvchi so`z
tuzilish	Tarkibiy qismlarning o`zaro joylanishi
nazariy asos	Voqea, hodisani tushunish-tushuntirishning umumiy prinsiplarini asoslabberuvchi ilmiy qonun-qoidalar majmui

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. O`Tolipov, D.Ro`ziyeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.- T.:Innovatsiyo-ziyo, 2019.
2. Interfaol metodlar: mohiyati va qo`llanilishi / Metodik qo`llanma. Tuzuvchilar: D.Ro`zieva, M.Usmonboeva, Z.Holiqova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. – 136 bet.
3. Golish L.V. Texnologii obucheniya na lektsiyax i seminarax/ Uchebnoe posobie/ Pod obsh red. Akad. S.S. Gulyamova. - T.: TGEU, 2005.
4. O`. Tolipov, M. Usmonboeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va

⁴ O`zbek tilining izohli lug`ati “K” harfi 46-bet

Nazorat uchun savollar:

1. Pedagogik texnologiya pedagogikaning mustaqil soxasi sifatida qachon rivojlanib, fanga kirib keldi?
2. . Pedagogik texnologiya fanining asosiy maqsadi nima?
3. Texnologiya»ning fan sifatida vujudga kelish sababalari?
4. «Texnologiya»ning fan sifatida shakllanishi qanday imkoniyatini keltirib chiqardi?
5. «Texnologiya» va «Pedagogika»ning fan sifatida bir tarixiy davrda shakllanganligi qanday hodisa?
6. Pedagogik texnologiyaning qanday aspektlari mavjud?
7. Pedagogik texnologiya qanday asoslarga ega?
8. Pedagogik texnologiya fanining qanday asosiy tushunchalari mavjud?
9. Pedagogik texnologiya fanining qanday kategoriyalari mavjud?
10. Tarixan “Texnologiya” tushunchasi qanday yuzaga kelgan?

Test topshiriqlari

::1.1-savol::

Tarixan “Texnologiya” tushunchasi qanday yuzaga kelgan?

{

= texnik taraqqiyot bilan bog‘liq ravishda yuzaga kelgan # a`lo javob

~ mexanik taraqqiyot bilan bog‘liq ravishda yuzaga kelgan #yana urinib ko`ring

~ mexnat taraqqiyot bilan bog‘liq ravishda yuzaga kelgan #yana urinib ko`ring

~ tarixiy taraqqiyot bilan bog‘liq ravishda yuzaga kelgan #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 64-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::1.2-savol::

Texnologiya qanday so‘z?

{

~ nemischa #yana urinib ko`ring

= grekcha # a`lo javob

~ o`zbekcha #yana urinib ko`ring

~ ruscha #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 64-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::1.3-savol::

Texnologiya so‘zi qanday ma’nomani bildiradi?

{

~ texnos- texnika, mahorat, logos-ta’limot degan #yana urinib ko`ring

~ texnos- maktab, mahorat, logos- ma’lumot degan #yana urinib ko`ring

~ texnos- san’at, mahorat, logos- ma’lumot degan #yana urinib ko`ring

= texnos- san’at, mahorat, logos- ta’limot degan # a`lo javob

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 64-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::1.4-savol::

V.P. Bospalko qanday g‘oyani ilgari suradi.?

{

~ o‘quv jarayonini taqqoslashni #yana urinib ko`ring

~ o‘quv jarayonini ifodalashni #yana urinib ko`ring

= o‘quv jarayonini loyihalashni # a`lo javob

~ o‘quv jarayonini texnologiyalashni #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 65-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::1.5-savol::

Ayrim mualliflar o‘qitish texnologiyalariga qanday qaraydilar,?

{

~ fan va adabiyot oralig‘idagi fan deb #yana urinib ko`ring

~ fan va texnika oralig‘idagi fan deb #yana urinib ko`ring

~ fan va mahorat oralig‘idagi fan deb #yana urinib ko`ring

= fan va san’at oralig‘idagi fan deb # a`lo javob

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 65-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::1.6-savol::

Texnologiya tushunchasi qachon, qayerga va qanday kirib keldi?

{
= 60-yillardagi Amerika va G`arbiy Yevropada ta`limni isloh qilinishi bilan bog`liq ravishda # a`lo javob
~ 50-yillardagi AQSH va G`arbiy Yevropada ta`limni isloh qilinishi bilan bog`liq ravishda #yana urinib ko`ring
~ 40-yillardagi Germaniya va G`arbiy Yevropada ta`limni isloh qilinishi bilan bog`liq ravishda #yana urinib ko`ring
~ 30-yillardagi Amerika va Berlinda ta`limni isloh qilinishi bilan bog`liq ravishda #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 65-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::1.7-savol::

Ilmiy adabiyotlarda pedagogik texnologiyaning necha aspekti to`g`risida fikr yuritiladi?

{

~ 5 ta #yana urinib ko`ring
= 3 ta # a`lo javob
~ 7 ta #yana urinib ko`ring
~ 9 ta #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 68-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::1.8-savol::

Ilmiy adabiyotlarda pedagogik texnologiyaning necha aspekti to`g`risida fikr yuritiladi,bular...

{

~ ilmiy, tarixiy, amaliy #yana urinib ko`ring

~ tarixiy, tavsifiy, amaliy #yana urinib ko`ring

= ilmiy, tavsifiy, amaliy # a`lo javob

~ ilmiy, tavsifiy, tarixiy #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 68-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::1.9-savol::

Pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektida ... ilmiy asoslanadi hamda pedagogik jarayon loyihalashtiriladi.

{

~ o`qituvchining maqsadi, mazmuni va metodlari #yana urinib ko`ring

~ ta`lim oluvchining maqsadi, mazmuni va metodlari #yana urinib ko`ring

= o`qitishning maqsadi, mazmuni va metodlari # a`lo javob

~ o`qqishning maqsadi, mazmuni va metodlari #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 68-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::1.10-savol::

Pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektida o`qitishning maqsadi, mazmuni va metodlari ilmiy asoslanadi hamda ... loyihalashtiriladi?

{

~ motivatsion jarayon #yana urinib ko`ring

~ texnologik jarayon #yana urinib ko`ring

~ tarixiy jarayon #yana urinib ko`ring

= pedagogik jarayon # a`lo javob

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 68-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::1.11-savol::

Pedagogik texnologiyaning tavsifiy aspektida ..., mazmuni, metodlari va vositalarining ishtiroki asosida algoritm jarayoni ishlab chiqiladi?

{
= rejalashtirilgan o‘qitish natijalariga erishishning maqsadi # a`lo javob
~ rejalashtirilgan tarbiya natijalariga erishishning maqsadi #yana urinib ko`ring
~ rejalashtirilgan texnika natijalariga erishishning maqsadi #yana urinib ko`ring
~ rejalashtirilgan loyixa natijalariga erishishning maqsadi #yana urinib ko`ring
}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 68-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::1.12-savol::

Pedagogik texnologiyaning tavsifiy aspektida rejalashtirilgan o‘qitish natijalariga erishishning ... va vositalarining ishtiroki asosida algoritm jarayoni ishlab chiqiladi

{
= maqsadi,mazmuni, metodlari # a`lo javob
~ maqsadi, texnikasi, metodlari #yana urinib ko`ring
~ maqsadi,mazmuni, kategoriyalari #yana urinib ko`ring
~ vazifalari,mazmuni, metodlari #yana urinib ko`ring
}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 1-adabiyotni 68-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::1.13-savol::

Pedagogik texnologiyaning tavsifiy aspektida rejalashtirilgan o‘qitish natijalariga erishishning maqsadi, mazmuni, metodlari va vositalarining ishtiroki asosida qanday jarayoni ishlab chiqiladi?

{
= algoritm # a`lo javob
~ texnik #yana urinib ko`ring
~ mexnat #yana urinib ko`ring
~ tarixiy #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 68-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::1.14-savol::

Pedagogik texnologiyaning amaliy aspektida qanday jarayon amalga oshiriladi?

{

= pedagogik texnologiya # a`lo javob

~ mexanik texnologiya # yana urinib ko`ring

~ mexnat texnologiya # yana urinib ko`ring

~ taraqqiyot texnologiya # yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 68-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::1.15-savol::

Ta`lim amaliyotiga nisbatan pedagogik texnologiyaning nechta (sathi) darajasi mavjud?

{

= uchta # a`lo javob

~ beshta # yana urinib ko`ring

~ yettita # yana urinib ko`ring

~ o`nta # yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 68-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::1.16-savol::

Ta`lim amaliyotiga nisbatan pedagogik texnologiyaning qanday (sathi) darajalari mavjud?

{

= umumpedagogik, xususiy metodik, lokal (modul) # a`lo javob

~ mexanik, xususiy metodik, lokal (modul) # yana urinib ko`ring

~ mexnat, umumpedagogik, xususiy metodik # yana urinib ko`ring

~ umumpedagogik, o`quv- metodik, lokal (modul) # yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 68-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::1.17-savol::

Umumpedagogik texnologiya ... ifoda qiladi

{

= yaxlit ta'lim jarayonini # a`lo javob

~ pedagogik ta'lim jarayonini #yana urinib ko`ring

~ mehnat ta'lim jarayonini #yana urinib ko`ring

~ tarixiy ta'lim jarayonini #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2adabiyotni 68-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::1.18-savol::

Xususiy metodik texnologiya bir...amalga oshirish metodlari va vositalaridan iborat bo'ladi.

{

= fan doirasidagi o'quv -tarbiya jarayonini # a`lo javob

~ taraqqiyot doirasidagi o'quv -tarbiya jarayonini #yana urinib ko`ring

~ sinf doirasidagi o'quv -tarbiya jarayonini #yana urinib ko`ring

~ mavzu doirasidagi o'quv -tarbiya jarayonini #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 68-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::1.19-savol::

Lokal (modul) texnologiya ... maxsus bo'limlariga texnologiyani tatbiq qilishni ifoda qiladi.

{

= o'quv - tarbiya jarayonining # a`lo javob

~ o'quv - uslubiy jarayonining #yana urinib ko`ring

~ o'quv - ilmiy jarayonining #yana urinib ko`ring

~ o'quv-aqliy jarayonining #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 68-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::1.20-savol::

Lokal (modul) texnologiya xususiy qanday vazifalarni hal qilishga qaratiladi?

{

= didaktik va tarbiyaviy # a`lo javob

~ metodik va tarbiyaviy # yana urinib ko`ring

~ didaktik va metodik # yana urinib ko`ring

~ pedagogik va tarbiyaviy # yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 69-saxifani qayta ko`rib chiqin/

Mustaqil ishlash uchun topshiriq

mustaqil tarzda mavzuga oid so`zlarni “Klaster” grafik organayzeri asosida tahlil qilib bering.

“KLAUSTER” GRAFIK ORGANAYZERI

“Klaster” (g`uncha, to`plam, bog`lam) grafik organayzeri puxta o`ylangan strategiya bo`lib, uni ta`lim oluvchi (talaba)lar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg`ulotlarda qo`llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g`oyalarni umumlashtirish, ular o`rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Grafik organayzerdan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:

Nimani o`ylangan bo`lsangiz, uni qog`ozga yozing! Fikringizning sifati haqida o`ylab o`tirmay, shunchaki yozib boring!


Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e`tibor bermang!

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmagunicha, yozishdan to`xtamang! Agar ma`lum muddat o`ylay olmasangiz, u holda qog`ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang! Bu harakatni yangi g`oya tug`ilguniga qadar davom ettiring!

Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko`proq yangi g`oyalarni ilgari surish, ular o`rtasidagi o`zaro aloqadorlik, bog`liqlikni ko`rsating!


6-rasm. Grafik organayzerdan foydalanishda rioya qilish talab etiladigan shartlar

Misol uchun “Texnologiya” soʻzini klastirlash



7-rasm “Texnologiya” soʻzining “Klaster” usulining mazmuniga koʻra izohlanishi

Quyidagi grafik organayzer yordamida mavzuga oid soʻzni klaster (mayda, alohida qismlar) tarzida quyidagicha ifodalang:



8-rasm “Klaster” usulining koʻrinishi

TA'LIM JARAYONIDA TA'LIM OLUVCHI SHAXSI. PEDAGOGIK TIZIM PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING ASOSI. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR TASNIFI

Reja:

1. O`quvchi shaxsi ta`lim jarayoning obyekti va subyekti sifatida
2. Pedagogik jarayon tizim sifatida, pedagogik texnologiyaning asosiy belgilari va tasnifi
3. Pedagogik texnologiya turlari

Tayanch tushunchalar: bilim, shaxs, moddiy bilimlar, texnik bilimlar, tushuncha, aq`liiy faoliyat usullari, shaxsning yo`naltirilganlik darajasi, shaxs tajribasi darajasi, ong, refleksiya

O`quvchi shaxsi ta`lim jarayoning obyekti va subyekti sifatida


Zamonaviy ta`lim tizimi fuqaroning bilim olishi, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishi, individual jixatdan rivojlanishi, kasbi bo`yicha mehnat q`ilish xuquqini ro`yobga chiqarish omili.

Shaxs - insonning ruxiy, ma`naviy mohiyati bo`lib, unda quyidagi sifatlar umumlashgan tizim xolatida bo`ladi:

- Ijtimoiy ahamiyatga molik xususiyatlar majmuasi;
- Atrof-muxitga, o`ziga va dunyoga bo`lgan munosabatlar tizimi;
- Hayot davomida turli ijtimoiy vazifalarni bajarishi orq`ali vujudga keladigan faoliyat tizimi, xulq`-atvor majmuasi;
- Dunyoni va unda o`zining o`rnini anglash;
- Extiyojlar tizimi;
- Q`obiliyat va ijodiy imkoiyatlar majmuasi;
- Tashqi muxit ta`sirlariga javob berish reaksiyasi va x.k.

Shaxs sifatleri taxlil q`ilinganda unda nasliy (biologik) va hayotda orttirilgan ijtimoiy sifatlar uygun xolatda bo`lishini ko`rish mumkin.

Shaxsda biologik va ijtimoiy sifatlarining nisbatiga ko`ra ular to`rt darajaga bo`linadi:



1-rasm. Shaxsda biologik va ijtimoiy sifatlarining nisbatiga ko`ra darajalarga bo`linganligi

I. Temperament darajasi insonlarning irsiyat orqali belgilangan nerv sistemasining xususiyatlari tushiniladi. Ular jumlasiga instinkt va ehtiyojlarning o'ziga osligi, jinsiy, yosh, milliy va boshqa xususiyatlar kiradi.

II. Ruxiy jarayonlarning o'ziga xoslik darajasi - iroda, sezgi, tafakkur, xotira, diqqat, tasavvur, axborotni qabul qilish va xarakterning o'ziga xos tomonlarini o'z ichiga oladi.

Shaxsning mantiqiy fikr yuritish operatsiyalari (taqqoslash, abstrakt tasavvur, induksiya, deduktsiya), aqliy faoliyat usullarini egallaganligi muxim rol o'ynaydi.

III. Shaxs tajribasi darajasi - bunga shaxs egallagan bilim, ko'nikma, malakalar va odatlarining majmuasi kiradi. Bo'larning ichida uzluksiz ta'lim tizimi, o'quvchilarni o'qitish, o'quv faoliyatida bilim, mehnat va amaliy faoliyatida ko'nikma va malakali shakllantirish muxim ahamiyatga ega.

IV. Shaxsning yo'naltirilganlik darajasi - shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, atrof-muxitga munosabati, shuningdek, xulq-atvorining ruxiy asoslarini yo'naltiruvchi va boshqaruvchi sifatlarini mujassamlashtiradi. Bunga shaxsning qiziqishi, nuqtai nazar, ijtimoiy faoyaligi, ichki dunyosi, axloqiy-yetik tamoyillari va dunyoqarash kiradi. Shaxsning yo'naltirilganligi, ehtiyojlari va «men» kontseptsiyasi bilan birgalikda shaxsning o'z-o'zini boshqarish mexanizmining asosini tashkil etadi. Shaxsning axloqiy yetik qarashlari va xususiyatlari u o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan birgalikda estetik va axloqiy xususiyatlarni tashkil etadi. Yuqorida qayd etilgan darajalarni insonlarning ijtimoiy mohiyatini, shaxsning irsiy xususiyatlarini tashkil etuvchi yadro atrofidagi xalqalar shaklida tasavvur etish mumkin. Lekin shaxs strukturasi qator xususiyatlar bo'lib, ular barcha darajalarga radius shaklida singib ketadi. Ular guruxiga ehtiyoj, xarakter, qobiliyat va «men» kontseptsiyasi kirib, shaxs strukturasi tayanchini xosil qiladi. Shunday qilib, shaxs xususiyatlarining guruxlari bir-biri bilan uzviy bog'langan, bir-birini to'ldiradi va taqozo etadi va murakkab yaxlit tizimni tashkil etadi.

Zamonaviy uzluksiz ta'lim tizimi avvalo shaxsning davlat ta'lim standartlari darajasida bilim olishini ta'minlashi lozim.

Bilim - atrof-muxitli urganish jarayonida tekshirilgan nazariy va amaliy faoliyatning natijasi bo'lib, uning inson miyasida to'g'ri aks ettirilishi sanaladi. Ta'lim tizimi bilim, ko'nikma va malakalarning individual tarzda, har bir shaxsda aks etishni ta'minlashi lozim. Bilimlar quyidagi guruxlarga ajratiladi:

- Belgili, belgi va til shaklida, kodlangan verbal bilimlar,
- Obrazli, sezgi organlari orqali obrazlar shaklida qabul qilingan bilimlar.
- Moddiy bilimlar - mehnat faoliyati natijasida paydo bo'ladigan bilimlar.
- Texnik bilimlar- insonning ijodiy va mehnat jarayonida vujudga keladigan bilimlar.

Bilimlar asosini tushunchalar tashkil qiladi. Tushunchalar - atrof-muxitdagi predmet va xodisalarning mavjud xususiyatlari haqidagi bilimlar bilan ulardagi aloqa va bog'liklikni aks ettiradi.

Biologik ta'limda tushunchalar ikki guruxga ajratiladi:

1. Umumiy biologik tushunchalar.
2. Xususiy biologik tushunchalar.

Shaxsning o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotga qo'llashda ko'nikma va malakalar muxim rol o'ynaydi. Ko'nikma va malakalarni til bilan tushuntirib bo'lmaydi, ularni amaliy faoliyatda ko'rsatish kerak bo'ladi. Shu sababli inson hayotining asosini faoliyat usullari (ko'nikma va malakalar) tashkil etib, u shaxsning muxim sifati sanaladi.

Ko'nikma - shaxsning muxim sifati, ya'ni o'zlashtirgan bilimlari asosida, yangi vaziyatlarda muayyan faoliyatni samarali bajarishi xisoblanadi. Oddiy ko'nikmalar etarli darajada mashq qilganda u avtomatik xolatga - malaka darajasiga etadi. Malaka - biror bir faoliyatni avtomatik ravishda bajarilishi sanaladi. Malaka bu avtomatlashgan ko'nikmadir.

Demak, o'quv dasturidan o'rin olgan mavzular bo'yicha o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish samaradorligini oshirish muxim sanaladi.

Aqliy faoliyat usullari deganda fikr yuritish uchun zarur bo'lgan usullar tushuniladi. Ular quyidagi guruxlarga ajratiladi:

1. Xarakteriga ko'ra: predmet-faoliyatli, kurgazmali-obrazli, abstrakt, intuitiv.
2. Mantiqiy yo'nalishiga ko'ra: taq'q'oslash, taxlil qilish, abstrakt tasavvur qilish, umumlashtirish, sintez, tasniflash, induksiya va deduksiya, gipoteza va eksperiment.
3. Olinadigan natija shakliga ko'ra: fanga avvaldan ma'lum bo'lgan kashfiyotlarni qayta kashf qilish, tushunchalarning ta'rifi va tasdigini topish, qonuniyat, qonun va nazariyalar yaratish.
5. Fikr yuritish tipiga ko'ra: empirik, dialektik, mantiqiy.

Ta'lim tizimida aqliy faoliyat usullarining tarkibiga kiruvchi o'quv faoliyati usullari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv faoliyati usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- O'quv faoliyatini rejalashtirish ko'nikma va malakalari: o'quv topshiriqlarini anglash, maqsadni belgilash, unga erishish uchun optimal va samarali yullarini faoliyatning bosqichlari va davomiyligini aniq'lash, faoliyat algoritmini to'zish, mustaqil ish rejasini tuzish.
- O'z o'quv faoliyatini tashkil etish ko'nikma va malakalari: o'z o'quv faoliyatini tashqil etish, o'quv adabiyotlari va jixozlarning mavjudligi va ulardan foydalana olishi, gigienik talablarga javob beradigan sharoit yaratishi, ish rejimini tashkil etish, uy vazifalarini mustaqil bajarishni tashkil etish.

- Axborotni qabul qilish ko`nikma va malakalari: turli axborot manbalari ustida ishlash, matn tuzish, bibliografik izlanish olib borish, spravochniklar bilan ishlash, axborotni diqqat bilan tinglash va yozish, diqqatini boshq`arish, kuzatish o`tkazish va eslab q`olish.
- Fikr yuritish faoliyati ko`nikma va malakalari: o`quv materialining mazmunini anglash, asosiy goyani ajratish, taxlil q`ilish, sintezlash, abstraktsiya va aniqlash, induksiya va deduktsiya, tasniflash, umumlashtirish, dalillash, xikoya, xisobot, ma`ro`za to`zish, xulosalarni ishlab chiq`ish, muammolarning yechimini topish.
- O`z o`quv faoliyati natijasini anglash va baholash ko`nikma va malakalari: o`quv faoliyati natijasini anglash, o`z-o`zini va o`zaro nazorat q`ilish, muammo yechimining to`g`riligini aniqlash, xodisalarga turli jixatdan baho berish, nazariy va amaliy ko`nikmalarning to`g`riligi va mustaxkamlashni tekshirish ko`nikmalari.

Shaxsning o`z-o`zini boshq`arishi va nazorat q`ilish muxim sistema sanaladi. Bu sistema asosida shaxs rivojlanishining psixologik omillari: extiyojlari, yo`naltirilganlik va "Men" kontsepsiyasi tashkil etadi.

An`anaviy ta`limda o`uvchilar faoliyati passiv tinglovchi sifatida tashkil etilib, yappasiga o`qitish nazarda tutilsa, zamonavny pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta`lim-tarbiya jarayonida o`quvchilarning kizi-q`ishi, q`ibilyati, extiyoji, motivi xisobga olingan xolda shaxsning xar tomonlama rivojlanishiga zamin tayyorlanadi. Shu sababli barcha texnologiyalar shaxsga yunaltirilgan bo`ladi.

Shaxs — muayyan ijtimoiy guruhning vakili bo`lgan, biror faoliyat turi bilan shug`ullanadigan, atrof-muhitga ongli munosabatda bo`la oladigan, o`ziga xos individual — psixologik xislatlarga ega bolgan konkret inson.

Shaxsning psixologik xislatlariga quyidagilar taalluqli: xarakter, temperament, qobiliyat, kuchli hissiyotlari va motivlari, shuningdek, psixik jarayonlarning kechish xususiyatlari yig`indisi (majmui).

Har bir kishidagi bu takrorlanmas individual xislatlar to`plami (majmui)undagi barqaror yaxlitlikni vujudga keltiradi. Bu yaxlitlik shaxsning nisbiy turg`un psixologik qiyofasi va boyligi sifatida qaraladi. U psixik holatlar va jarayonlarning to`xtovsiz o`zgarib turishiga qaramasdan saqlanib qoladi. Shuningdek, shaxsning psixik boyligi shaxsning yashash sharoiti va ijtimoiy tarbiya jarayonlarida yuz berayotgan o`zgarishlarning oqibati sifatida ma`lum darajada harakatchanligini hamda o`zgaruvchanligini saqlab qoladi.

Shaxs atrof-muhit, insonlar bilan faol aloqada bo`lish jarayonida shakllanadi. Shaxs faolligining manbai bo`lib inson -shaxsiy ehtiyojlarining ko`p qirraliligi, u o`zi mansub bo`lgan jamiyat, jamoa ehtiyojlari hisoblanadi.

Murakkab hosila ehtiyojlariga qiziqish, moyillik, did, ko`rsatma, e`tiqod, istak kiradiki, ular yig`indisi «motivatsiya doirasi»ni, shaxsning «yo`nalganligi»ni hosil qiladi.

Shaxs voqelikka bo`lgan obyektiv va subyektiv munosabatlarni ifoda qiladi. Shaxs bir butun holdagi ichki shart-sharoitlar yig`indisi bo`lib, uning vositasida tashqi ta`sirlarning inikosi yo`z beradi. Shaxsning rivojlanishi uning faoliyatida amalga oshiriladi. Bu rivojlanish shaxsga xos va uning uchun muhim hisoblangan motivlar tizimi bilan boshqariladi. Shaxsni harakatga keltiruvchi kuch tobora ko`payib boradigan ehtiyojlar va ularni qanoatlantiradigan real imkoniyatlar orasidagi ichki ziddiyatlar hisoblanadi. Ehtiyojlar esa shaxs rivojlanishining omillari va natijasi sifatida namoyon bo`ladi.

A.V.Petrovskiyning tadqiqotlarida ko`rsatilishicha, inson shaxsining xarakterli tomonlaridan biri uning individualligidir. A.V.Petrovskiy shaxs tuzilmasida unga xos bo`lgan xarakter, temperament, psixik jarayonlarning kechish xususiyatlari, faoliyatning kuchli hissiyotlari va motivlari yig`indisi, shakllangan qobiliyatlari zahirasiidagi bilim va ko`nikmalarining betakror uyg`unligi qayd qilinadi. Inson individ sifatida jismoniy va psixik mazmun kasb etadi. Tadqiqotlarning ko`rsatishicha, inson psixikasi emotsiya va ongga bo`linadi.

Ong insonni dunyoni miyasida aks ettirishi bilan uni hayvondan farqlaydi. Onggina shaxsning o`zligini tashkil etadi. G.K.Selevkoning aniqlashicha, shaxs umumlashtirilgan xilma-xil sifatlar tizimida ko`rinadigan insonning psixik, ma`naviy mohiyatidir. Bunday sifatlar tizimiga quyidagilar mansub:

- inson xislatlarining ijtimoiy ahamiyatga molik sifatleri yigtindisi;
- dunyoga bo`lgan va dunyo bilan, o`ziga va o`z-o`zi bilan munosabatlari tizimi;
- ijtimoiy vazifalar, axloqiy ko`rinishlar yigindisini amalga oshiradigan faoliyat tizimi;
- dunyoni va undagi o`zini anglashi;
- ehtiyojlar tizimi;
- qobiliyatlar, ijodiy imkoniyatlar yig`indisi;
- tashqi sharoitga bo`lgan e`tiborlar yigindisi.

Psixologiya va pedagogika bo`yicha tadqiqotlar shaxs rivojlanishini uch omilga - irsiyat, muhit va tarbiyaga bog`laydilar.

Irsiy omil ota-onalardagi ayrim sifat va xususiyatlarning bolalarga o`tishidir. Irsiyatni genlar vujudga keltiradi. Hozirgi fan oiganizm xususiyatlarida, uning to`g`risida axborotlar saqlanadigan va o`zatiladigan o`ziga xos gen kodlari aks etganligini isbotlagan. Genetika inson rivojlanishining irsiy dasturini ochib bergan.

Muhit shaxs rivojlanadigan real voqelikdir. Shaxs rivojlanishiga ta`sir etuvchi tashqi sharoitlarga olimlar geografik, ijtimoiy muhit, maktab va oilani keltiradilar.

K.K.Platonov tadqiqotlari ko'rsatadiki, shaxs tuzilmasidagi biologik va sotsial omillar nisbati shaxs sifatlarining to'rtta pog'onaviy sathini farqlashga imkoniyat beradi:

1. Irsiyat bilan bog'langan sifatlarni birlashtirgan temperament sathi.

Unga shaxsning ehtiyoj va instinkt xususiyatlari hamda jinsiy, yosh, milliy va boshqa sifatlarini kiritadi.

2. Psixik jarayonlar xususiyatlari sathi. Bu sath sezgi, idrok, xayol, diqqat, xotira, tafakkur, hissiyot, irodaning individual xarakterini o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu sathga olimlar tafakkurning mantiqiy aks etishi: assotsiatsiya, qiyoslash, abstraksiyalash, induksiya, deduksiyalarni ham kiritadilar.

3. Shaxs tajribasi sathi. Bu sath bilim, malaka, ko'nikma, odat (qillq) kabi sifatlardan iborat bo'ladi.

5. Shaxsning yo'nalganlik sathi. Bu shaxsning shunday sifatiki, unda insonning atrof-muhitga munosabati aniqlanadi va u uning xulqi asosini tashkil etadi. Bulaiga qiziqish, nuqtai nazar, e'tiqod, ijtimoiy ko'rsatmalar, o'ta muhim yo'nalmalar, axloqiy-etik tamoyillar va dunyoqarash kiradi.

Shaxs sifatlarining bu sathlari uning tarqoqligini bildirmaydi. Shaxsning barcha sifatleri murakkab yaxlit tizimni tashkil etib, o'zaro tig'iz bog'langan, shartlangan hamda ko'pincha ular bir-birining o'rnini bosadi.

Demak, shaxs tashqi va ichki omillar ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Psixolog olimlar tashqi omillarga shaxsning ijtimoiy tabiati, mukammalligi va pog'onaliligini kiritadi.

V.P.Bespalkoning ta'rifiga ko'ra "Pedagogik" tizim ma'lum shaxs sifatlarini shaqillantirishga tartibli, aniq maqsadni ko'zlab va oldindan o'ylab pedagogik ta'sir etishini vujudga keltirish uchun zarur bo'lgan o'zaro bogliq vositalar, usullar va jarayonlar yigindisidir. Har jamiyatda shu jamiyat mafkurasiga xos shaxsni shakllantirish maqsadi va unga mos pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Agar maqsad o'zgarsa tizim ham o'zgaradi. Quyidagi barcha ta'lim tizimlari uchun umumiy bo'lgan pedagogik tizim loyixasi keltirilgan. Professor N.Saydaxmedovning tadqiqot etishicha har qanday pedagogik tizim o'zaro bogliq bo'lgan quyidagi invariantiv elementlardan tashkil topadi:

1- o'quvchilar; 2-ta'lim maqsadlari, 3-ta'lim-tarbiya mazmuni, 4-didaktik jarayonlar, 5- tashkiliy shakllar 6-pedagogik yoki o'qitishning texnik vositalari (UTV). Yuqoridagi 2 ta tushunchani izoxlash mumkin: didaktik masalalar va ularni amalga oshirishning pedagogik tizim doirasida inson faoliyatining muxim soxasi sifatida anik maqsad va unga erishish uchun shart-sharoitlar hamda bu faoliyat uchun axborotlar bo'lishi kerak.

Didaktik masalalarni hal etish maqsadi shaxsning ma'lum sifatlarini shakllantirish zarur bo'lsa, shart-sharoitlar-o'quvchi (talaba) larning boshlangich

sifat ko'rsatkichlari, axborot esa o'quv predmetining mazmuni yoki tarbiyaviy ta'siridir.

Har bir didaktik masala pedagogik tizimda o'ziga mos keladigan PT elementlari bilan hal qilinadi, ular didaktiv jarayon, o'qitishning tashkiliy shakllari hamda pedagog yoki o'qitishning texnik vositalari (UTV). Yuqorida shakl ijtimoiy buyurtma yo'nalishi didaktiv masalalarga qaratilgan va bu bejiz emas, chunki ta'lim har doim jamiyat talablarini qondirishga xizmat qiladi va u ongli ravishda yoki induktiv tarzda tez, balki sekinlik bilan bu talablarga mos xolda to'zilib boradi. XXI asr bo'sagasida ta'lim taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi, xaqqoniy dvigateli-bu o'zida didaktiv masalalar va PTni mujassamlashtirilgan pedagogik tizim xisoblanadi. PTning muvaffaqiyatli loyixalanishi va yakuniy natijaning kafolatlanishi o'qituvchining didaktik masalalar moxiyatini anglab etish darajasiga va darsda ularni to'g'ri belgilab olishga bogliqdir. Bu vazifa hozirga qadar o'qituvchilar tomonidan anglashilmay kelinyapti, qator xollarda esa ular metodikani texnologiyadan farqlay olmayaptilar. Shu boisdan quyida PT ning loyixalanishi uchun zaruriy shartlardan biri didaktik masalalar to'grisida fikr yuritiladi. Chunki har bir o'qituvchi pedagogik faoliyatga kirishishidan oldin xal etilishi lozim bo'lgan pedagogik masalalarni yetarlicha aniq tasavvur etishi va ifodalanishi, ayni paytda o'z o'quvchilariga ham tushuntira olishi kerak.

O'qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi. V.A.Slastenin o'qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi. Akmeologiya (акте) - yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, yetuk, eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi. B.G. Ananov, N.V.Kuzmina, A.A.Derkach va boshqalar kasbiy faoliyatning samarasini oshirish bilan yo'g'rilgan inson hayotining eng ijodiy davrlari, yetuklik bosqichlari to'g'risida fikr yuritadilar. Ular yetuk insonlarning professionalizmi, shaxs rivojlanishining gullagan davridagi psixik qonuniyatlari, professionalizmga yetishdagi balandliklardan o'ta olish masalalari bilan shug'ullanganlar. V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoq ijodiy umr ko'rishiga olib keladigan subyektiv va obyektiv omillarini asoslab berdi. Obyektiv omillarga olingan ta'limning sifatini, subyektiv omillarga esa insonning iste'dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishidagi ma'suliyatini, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi. Yuksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- iste'dod nishonalari;
- uquvlilik;
- qobiliyat;
- iste'dod;

- oila tarbiyasi sharoiti;
- otquv yurti;
- o`z xatti-harakati.

Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosabatida olib qaraladi. Bunda quyidagi kategoriyalar farqlanadi:

- ijodiy individuallik;
- o'titling o'sish va takomillashish jarayoni;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.

O'qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

- intellektual - ijodiy tashabbus;
- bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliyati;
- ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati;
- axborotlarga tashnalik, muammolardagi giayri odatiylikka va yangilikka bo`lgan his-tuyg'u , professionalizm, bilishga bo`lgan chanqoqlik (N. V Vishnekova).

V.A.Slastenin ijodiy individualizmni ro'yobga chiqarishning asosiy vazifalarini quyidagicha belgilaydi:

- ijtimoiy mohiyat kasb etgan madaniyatni boyitish;
- pedagogik jarayon va shaxs bilimlarini yangilab turish;
- samarali va ahamiyatli meyorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topish;
- shaxsning o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini olzi namoyon qila olishi asosida o'z rivojlanishini ta'minlash;

Shu tariqa o'qituvchining ijodiy individualligini shakllantirish shaxs rivojlanishi va yangilanishining dinamik innovatsion jarayoni sifatida tushuniladi.

Ijodiy individuallikni xarakterlaydigan samarali o'z-o'zini anglash quyidagilarni qamrab oladi:

- o'zini boshqalarga qiyos qilish asosida o'z shaxsining betakror ekanligini anglay olishi;
- o'zi to'g'risidagi kreativ ko'rinishlar va tasawurlari to'plami;
- individual kreativ o'ziga xosliklarning bir butunligi va uyg'unligi, ichki birligi;
- shaxsning o'z rivojlanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida shakllanishi;
- shaxs o'zini namoyon qila olishi va o'zining muayyan ishlarni amalga oshirishga hozir turganligi;
- ijodkor sifatida o'zini baxshida qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda o'zining o'rnini anglay olishi (V.A.Slastenin).

Innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv o'qituvchining kasbiy mahorati cho'qqilariga erishuvida uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

Ta'lim beruvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir. Kreativlik termini angliya-amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi. Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrning ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo'lay olishi;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya.)

M.N.Gnatko kreativlikni kishining ijodiy imkoniyati, sotsial — ijodiy faollikni namoyon qila olish qobiliyati bilan shartlangan kishi individlarining qandaydir maxsus xislati deb qaraydi. Ijod tushunchasini belgilashda u jarayon — natija tavsifidan, kreativlikni belgilashda esa subyekt — shartlilik tavsifidan foydalanadi.

Ijod mezonlari, uning psixologik mexanizmlari, ijodiy tafakkuming rivojlanish texnikasi V.A.Kan-Kalik, Ya.A.Ponomarev, S.Yu.Stepanov, T.V.Frolov va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan. D.B.Bogoyavlenskaya ishlarida ijod tahlili birliklari belgilab berilgan. Bunday birlik sifatida muallif intellektual faollikni ko'rsatadi hamda uning uchta bosqichini ajratadi:

- ragbatlantirishning samarali yoki sustkashlik bosqichi. Shaxsning bu bosqichiga, unga tashqaridan berilgan vazifalarni tashabbusiz qabul qilish xarakterlidir;
- intellektual faollikning evristik bosqichi. Bu bosqichda o'z faoliyati tarkibi va tuzilmasini tahlil qilish davom etadi, yangilik ochish, oqilona hal qilishga imkoniyat beradigan ayrim vazifalar qiyoslanadi;
- intellektual faollikning kreativ bosqichi. Bu bosqichda qo'lga kiritilgan empirik qonunlar kelgusi tadqiqotlar uchun maqsad bo'lib qoladi.

Rag'batlantiruvchi, samarali va evristik bosqichga qoloq (ekstensiv) aqliy faoliyat, kreativ bosqichga intellektual faoliyat xosdir.

- N.M.Gnatko kreativlik mexanizmlarini quyidagi bo'limlarga bo'lib o'rganishni taklif etadi:

- potensial kreativlik;
- faoliyatdagi kreativlik.

Potensial kreativlik N.M. Gnatkoning fikricha, muayyan tashqi sharoitlarda faol kreativlikka aylanishga nazariy tayyor shaklda namoyon bo'ladigan

individuumning potensial joylashishini anglatuvchi kreativ faoliyatdir. Potensial kreativlik ijodning zaruriy subyektiv shartidir.

Faoliyatdagi kreativlik - faoliyatning biror turida ijodiy faollik ko'rsatuvchining bevosita tayyorgarligini ta'minlaydigan faoliyatning u yoki bu turi tavsifli potensial kreativ individuumning individual tavsiflari aloqalarini yuzaga keltiradi. Faol kreativlik ijodning eng muhim subyektiv shartidir (N.M.Gnatko).

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, potensial kreativlik, amalga oshirish mumkin bo'lgan kreativlikdir. Uni faoliyatdagi kreativlikka o'tkazish muayyan faoliyat turini tashuvchi (subyekt) tomonidan uning o'zlashtirilishida tub o'zgartirishlar qilish orqali amalga oshadi.

V.A. Slastenin, N.M.Gnatkoning potensial kreativlikni muntazam faoliyatdagi kreativlikka taqlid qilish asosida o'zgartirib borish haqidagi qarashlariga qo'shilgan holda uni to'ldirib, kreativlik taqlid qilish, nusxa olish yo'li bilan rivojlanadi hamda taqlid qilish asosidagi ijod, haqiqiy ijodga olib keladi, deb hisoblaydilar.

Ta'lim beruvchifaoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlarini belgilash mumkin:

Birinchi bosqichda tayyor metodik tavsiyanomalar tuzukkina ko'chiriladi; ikkinchi bosqichda mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikatsiyalar), metodik usullar kiritiladi;

uchinchi bosqichda g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to'la ishlab chiqiladi;

to'rtinchi bosqichda esa o'qitish va tarbiyalashning o'z betakror konsepsiyasi va metodikasi yaratiladi.

O'qituvchining innovatsiya faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponent bu refleksiya.

Refleksiya o'qituvchining o'z ongi va faoliyatini belgilash va tahlil qilish deb qaraladi (o'z fikri va harakatlariga tashqaridan nazar. V.A.Slastenin).

Pedagogikaga oid adabiyotlarda reflektiv jarayonlarni izohlashning ikki an'anasi mavjudligi aytiladi:

- obyektlar mohiyatini izohlashga va ularni konstruksiyalashga olib keladigan ongning reflektiv tahlili;

- shaxslararo muloqot ta'nosini tushunish refleksiyasi;

Bu bilan bog'liq ravishda pedagog olimlar quyidagi reflektiv jarayonlarni farqlaydilar:

- o'z-o'zini va boshqalarni tushunish;
- o'z-o'ziga va boshqalarga baho berish;
- o'z-o'zini va boshqalarni izohli tahlil qilish.

Refleksiya (lotincha Reflido- ortga qaytish) subyektning o‘z (ichki) psixik tuyg‘u va holatlarini bilish jarayoni sifatida qaraladi.

Falsafa va pedagogikaga oid adabiyotlarda refleksiya shaxsning o‘z ongidagi o‘zgarishlarni fikrlash jarayoni, deb yoziladi. Psixologik lug‘atda shunday izoh beriladi: «Refleksiya - faqat sub'ektning o‘z-o‘zini bilishi va tushunishi emas, balki boshqalar uning shaxsiy xislatlari, his qilish tuyg‘usi va bilish (kognitiv) tasavvurlarini bilish hamda tushunishini aniqlab olishini ham anglatadi”.

V.A.Lefevr ta’kidlagan ediki, inson o‘zining xatti-harakatlariga, fikrlariga nisbatan kuzatuvchi, tadqiq qiluvchi bo‘lib qolmasligi, balki boshqa personajlar, ularning xatti-harakatlarini o‘rganuvchi mavqei egallashi ham kerak.M.V.Klarin ijodiy tafakkur xususiyatlarini refleksiya bilan bog‘laydi. Bunday o‘zaro aloqalarda refleksiya o‘zida xulosa chiqarish, umumlashtirish, analogiya, qiyoslash va baholash hamda muammolarni eslash, yengib olish va hal qilishlarni birlashtiradi.

V. A. Petrovskiy refleksiya faoliyati tahlilida uning ikki turini farqlaydi:

- retrospektiv;
- prospektiv.

VA.Petrovskiyning aniqlashicha, retrospektiv refleksiya bu «sodir etilgan faoliyat tarixining retrospektiv tiklanish shaklidagi refleksiyasidir».

Prospektiv refleksiya - bu faoliyatning amalga oshishiga bo‘lgan talabning hukm surish dinamikasi.

S.Yu. Stepanov, I.N. Semenov ishlarida intellektual va shaxsiy refleksiyalar farqlanadi. V.V.Davidov o‘z tadqiqotlarida formal va mazmun refleksiyasini asoslab berdi. I.S.Ladenko analitik va sintetik refleksiyani farqlaydi. Demak, o‘qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi motivasion, kreativ, texnologik va reflektiv komponentlardan iboratdir.

Innovatsion faoliyat tuzilmasi haqidagi muhim tizimli tasavvurlar, ularning vazifalarini asoslash, ularning shakllanganlik me’yorlari va sathlari ularni oliy maktab amaliyotiga tatbiq etishning zarur omili hisoblanadi.

Pedagogik jarayon tizim sifatida, pedagogik texnologiyaning asosiy belgilari va tasnifi

«Pedagogik texnologiya» tushunchasining qo‘llanilishi, shuningdek, asosiy e’tiborni faqat ta’lim jarayonini samarali tashkil etishgagina qaratmay, balki ham ta’lim, ham tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minlashga birdek qaratish lozimdir.

«Ta’lim texnologiyasi» tushunchasi «ta’lim metodikasi» tushunchasiga nisbatan kengdir. Ta’lim metodi — o‘quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo‘naltirilgan o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli bo‘lsa, ta’lim metodikasi esa muayyan o‘quv predmetini o‘qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimini ifodalaydi.

Ta'lim texnologiyasi — ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyixalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma — bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yo'qori darajada boshqarishni ifodalaydi.

O'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasidan farqli o'laroq, ta'lim texnologiyasi o'quvchilar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u o'quvchilarning shaxsiy xamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan xolda, o'quv materiallarini mustakil u'zlashti rishlari uchun zarur shart — sharoitlarni yaratishga xizmat kiladi. Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi — o'quvchi shaxsini rivojlantirish orkali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. Pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik tizimni pedagogik texnologiyaning asosi ekanligini e'tirof etgan xolda uning quyidagi unsurlaridan iboratdir deya ta'kidlaydi:

- 1) o'quvchi;
- 2) ta'lim — tarbiyaning maqsadi;
- 3) ta'lim — tarbiya mazmuni;
- 4) o'quv jarayoni;
- 5) o'qituvchi yoki texnik vositalar;
- 6) ta'lim — tarbiyaning tashkiliy shakllari

Xalq xo'jaligining moddiy ishlab chikarishga asoslangan soxalarida qo'llanilayotgan texnologiyalar moxiyatini urganish xamda muammo doi rasida nashr etilgan risolalar mazmuni bilan tanishish «pedagogik texnologiya» ta'lim — tarbiya faoliyatining yaxlit jarayoni tugrisidagi fan ekanligini e'tirof etish imkonini berdi.

Pedagogik texnologiyaning quyidagi tarkibiy unsurlari uning asosini belgilashga xizmat qiladi :

- ta'lim jarayonining umumiy loyixasi
- ta'limni tashkil etishga bo'lgan ijtimoiy extiyoj
- o'qituvchi faoliyati
- ta'lim mazmuni, shakl, metod, usul va texnik vositalari
- o'quvchi faoliyati
- ta'lim maqsadi
- ta'lim natijasi
- Auditoriya

Pedagogik texnologiyalar mazmuni, moxiyatiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

1. Shaxs strukturasi muljallanganligiga ko'ra:

- bilim, ko'nikma va malakalarii shakllantirishga mo'ljallangan axborot texnologiyalari;

- aqliy faoliyat usullarini shakllantirishga qaratilgan aqliy faoliyat texnologiyalari;

II. Mazmuni va tuzilishiga ko`ra:

- ta'lim-tarbiya beruvchi texnologiyalar;
- dunyoviy va diniy ta'limga muljallangan texnologiyalar;
- umumta'lim va kasb ta'limi texnologiyalari;
- insonparvarlik va texnokrat texnologiyalari;
- xususiy predmet texnologiyalari;
- monotexnologiya va kompleks (majmua) texnologiyalari.

III. Ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshkarilishiga ko`ra

V. P. Bespalko quyidagi texnologiya turlarini tavsiya etadi:

- klassik ma'ruza ta'limi;
- UTV yordamida ta'lim berish;
- «Maslaxatchi-konsultant» tizimi;
- mustaqil ish;
- «Kichik guruxdar» tizimi-guruxli differentsial o`qitish usuli;
- kompyuter ta'limi;
- «Repetitor» tizimi - individual ta'lim;
- dasturli ta'lim.

IV. Ta'lim-tarbiya jarayonida o`quvchi shaxsining tutgan o`rni muxim ahamiyat kasb etadi, shunga ko`ra pedagogik texnologiyalar quyidagi guruxlarga ajratiladi:

- a) Avtoritar texnologiyalar
- b) Didaktotsentrik texnologiyalar
- v) Shaxsni rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar
- g) Insonparvarlik va xamkorlik texnologiyalari
- d) Erkin tarbiya texnologiyalari

V. Hozirgi zamon ta'lim tizimida xukmronlik qilayotgan an'anaviy ta'limni mazmunan yangilash va ta'lim jarayonini tashkil etishni tubdan o`zgartirishga qaratilgan texnologiyalarni quyidagi guruxlarga ajratish mumkin:

1. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalash asosidagi-pedagogik texnologiya;
2. O`quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya;
3. Ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishning samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya;
5. O`quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlash asosidagi pedagogik texnologiya;
5. Xalq, pedagogikasi metodlaridan foydalanish pedagogik texnologiyasi;
6. Alternativ pedagogik texnologiya;

7. Majmuali (kompleks) politexnologiya;

Yangi o'zbek davlatchiligining tamal toshi qo'yilyapti: ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, mafkuraviy sohalarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim-tarbiya sohasining isloh qilinishi pedagogika fanini fivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratib berdi. Endilikda kishilik jamiyati tomonidan uzoq yillar davomida yaratilgan tarbiya tajribalarini o'rganish vat adqiq qilish ishlari keng yo'lga qo'yildi.

Sho'rolar tuzumi davrida barcha ijtimoiy fanlar kabi pedagogika ham kommunistik mafkura qobig'i bilan o'ralgan, uning rivojlanish me'yori cheklangan, ilg'or chet mamlakat g'oyalari esa burjua g'oyalari, deb tanqid qilinir va rad etilar edi. Holbuki har qanday g'oya ham o'zida ma'lum ijobiy jihatlarni mujassamlashtirishi mumkin, ularni amaliyotga joriy etish foydadan xoli emas edi. Jumladan, pedagogik texnologiya (PT) ham burjua didaktikasiga tegishli yo'nalish sifatida qarab kelindi va bu muammoni tadqiqot ob'ektiga aylantirishning iloji yo'q edi.

Bugun malakatimiz istiqloli sharofati tufayli barcha fan sohalarini rivojlangan davlatlarda to'plangan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganish va hayotimizga tatbiq etish davri keldi. Milliy dasturda ta'kidlanganidek, yaqin kelajakda «kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustivor yo'nalishlari ro'yobga chiqariladi, xalqaro ta'lim tizimlari rivojlantiriladi» .

Bu faslda biz pedagogik texnologiya nazariyasining vjudga kelishi va rivojlanishi tarixiga nazar tashlaymiz.

30-yillarda «pedagogik texnika» tushunchasi maxsus adabiyotlarda paydo bo'ldi va u o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga yo'naltirilgan usul va vositalar yig'indisi sifatida qaraldi. SHuningdek, bu davrda PT deb o'quv va laboratoriya jihozlari bilan muomala qilishni uddalash, ko'rgazmali qurollardan foydalanish tushunildi.

40-50-yillarda o'quv jarayoniga o'qitishning texnik vositalarini joriy etish davri boshlandi. Ayniqsa kino, radio, nazorat vositalari, ulardan foydalanish metodikasi PTga tenglashtirildi.

60-yillarning o'rtalarida bu tushuncha mazmuni chet el pedagogik nashrlarda keng muhokamaga tortildi. 1961 yildan boshlab AQSHda «Pedagogik texnologiya» (Educational Technol-ogy), 1964 yildan Angliyada «Pedagogik texnologiya va dasturli ta'lim» (Technology and programmed Learning). Yaponiyada esa 1965 yildan «Pedagogik texnologiya» (Educational Technology) jurnallari chop etila boshlandi. 1971 yilda xudi shu nomli jurnal Italiyada chiqarila boshlandi.

PT muammosining o'ta dolzarbligi hisobga olinib, uning ilmiy asoslarini tadqiq qilish maqsadida maxsus korxonalar tuzildi. Misol uchun, 1967 yilda Angliyada

pedagogik texnologiya Milliy Kengashi (National council for Educational Technology) tashkil etildi va 1970 yildan boshlab «Pedagogik texnologiya jurnali» (Journal of Educational Technology) chiqa boshladi. AQSHning qator universitetlari va ilmiy markazlarida ham PT muammolariga jiddiy e'tibor berildi. 1971 yilda maxsus «Kommunikasiya va texnologiya Assosiasiya»si (Association for Educational Communications and Technology) faoliyat ko'rsata boshladi. Hozirgi kunda bu tashkilotning barcha shtatlarda va Kanadada 50 dan ziyod filiallari ishlab turibdi.

Yaponiyada PT muammolari bilan to'rtta ilmiy jamiyat shug'ullanmoqda, faol harakatdagi pedagogik texnologiya Markaziy Kengashining 22 ta davlat universitetlarida markazlari mavjud. Har uch oyda yapon tilida chiqadigan «Pedagogik texnologiya sohasidagi tadqiqotlar» (Educational Technology Research) jurnallarida yirik olimlarning ilmiy ishlari o'z o'rnini topmoqda. Yaqinda Umumiyapon pedagogik texnologiya Markaziy Kengashi (The Japanese Council of Technology Centers) tuzilib, bu sohada xalqaro aloqalar o'rnatish ishlari bilan mahur.

Didaktikaning bu yo'nalishiga e'tibor nihoyatda oshib borishini 70-yillarda o'tkazilgan qator xalqaro konferensiyalar tasdiqlaydi. SHunday xalqaro konferensiyalar 1966 yildan boshlab har yili bahorda Angliyada o'tkazilib kelinadi va anjuman materiallari «Pedagogik texnologiya jihatlari» (Aspects of Educational Technology) nomida nashr qilinadi.

Yuqoridagilarning o'ziyoq PT pedagogika nazariyasi va amaliyoti sohasidagi alohida hodisa sifatida diqqat markazda turganligini, 60-yillardan boshlab chet ellarda yangi yo'nalish sifatida shakllanganligini ta'kidlab turibdi. Taxlillarning ko'rsatishicha, bu davrda PT ikki yo'nalishda muhokama qilinadi va rivojlantiriladi: birinchisi – o'quv jarayoniga texnik vositalarini qo'llash bilan bog'liq bo'lsa (shu jumladan dasturli ta'limning texnik vositalari), ikkinchisi – o'qitish texnologiyasi masalalarini, ya'ni o'quv materiallarni tahlil qilishdan tortib ta'lim jarayonini turlicha nashrli va texnik vositalardan jamuljam foydalangan holda tizimli tashkil etishga qadar bo'lgan keng doiradagi muammolarni qamrab oladi.

Pedagogik texnologiya turlari

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'mini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O'yin ijtimoiy tajribalami o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. L.S.Vigodskiy o'yinni bolaning ichki

ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi. A.N.Leontev o'yinga shaxsning xayolotdagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.

Psixologlar ta'kidlaydilarki, o'yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi.

O'yinli faoliyat muayyan funksiyalami bajarishga bag'ishlangan bo'ladi.

Ular quyidagilar:

- maftunkorlik ;
- kommunikativlik ;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- davolovchilik ;
- tashxis;
- millatlararo muloqot;
- ijtimoiylashuv .

Tadqiqotchilar o'yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar. o'yinlarning muhim qirralari S.V.Shmakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija (tadbir) tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishlariga ko'ra, faoliyat jarayonining o'zidan bahra olish uchun qo'llanadi.

O'yin ijodiyliigi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakteiga -«ijod maydoni»ga ega bo'ladi. O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi. O'yinning o'yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko'zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo'lishini ko'rsatadilar.

Tadqiqotchilar nazariy aspektda o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar.

O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalami tahlii qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subyekt sifatida o'z imkoniyatlarini tola amalga oshiradi.

O'yinli faoliyatni motivatsiyalash o'yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

O'yindan tushunchalar, mavzu va hatto o'quv predmeti bo'limini o'zlashtirishda o'qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi.

O'yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi.

O'yinlar turli maqsadlaiga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarida qo'llaniladi.

O'yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'lash, umumta'l'im malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi.

O'yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani taibiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog'ishtirish, o'xshashini topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o'quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.

Ijtimoiylashuv o'yinlari jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko'nikish, ehtiroslami nazorat qilish, o'z- o'zini boshqarish, muloqotga o'rgatish hamda psixoterapiyani nazarda tutadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o'yin degan tushuncha mavjud. Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o'yinlar «o'yinli pedagogik texnologiyalarni tashkil etadi. Pedagogik o'yinda ta'limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo'yiladi. Pedagogik o'yinlar asosida talabalarni o'quv faoliyatiga yo'llovchi o'yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi. Pedagogik o'yinlar faoliyat turlari, pedagogik jarayon xarakteri, o'yin metodikasi, soha xususiyati, o'yin muhiti bo'yicha tasnif qilinadi.

O'qitishni jadallashtirish texnologiyasini Viktor Fedorovich Shatalov ishlab chiqdi va hayotga joriy qildi. U o'qitishning an'anaviy sinf-dars usulining hali ochilmagan katta imkoniyatlarini ko'rsatib berdi.

V.F. Shatalovning maqsad-mo'ljali:

- bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;
- har qanday individual xususiyatlarga ega bo'lgan barcha bolalarni o'qitish;
- o'qitishni tezlashtirish.

Tamoyillar:

- ko'p marta takrorlash, majburiy bosqichma-bosqich nazorat, qiyinchilikning yuqori darajasi, katta bloklarda o'rganish, faoliyatning dinamik qolipi, xatti-harakatning tayanchi, va uning mo'ljaldagi asosini qo'llash;
- shaxsni ko'zda tutish asosida yondashuv;
- insonparvarlik;
- zo'rlab o'qitmaslik;

- o'quv vaziyatlarining konfliktsizligi, har bir ta'lim oluvchining muvaffaqiyatlaridan boxabarlik, tuzatish (yo'lga solish), o'sish va yutuqlarga istiqbolni ochish;

- o'qitish va tarbiyani bo'g'lash.

V.F. Shatalov metodining o'ziga xosligi:

- materiallar katta hajmda kiritiladi;
- materiallar bbklar bo'yicha joylashtiriladi;
- o'quv materiali tayanch sxema-konspekt ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

V.F.Shatalov tayanch (tayanish) deganda bola harakatlarining taxminiy asosini, ichki fikrlash faoliyatining tashqi tashkil qilinish usulini tushunadi. Tayanch signal o'zaro uzviy bog'lovchi ramzlar (ishora, so'z, sxema, rasm va h.o) bo'lib, qandaydir ma'noli mohiyatni almashtiradi. Tayanch konspekt - o'quv materiallari o'zaro bog'langan usullarining butun qismlari sifatida faktlar, tushunchalar, g'oyalar tizimi o'mida qo'llana oladigan ko'rgazmali konstruksiyalardan iborat qisqacha shartli konspekt ko'rinishidagi tayanch signallar sistemasidir. V.F.Shatalovning xizmatlari shundaki, u mashg'ulotlarda yetarli darajada va barchaning faolligini ta'minlovchi o'quv faoliyati tizimini ishlab chiqdi. V.F.Shatalov metodikasi 4 bosqichdan iborat bo'lib, ular bir qancha usul va metodik yechimlarni o'z ichiga oladi:

I. Nazariyani sinfda o'rganish:

- taxtada oddiy tushuntirish (bo'r, ko'rgazmali qurol, O'TV bilan);
- bo'yalgan plakat — tayanch konspekt bo'yicha qayta tushuntirish;
- plakat bo'yicha qisqacha bayon qilish;
- ta'lim oluvchilarning o'z konspektlari ustida individual ishlashlari, konspekt

bloklari bo'yicha keng mustahkamlash.

II. Uydagi mustaqil ishlar:

- tayanch konspekt+darslik+ota-onalar yordami.

III. Ta'lim oluvchilarga uqtirish:

- konspektidan foydalangan holda o'qituvchining tushuntirganlarini esla, berilgan materialni kitobdan o'qi;

- o'qiganlarningni konspekt bilan qiyosla; konspekt yordamida darslik materiallarini so'zlab ber (kodlashtirish-dekodlashtirish);

- konspektni so'zlab berish uchun tayanch sifatida yodda saqla;

- konspektni qayta ishlab chiqish va namunaga qiyosla.

Birinchi takrorlash - konspektni o'zlashtirishni har tomonlama keng nazorat qilish:

- barcha ta'lim oluvchilar konspektni xotirasida qayta ishlab chiqadilar, ta'lim beruvchilarni peshma-pesh tekshirib boradi;

- bir vaqtning o'zida «asta» va magnitafon orqali so'rab boradi;

- yozma ishdan soʻng ogʻzaki soʻrash boshlanadi.

IV. Tayanch konspektni ogʻzaki soʻzlab olish - oʻzlashtirishdagi tashqi nutq (ogʻzaki) faoliyatining eng muhim bosqichi, u turli savol- javoblar jarayonida yuz beradi.

Ikkinchi takrorlash-umumlashtirish va bir tizimga keltirish (tartibga tushirish):

- oʻzaro nazorat darslari;
- oldindan sinov savollari roʻyxatini nashr qilish;
- tayyorlash;
- barcha turdagi nazoratlardan foydalanish (taxtada, astagina, yozma va b.);
- oʻzaro soʻrash va oʻzaro yordam;
- oʻyinli unsurlar (jamoalar bellashuvi, rebusni topishi va b.).

Nazorat, baholash. V.F. Shatilov taʼlim oluvchilarning bilim, malaka va koʻnikmalarini bosqichma-bosqich nazorat qilishning bosh muammosini hal qildi. Doimiy tashqi nazoratni oʻzini-oʻzi nazorat qilish va oʻz-oʻzini baholash bilan bogʻlash, har birini bosqichma-bosqich nazorat qilish, kuchi yetadigan darajada talab qilish, doimo tuzatishning imkoniyati mavjudligi, natijalar oshkorligi, ikki bahoning yoʻqligi va past bahodan qoʻrqishning yoʻqligi.

Nazorat shakllari: tayanch konspekt boʻyicha yozma ish, mustaqil ishlar, baland ovozda soʻrash, magnitafonda, juftlikda oʻzaro nazorat, guruhdagi oʻzaro nazorat va uy nazorati, oʻz-oʻzini baholash.

V.F.Shatalov tomonidan ishlab chiqilgan oʻquv faoliyati tizimi maktab taʼlim oluvchilarida eksperiment qilingan, lekin uning metodikasi matematika oʻqitish doirasidan chiqib, nafaqat tabiiy fanlar, balki gumanitar fanlar: til, tarix kabi faulami oʻqitishda ham keng tarqaldi.

Muammoli oʻqitish bu takomillashgan oʻqitish texnologiyasidir. Hozirgi oliy maktabdagi samarador oʻqitish texnologiyasi — bumuammoli oʻqitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli oʻqitish ijodiy, faol shaxs taibiyasi maqsadlariga mos keladi. Muammoli oʻqitish jarayonida talabaning mustaqilligi oʻqitishning reproduktiv shakllariga nisbatan tobora oʻsib boradi.

Hoziigi pedagogikaga oid adabiyotlarda muammoli oʻqitishning turli taʼrif va tavsiflari bor. Bizningcha, nisbatan toʻliq va aniq taʼrif M.I.Maxmutova tomonidan berilgan boʻlib, unda muammoli oʻqitish mantiqiy fikrlar tadbirlari (tahlil, umumlashtirish) hisobga olingan oʻigatish va dars berish usullarini qoʻllash qoidalari va talabalarning tadqiqot faoliyatlari qonuniyatlarining (muammoli vaziyat, bilishga boʻlgan qiziqish, talab v.x.k) tizimi sifatida izohlanadi.

Muammoli oʻqitishning mohiyatini, Taʼlim beruvchitomonidan talabalarning oʻquv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va oʻquv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni oʻzlashtirish boʻyicha

ulaming bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy - tadqiqot usulini yuzaga keltiradi. Ma'lumki, o'qitishning har qanday asosida, inson faoliyatining muayyan qonuniyatlari, shaxs rivoji va ular negizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qoidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishdagi obyektiv qonuniyatlari hamda didaktik tamoyil-muammolilikka tayanadi.

Muammoning tarkibiy qismlari, ma'lum va noma'lumning o'zaro munosabati xarakteri bilimga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi va faol bilishga bo'lgan izlanishga undaydi. Ta'kidlash joizki, muammoli o'qitishning zaruriy sharti talabalarda haqiqatni va uning natijasini izlash jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabatni vujudga keltirish hisoblanadi.

Muammoli o'qitishni tashkil etishning birinchi sharti o'quv axborotlarining takomillashib borishi tizimidir. Muammoli o'qitishning ikkinchi shartida muammoli o'qitish amalga oshiriladi va unda axborotning o'quv vazifasiga o'tkazilishi vaqtida uni yechish usulini tanlash imkoniyati ko'zda tutiladi. Muammoli o'qitishning uchinchi sharti ta'lim oluvchining subyektiv mavqei, ulaming bilish maqsadlarini anglab yetishi va qaror qabul qilishi, masalani hal qilish va natijani qo'lga kiritish uchun o'zlarining ihtiyorida bo'lgan vositalarni baholay bilishidir. Muammoli o'qitishga asoslangan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi unda qo'llanadigan metodlarni asoslab berishni talab qiladi. Bunda ijodiy, qisman-ijodiy yoki evristik, axborotlarni muammoli bayon qilish, axborotni muammoli boshlash orqali bayon qilish asosiy metodlar hisoblanadi.

Tayanch tushunchalar tahlili

Tushuncha	Tushuncha mazmuni
Bilim	atrof-muxitli urganish jarayonida tekshirilgan nazariy va amaliy faoliyatning natijasi bo'lib, uning inson miyasida to'g'ri aks ettirilishi sanaladi
Shaxs	muayyan ijtimoiy guruhning vakili bo'lgan, biror faoliyat turi bilan shug'ullanadigan, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'la oladigan, o'ziga xos individual — psixologik xislatiarga ega bo'lgan konkret inson.
Moddiy bilimlar	mehnat faoliyati natijasida paydo bo'ladigan bilimlar.
Texnik bilimlar	insonning ijodiy va mehnat jarayonida vujudga keladigan bilimlar

Tushuncha	atrof-muxitdagi predmet va xodisalarning mavjud xususiyatlari haqidagi bilimlar bilan ulardagi aloqa va bo`gliklikni aks ettiradi.
Aq`liyl faoliyat usullari	fikr yuritish uchun zarur bo`lgan usullar
Shaxsning yo`naltirilganlik darajasi	shaxsning ijtimoiy axamiyatga ega bo`lgan, atrof-muxitga munosabati, shuningdek, xulq-atvorining ruxiy asoslarini yo`naltiruvchi va boshqaruvchi sifatlarini mujassamlanganligi
Shaxs tajribasi darajasi	shaxs egallagan bilim, ko`nikma, malakalar va odatlarining majmuasi
Ong	insonni dunyoni miyasida aks ettirishi bilan uni hayvondan farqlaydi. Onggina shaxsning o`zligini tashkil etadi.
Refleksiya	faqat sub'ektning o`z-o`zini bilishi va tushunishi emas, balki boshqalar uning shaxsiy xislatlari, his qilish tuyg`usi va bilish (kognitiv) tasavvurlarini bilish hamda tushunishini aniqlab olishini ham anglatadi.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. O`Tolipov, D.Ro`ziyeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.- T.:Innovatsiyo-ziyo, 2019.

2. Interfaol metodlar: mohiyati va qo`llanilishi / Metodik qo`llanma. Tuzuvchilar: D.Ro`zieva, M.Usmonboeva, Z.Holiqova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. – 136 bet.

3. Golish L.V. Texnologii obucheniya na lektsiyax i seminarax/ Uchebnoe posobie/ Pod obsh red. Akad. S.S. Gulyamova. - T.: TGEU, 2005.

4. O`. Tolipov, M. Usmonboeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005

Nazorat uchun savollar:

1. Shaxsda biologik va ijtimoiy sifatlarning nisbatiga ko`ra nechta darajaga bo`linadi?
2. Shaxs - insonning ruxiy, ma`naviy mohiyati bo`lib, unda qanday sifatlarni umumlashgan tizim xolatida bo`ladi?
3. Temperament darajasi deganda nima tushiniladi?
4. Ruxiy jarayonlarning o`ziga xoslik darajasi deganda nima tushiniladi?
5. Shaxsning mantiqiy fikr yuritish operatsiyalari qaysilar?

6. Shaxs tajribasi darajasi deganda nima tushiniladi?
7. Shaxsning yo`naltirilganlik darajasi deganda nima tushiniladi?
8. Bilimlar asosini nimalar tashkil qiladi?
9. Tushunchalar – nima ?
10. O`quv jarayoniga o`qitishning texnik vositalarini joriy etish davri nechanchi yillarga to`g`ri keladi?

Test topshiriqlari

::2.1-savol::

Shaxs qanday inson?

{
 = muayyan ijtimoiy guruhning vakili bo`lgan, biror faoliyat turi bilan shug`ullanadigan, atrof-muhitga ongli munosabatda bo`la oladigan, o`ziga xos individual-psixologik xislatiarga ega bo`lgan konkret # a`lo javob
 ~ muayyan ijtimoiy guruhning vakili bo`lgan, biror faoliyat turi bilan shug`ullanadigan, atrof-muhitga ongli munosabatda bo`la oladigan, o`ziga xos individual-psixologik xislatiarga ega bo`lmagan konkret #yana urinib ko`ring
 ~muayyan ijtimoiy guruhning vakili bo`lgan, biror faoliyat turi bilan shug`ullanmaydigan, atrof-muhitga ongli munosabatda bo`la oladigan, o`ziga xos individual-psixologik xislatiarga ega bo`lgan konkret #yana urinib ko`ring
 ~muayyan ijtimoiy guruhning vakili bo`lmagan, biror faoliyat turi bilan shug`ullanadigan, atrof-muhitga ongli munosabatda bo`la oladigan, o`ziga xos individual-psixologik xislatiarga ega bo`lgan konkret #yana urinib ko`ring
 }

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 39-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::2.2-savol::

Shaxs qanday shakillanadi?

{
 = atrof-muhit, insonlar bilan faol aloqada bo`lish jarayonida# a`lo javob
 ~ atrof-muhit, insonlar bilan faol aloqada bo`lmagan jarayonida#yana urinib ko`ring
 ~ atrof-muhit, hayvonlar bilan faol aloqada bo`lish jarayonida#yana urinib ko`ring
 ~ atrof-muhit, tabiatdagi o`simlik va hayvonlar bilan faol aloqada bo`lish jarayonida#yana urinib ko`ring
 }

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 40-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::2.3-savol::

Murakkab hosila ehtiyojlariga qiziqish, moyillik, did, ko`rsatma, e'tiqod, istak kiradiki, ular qanday yig'indini hosil qiladi?

{
=«motivatsiya doirasi»ni, shaxsning «yo'nalganligi»ni hosil qiladi # a`lo javob
~ «motivatsiya doirasi»ni shaxsning «yo'nalmaganligi»ni hosil qiladi#yana urinib ko`ring
~ «motivatsiya doirasi»ni shaxsning «yo`qligi»ni hosil qiladi #yana urinib ko`ring
~ «motivatsiya doirasi»ni shaxsning «yo`lg`izligini»ni hosil qiladi #yana urinib ko`ring
}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotning 40-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::2.4-savol::

Shaxsning rivojlanishi qayerda amalga oshiriladi

{
= uning faoliyatida # a`lo javob
~ uning munosabatida #yana urinib ko`ring
~ uning mehnatida #yana urinib ko`ring
~ uning o`yinida #yana urinib ko`ring
}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 40-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::2.5-savol::

Rivojlanish bu.....

{
= rivojlanish shaxsga xos va uning uchun muhim hisoblangan motivlar tizimi bilan boshqariladi# a`lo javob
~ rivojlanish shaxsga xos va uning uchun muhim hisoblanmagan motivlar tizimi bilan boshqariladi #yana urinib ko`ring
~ rivojlanishga xos va uning uchun muhim hisoblangan ta`lim tizimi bilan boshqariladi #yana urinib ko`ring
~ shaxsga xos va uning uchun muhim hisoblangan rivojlanish tizimi bilan boshqariladi #yana urinib ko`ring
}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 40-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::2.6-savol::

Ehtiyojlar qanday namoyon bo'ladi?

{

= shaxs rivojlanishining omillari va natijasi sifatida namoyon bo'ladi # a`lo javob
~ shaxs rivojlanishi va mehnat omillari natijasi sifatida namoyon bo'ladi #yana urinib ko`ring
~ shaxs rivojlanishining omillari va mehnat natijasi sifatida ehtiyojlar namoyon bo'ladi #yana urinib ko`ring
~ shaxs rivojlanmasligi natijasida namoyon bo'ladi #yana urinib ko`ring
}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2 -adabiyotni 40-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::2.7-savol::

“Inson shaxsining xarakterli tomonlaridan biri uning individualligidir” degan xulosa qaysi olim tadqiqotlarida ko`rsatilgan?

{
= A.V.Petrovskiy# a`lo javob
~ B.A.Petrovskiy #yana urinib ko`ring
~ G.K.Selevko#yana urinib ko`ring
~A.V.Selekov#yana urinib ko`ring
}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 40-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::2.8-savol::

Ong nima?

{
= inson dunyoni miyasida aks ettirishi bilan uni hayvondan farqlaydi # a`lo javob
~ inson dunyoni miyasida aks ettirmasligi bilan uni hayvondan farqlaydi #yana urinib ko`ring
~ inson dunyoni miyasida aks ettirishi bilan uni o`simlikdan farqlaydi #yana urinib ko`ring
~ inson dunyoni miyasida aks ettirishi bilan uni insondan farqlaydi #yana urinib ko`ring
}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 40-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::2.9-savol::

Onggina shaxsning ...

{

= o'zligini tashkil etadi # a`lo javob
~ mardligini tashkil etadi #yana urinib ko`ring
~mehnatini tashkil etadi #yana urinib ko`ring
~ kun tartibini tashkil etadi #yana urinib ko`ring
}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 40-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::2.10-savol::

G.K.Selevkoning aniqlashicha...

{
= shaxs umumlashtirilgan xilma-xil sifatlar tizimida ko`rinadigan insonning psixik, ma`naviy mohiyatidir # a`lo javob
~ shaxs umumlashtirilgan bir xil sifatlar tizimida ko`rinadigan insonning psixik, ma`naviy mohiyatidir #yana urinib ko`ring
~ shaxs umumlashtirilmagan xilma-xil sifatlar tizimida ko`rinadigan insonning psixik, ma`naviy mohiyatidir #yana urinib ko`ring
~ shaxs umumlashtirilgan xilma-xil sifatlar tizimida ko`rinadigan insonning jismoniy, ma`daniy mohiyatidir #yana urinib ko`ring
}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 40-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::2.11-savol::

Psixologiya va pedagogika bo'yicha tadqiqotlar shaxs rivojlanishini nechta omillarga bo`ladi?

{
= 3 omilga # a`lo javob
~ 2 omilga #yana urinib ko`ring
~ 1 omilga #yana urinib ko`ring
~ 4 omilga #yana urinib ko`ring
}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2 -adabiyotni 41-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::2.12-savol::

Irsiy omil nima?

{
= ota-onalardagi ayrim sifat va xususiyatlarning bolalarga o`tishi # a`lo javob

~ ota-onalardagi ayrim sifat va xususiyatlarning bolalarga o'tmasligi#yana urinib ko`ring

~ biologik o'xshashliklarni hayvonlarda takrorlanmasligi#yana urinib ko`ring

~ o'simliklardan o'simliklarga o'tmaydigan irsiy belgilar#yana urinib ko`ring
}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 41-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::2.14-savol::

Ursiyatni vujudga keltiruvchi ...

{
= genlar vujudga keltiradi# a`lo javob

~nerv tolalari #yana urinib ko`ring

~ asab tizimi #yana urinib ko`ring

~harakatlar #yana urinib ko`ring
}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2 -adabiyotni 41-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::2.15-savol::

... shaxs rivojlanadigan real voqelikdir

{
= Muhit # a`lo javob

~ Irsiyat #yana urinib ko`ring

~ Tarbiya #yana urinib ko`ring

~ Mehnat #yana urinib ko`ring
}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2 -adabiyotni 41-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::2.16-savol::

Psixologiya va pedagogika bo'yicha tadqiqotlar shaxs rivojlanishini qanday omillarga bo'ladi?

{
= irsiyat, muhit va tarbiyaga# a`lo javob

~ muhit,mehnat, tarbiyaga#yana urinib ko`ring

~ irsiyat, mehnat tarbiyaga #yana urinib ko`ring

~ irsiyat, muhit, faoliyatga#yana urinib ko`ring
}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 41-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::2.17-savol::

O`yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning ... tashkil etadi.?

{

= faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati # a`lo javob

~ faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi mehnati #yana urinib ko`ring

~ faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi o`qishi #yana urinib ko`ring

~ faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi o`yini #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2 -adabiyotni 41-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::2.18-savol::

Boy, faol xarakteiga -«ijod maydoni»ga ega bo`lgan faoliyat?

{

= o`yin # a`lo javob

~ mehnat #yana urinib ko`ring

~ o`qishi #yana urinib ko`ring

~ suxbat #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2 -adabiyotni 41-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::2.19-savol::

O`yinning o`zaro namoyon bo`lish shakllari?

{

= o`zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo`ladi. # a`lo javob

~ o`zaro ta`sir, musobaqalashish, o`rtoqlashish shaklida namoyon bo`ladi. #yana urinib ko`ring

~ o`zaro hamkorlik, qadrlashish, raqobat shaklida namoyon bo`ladi. #yana urinib ko`ring

~ o`zaro musobaqalashish, mehnat qilish raqobatlashish, men shaklida namoyon bo`ladi. #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2 -adabiyotni 41-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::2.20-savol::

O'qitishni jadallashtirish texnologiyasi kim tomonidan ishlab chiqildi va hayotga joriy qilindi.?

{

= Viktor Fedorovich Shatalov # a`lo javob

~ A.N.Leontev #yana urinib ko`ring

~ L.S.Vigodskiy #yana urinib ko`ring

~ A.N.Borisov #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 41-saxifani qayta ko`rib chiqin/

MUSTAQIL ISHLASH UCHUN TOPSHIRIQ

Mavzuga oid bo'lgan so`zlardan foydalanib "Sinkveyn" metodini qo'llab topshirig'ni mustaqil tarzda bajaring


Sinkveyn

Axborotlarni qisqacha bayon qilish, murakkab g'oyalarni, sezgilarni, tasavvurlarni bir necha so'zlar vositasida bayon qilish imkoniyati borasidagi muhim malakadir. Bu boy tushunchalar zahirasi asosidagi o'ylangan refleksiyaning talab qiladi. Sinkveyn bu she'r bo'lib, u biror voqea munosabati bilan yoziladigan yoki refleksiya qilinadigan qisqa ifodalarda axborot va materiallarning sintezlanishini talab etadi.

Sinkveyn so'zi fransuzcha so'z bo'lib, besh degan tarjimai beradi. Demak, sinkveyn besh qatordan iborat she'rdir.

Sinkveynni yozib chiqish qoidasi mavjud bo'lib, uni quyidagi –rasmda ko'rish mumkin:

2–rasm. Sinkveyanni yozib chiqish qoidasi



Masalan:

1. Shaxs (kim? ot)
2. Individual — psixologik (qanday? sifat)
3. Fikrlaydigan, shugʻullanaydigan, gapiradigan (nima qiladi? feʼl)
4. Taʼlim jarayonidagi taʼlim oluvchi (gap)

MAQSADNI BELGILASH TAʼLIMNI TEXNOLOGIYALSHTIRISHNING ASOSIY ELEMENTI. OʻQITISHNI TEXNOLOGIYALASHTIRISHDA METOD VA VOSITALAR

Reja:

1. Taʼlim oluvchilar tomonidan bilim, koʻnikma va malakalarni oʻzlashtirish darajalari, ularga erishishning maqsad va natijalarini shakllantirish va talabalarning oʻquv yutuqlarini nazorat qilish.
2. Taʼlimni tashkil etish shakllariining mohiyati, mazmuni, guruxlarni shakllantirish tamoyillari, taʼlim texnologiyasida oʻqitish metodlarining oʻrni, ahamiyati, tasniflanishi va ularni tanlash omillari

Tayanch tushunchalar: bilim, koʻnikma, malaka, maqsadni belgilash, nazorat, joriy nazorat, oraliq nazorat, yakuniy nazorat, frontal tekshiruv, ogʻzaki tekshirish, yozma nazorat, metod, taʼlim metodi

Ta'lim oluvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish darajalari, ularga erishishning maqsad va natijalarini shakllantirish va talabalarning o'quv yutuqlarini nazorat qilish

Zamonaviy pedagogik texnologiya ta'lim maqsadini aniq o'rnatishdan boshlab to uning natijalarini baholashgacha bo'lgan bosqichlarning har biri uchun ijodiy faoliyatni talab etadi. Pedagog faoliyatining texnologiyalanuvchanlik darajasini prof N.Sayidahmedov quyidagi mezonlar asosida alohida ajratib ko'rsatgan:

1. Tashxislanuvchan o'rnatilgan maqsad — ta'lim oluvchi-talaba tomonidan didaktik jarayon mahsuli sifatida o'zlashtirilgan aniq o'lchamli tushunchalar, amallar va faoliyat turlari.

2. Ta'lim mazmunini o'quv **elementlari** yordamida bayon qilishda abstraksiya pog'onalarining va axborotlarni o'zlashtirish darajasining hisobga olinishi.

3. O'quv materiallarini o'zlashtirish bosqichlarining yetarlicha mantiqiy qat'iyonligi — didaktik jarayon tuzilmasiga mosligi.

5. O'quv jarayoniga yangi vositalar va axborotlashtirish usullarining joriy etilishi.

5. O'qituvchining qoidabop (algoritmli) va erkin, ijodiy faoliyatidagi mumkin bo'lgan chetga chiqish chegarasining ko'rsatishishi.

6. Ta'lim oluvchi-talaba va Ta'lim beruvchifaoliyatida shaxsiy motivlashganlikning ta'minlanishi (erkinlik, ijodiyot, kurashuvchanlik, hayotiy, kasbiy mohiyat va boshqalar).

7. O'qitish jarayonining har bir bosqichida kommunikativ munosabatlarning, axborot texnikalari bilan muomala qilishning maqsadga muvofiqligi.

Yuqorida berilgan ko'rsatkichlar loyihalangan o'quv jarayonining texnologik darajasini to'liq ifodalaydi, amalda joriy etilishi esa pedagogni yuqori malakali mutaxassisga aylantiradi, talabaning nufuzini ham birmuncha oshiradi va ijodiy faoliyatni rivojlantirishning yangi qirralarini ochadi.

Ta'lim-tarbiya mazmuni, maqsad **elementlari** va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsad elementlarini to'liq, amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi **maqsadni belgilash** ham ta'lim-tarbiya sohasida ta'limni texnologiyalashtirishning asosiy **elementi** sifatida e'tirof etiladi, ya'ni pedagogik texnologiyada maqsadni belgilash-texnologiyalashtirishning asosiy omili hisoblanib, quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- pedagogik texnologiyani loyihalashtirish;
- o'quv jarayonini tuzish;

- o'quv jarayonini tashkillashtirish. Har bir bosqich ostida таълим олувчилар томонидан БМК ўзлаштириш даражаси yotadi va maqsad elementlari ham aynan mazkur daraja orqali belgilanadi. Quyida keltirilgan jadval orqali maqsad elementlarining qo'yilishi fikrimizga isbotdir:

1-jadval. Maqsad elementlarining qo'yilishi

Ta'lim oluvchilar tomonidan БМК o'zlashtirish darajasi	БМКга erishishda maqsadsad elementlarini shakllantirish	Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi harakatlarning tavsifi
<p>I. O'quvchilikka oid (tanish bo'yicha harakatlanishi)</p>	<p>Ta'lim maqsadi: ...to'g'risida tushunchalarni shakllantirish.</p>	<p>Ta'lim beruvchi: ta'lim oluvchilarning bilimlarni o'zlashtirishlari bo'yicha faoliyatlarini tashkillashtiruvchi, axborot manbai bo'ladi. Ta'lim oluvchilar: axborot- retseptiv (qabul qilish) faoliyatini amalga oshiradi: eshitadi, kuzatadi, o'quv axborotini eslab qoladi va xatosiz qayta tiklaydi.</p>
<p>II. Tartiblilikka oid (algoritm), (namuna, o'xshashlik bo'yicha harakatlanish)</p>	<p>Ta'lim maqsadi:...to'g'risida bilimlarni shakllantirish, nazariy bilimni o'xshashlik bo'yicha qo'llash, harakatlarni tartib bo'yicha bajarish malakalarini shakllantirish, (rivojlantirish, mustahkamlash)</p>	<p>Ta'lim beruvchi: ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkillashtiradi. Ta'lim oluvchilar: (namuna) ketma-ketlik bo'yicha reproduktiv (qayta tiklash) faoliyatini amalga oshiradi: bilimlarni ongli o'zlashtiradi, ularni mustahkam eslab qoladi va qo'llaydi; o'xshash holatda harakatlarni asos bilan</p>

		namunali o'rganganliklari bo'yicha ta'lim beruvchi rahbarligi ostida bajaradilar.
<p>III. Ijodiy fikrlovchilikka oid (evristik) (harakatlarni tanlash)</p>	<p>Ta'lim maqsadi: shaxsiy faoliyat tartibini tashkil etish va shu bo'yicha mustaqil ijodiy izlanishni olib borish va bilimlarni izlab topish, ularni yangi holatlarda qo'llash malaka va ko'nikmalarini shakllantirish</p>	<p>Ta'lim beruvchi: ta'lim oluvchilar faoliyatini yo'naltiradi. Ta'lim oluvchilar: ijodiy fikrlovchilik turdagi natijaviy ijodiy faoliyatni amalga oshiradi: mustaqil tuzilgan tartib bo'yicha mustaqil izlanish va bilimlarni izlab topishni olib boradi, o'zlashtirilgan bilimlarni izlab topishni olib boradi, o'zlashtirilgan bilimlarni yangidan hosil qiladi va ularni yangi holatda qo'llaydi</p>
<p>IV. Ijodkorlikka oid (harakatlarni izlash)</p>	<p>Ta'lim maqsadi: muammoni mustaqil ajratish va yechish qobiliyati, tadqiqotchilik va izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorgarlik, notanish holatlarda harakat qilish qobiliyatini shakllantirish (rivojlantirish)</p>	<p>Ta'lim beruvchi: ta'lim oluvchilarga maslahat beradi Ta'lim oluvchilar: tadqiqotchilik turdagi mahsuldor faoliyatni amalga oshiradi</p>

Zamonaviy pedagogik texnologiyani muntazam tahlil qilib borish, loyihalashtiruvchi vositalarning eng zarurini tanlash metodlarining maqsadga muvofiqligini aniqlay bilish (ta'lim metodlari), olinishi zarur bo'lgan natijani oldindan tahlil qilish (maqsadlarning amalga oshishiga erishish), o'quv jarayonining yaxlitligini ta'minlash kabi tamoyillarga asoslanadi. Pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy qilish, ayniqsa, xorijiy davlatlardagi pedagogik texnologiyalar tajribalaridan foydalangan holda o'zimizning

tizimlashtirilgan ta'lim jarayonining zamonaviy pedagogik texnologiya tizimini vujudga keltirish borasidagi amalga oshiriladigan ishlarni umumlashtirish va hayotda qo'llash uchun quyidagi tadbirlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari — ta'lim beruvchi(pedagog) va ta'lim oluvchi-talabalar o'rtasida:

O'quv rejasini ishlab chiqish. Ya'ni ta'lim beruvchi (pedagog) bo'lim va bobni o'rganish rejasini tuzar ekan, ushbu rejada ta'lim oluvchi-talaba va ta'lim beruvchi (pedagog) faoliyati o'z ifodasini topmog'i lozim. Zamonaviy pedagogik texnologiya tamoyillaridan biri bo'lgan o'quv mehnatining ta'lim beruvchi (pedagog) va ta'lim oluvchi-talaba o'rtasida izchil rejalashtirilgan taqsimoti ta'lim beruvchi(pedagog)dan ta'lim jarayonini izchil boshqarishni talab qiladi.

2. Fanning ichki bog'lanishi va fuqarolararo bog'lanish imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish.

Har bir o'rganiladigan kichik va yirik o'quv birliklari oldin o'rganilganlarga tayanadi. Bunda fanlararo bog'lanishlar va ta'lim oluvchi- talabalarning tayyorgarlik darajalarini bilish ham muhim tomonlardan biridir. Demak, ta'lim oluvchi-talabani yangi bo'lim, bobni o'rganishga olib kirishda undagi mavjud bilimlarga tayanish, agar mavjud bilimlar yangi bobni, bo'limni o'rganishga yetarli bo'lmasa, oraliq tayyorgarlik olib borish va shundan keyingina bilimlarni o'rganishning navbatdagi bosqichiga o'tish mumkin.

3. O'quv birliklarini (mezonlarini) belgilash.

O'quv birliklari ta'lim oluvchi-talaba o'rganishi lozim bo'lgan tushunchalar, ta'riflar, qoidalar, qonunlar, hodisalar- voqealardan iborat bo'lib, ular orasidagi mantiqiy bog'lanishning ta'minlanishi shu bob yoki bo'limning o'zlashtirilishiga olib keladi. Ta'lim beruvchi(pedagog) bob, bo'lim uchun ajratilgan soatlarda ta'lim oluvchi-talabalar o'rganishi lozim bo'lgan mezonlar hisoblanib, ta'lim oluvchi-talaba bilimini baholashning chegaraviy qiymati aniqlab olinadi. O'quv rejasini tuzishda ta'lim beruvchi (pedagog) va ta'lim oluvchi-talabalar bilishi kerak bo'lgan o'quv birliklarini bo'limlar, boblar bo'yicha aniqlaydi va ularga mustaqil topshiriq sifatida bo'limni o'rganishdan oldin vazifa qilib beradi.

5. Diagnostik tahlil.

Ta'lim oluvchi-talabalar bilimidagi notekisliklarni aniqlash, ularni to'ldirib va navbatdagi o'zlashtirish bosqichiga ko'tarish maqsadida diagnostikalash amalga oshiriladi. Diagnostikalash quyidagi maqsadlarni amalga oshiradi:

- ta'lim oluvchi-talabalar o'zlashtirish darajasini diagnostikalash;
- ular bilimidagi yetishmovchiliklarning oldini olish;
- aniqlangan yetishmovchiliklarni to'ldirish maqsadida maxsus topshiriqlar ishlab chiqish;
- maxsus topshiriqlar bajarish soatlarini belgilash;

- yakuniy diagnostik tahlil qilish.

Diagnostika ta'lim texnologiyasining asosiy elementlaridan biri hisoblanib, asosiy o'zlashtirishdagi kamchiliklar soatini aniqlash, har bir ta'lim oluvchi-talabanning bilim darajasini aniqlash, rejaning borishiga tuzatishlar kiritish yoki bilan ta'lim jarayonining natijasi kafolatlanganligini ta'minlaydi.

5. Tuzatish kiritish.

Bo'lim yoki bobning o'zlashtirilish darajasining diagnostik tahlili natijasi 50 foizdan kam ko'rsatkichni bersa, ta'lim beruvchi (pedagog) ta'lim jarayonining borishiga tuzatish kiritishi shart.

6. Qayta to'ldirish (nuqsonlarni yo'qotish).

Qayta tuzatish kiritilishidan (korreksiya) maqsad olingan bilimlardagi kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat. Kamchiliklarni bartaraf etish to'ldirish asosida amalga oshiriladi.

7. Kutilishi lozim bo'lgan natijani olish.

Bu element zamonaviy pedagogik texnologiyalarning markaziy g'oyasi hisoblanadi. Pedagogik texnologiya ta'lim jarayoni natijasi kafolatli bo'lishini talab qilar ekan, jarayon borishidan ko'zda tutilgan maqsad amalga oshirilishi va natijali bo'lishning rejalashtirilishini ta'lim beruvchi (pedagog)lar oldiga vazifa qilib qo'yadi.

Ta'lim texnologiyasi asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlar an'anaviy pedagogik amaliyotdan qator xususiyatlariga ko'ra farq qiladi:

- mashg'ulotlar ta'lim oluvchi-talabalarning o'quv maqsadlarini oydinlashtirishdan boshlanadi;
- ta'lim-tarbiya jarayoni oldindan qayd etilgan natijaga mo'ljallab tashkil etiladi;
- har bir ta'lim oluvchi-talaba o'z faoliyati xususiyatlariga mos keladigan sur'atda ishlaydi;
- jamoa a'zolarining har bir o'zlari erishgan natijadan tez-tez ogohlantirib turiladi;
- erishilgan natija ta'limning har bir bosqichida etalonga birlashtirib turiladi;
- natija ta'lim oluvchi-talabalarning asosiy o'quv maqsadlariga ko'ra aniqlanadi;
- o'quv materialini to'liq o'zlashtirgan ta'lim oluvchi-talaba keyingi mavzuni o'rganishga o'tadi;
- etalondan past o'zlashtirgan ta'lim oluvchi-talabalar uchun ta'lim o'xshash sharoitlarda takrorlanadi;
- ta'lim oluvchi-talaba uchun o'qish-o'rganish harakatiga teng maqsadlarni amalga oshirishdan boshlanadi;
- ta'lim oluvchi-talaba harakatga teng maqsadlardan oraliq maqsadga — bilimlarga, undan umumiy o'quv maqsadiga qarab boradi;
- harakatga teng maqsaddan umumiy o'quv maqsadiga qarab borish o'qish-o'rganishning sikliyligini ta'minlaydi;

- yakuniy (nazorat) baho o'quv kursi to'liq o'rganilgach chiqariladi.

Texnologik yondashuv, eng avvalo, yuzakilikda emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini, beruvchi konstruktiv, ko'rsatmali sxemada o'z ifodasini topadi. Maqsadga yo'naltirilganlik, jarayon natijalarini tashxisli tekshiruv, ta'limni alohida o'rgatuvchi epizodlarga bo'lish, o'quv jarayonining barcha bunday qirralarini bugungi kunda ta'limni qayta ishlab chiqish sikli g'oyasiga mujassamlashtirish imkonini tug'diradi.

U asosan o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- ta'limda umumiy maqsadning qo'yilishi;
- tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o'tish;
- ta'lim oluvchi-talabalarning bilim darajalarini dastlabki (tashxisli) baholash;
- bajariladigan o'quv ishlari majmuasi (bu bosqichda teskari bog'lanish asosida zudlik bilan ta'lim jarayoniga tuzatish kiritish imkoniyati bo'lishi lozim);
- natijani baholash.

O'quv maqsadlarining to'liq standartlashtirilishining me'yori quyidagicha bo'lishi mumkin:

a) yuqori, ammo mutlaq emas:

b) mutlaq.

Birinchi holatda maqsadning murakkabligi tufayli uni to'liq kuzatuvchan xatti-harakatlar tipiga aylantirish imkonini bermaydi, sikl to'laligicha qayta ishlab chiqilmaydi.

Ikkinchi holatda konveyerli jarayon bo'lgan ta'limning reproduktiv tipi bilan ish yuritiladi.

O'quv jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil etishning rejalashtirish bosqichida, yetakchi pedagog olimlar, metodist o'qituvchilar pedagogik texnologiyaning qonun-qoida va prinsiplari asosida uslubiy materiallarni ishlab chiqish paytlarida ulardan yuksak malaka talab etiladi. Materiallar tayyor bo'lgach, pedagog, asosan, tashkiliy va konsultativ (ijodiy qo'shimchalar kiritish imkonini saqlagan holda) vazifalarni bajaradi.

O'quv jarayonining barcha bosqichlarida butun tizimning asosiy texnologik jihati — o'quv jarayonining so'nggi natijalariga yo'naltirilganligini kuzatish mumkin.

Umumiy ko'rinishda pedagogik texnologiya tarkibiga quyidagilar kiradi:

- identifikatsiyalangan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish;
- o'quv maqsadlari taksonomiyasi;
- o'quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga aylantirish;
- maqsadga erishish usullari;
- erishilgan o'quv maqsadlarini baholash.

Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiyaning asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab oladi.

Ta'lim beruvchi (pedagog) o'z oldiga ta'lim oluvchi-talabalar o'quv materialining mazmunini tushunib, o'zlashtirib olsin, ma'lum bilimlarni egallab, amaliyotga qo'llashga o'rgansin degan maqsadni qo'yadi. Biroq o'zlashtirish, tushunish, qo'llash nimani anglatadi? Ta'lim beruvchi (pedagog) o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishganligini qanday biladi?

Pedagogik maqsadga erishganlik yoki erishmaganlikni bilishning aniq vositalari bo'lgandagina, ta'lim beruvchi (pedagog) o'zining mehnati samarali ekanligiga va tanlagan metodlarining maqsadga muvofiqligiga, yoki, aksincha, samarasiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin.

M.V.Klarin fikri bo'yicha, ta'lim beruvchi (pedagog)lar tomonidan maqsadlarni belgilashning tipik usullari quyidagicha:

1. O'quv materialining rejasidan kelib chiqib, maqsadni belgilash.
2. Maqsadni o'qituvchi (pedagog) faoliyati orqali aniqlash.
3. Ta'lim oluvchi-talabaning intellektual, emotsional, shaxsiy rivojlanish ichki jarayonlari va qonuniyatlari orqali o'quv maqsadini qo'yish.

O'qitishning maqsadi va ta'lim mazmunini ta'lim beruvchi (pedagog) yoki ta'lim oluvchi-talabaning faoliyati orqali belgilash ta'limda kutilayotgan natijalar haqida aniq taassurotga ega bo'lishga imkon bermaydi. Bu natijalar haqida ta'lim oluvchi-talabalar faoliyatining faqat tashqi tomondan namoyon bo'lishini kuzatish mumkin. Bu maqsadga erishishning juda sodda va samarasiz yo'lidir.

Rivojlangan davlatlarda o'qituvchi-talaba va ta'lim beruvchi (pedagog)lar uchun maqsadlarni alohida-alohida belgilash odat tusiga kirgan. Bu mantiqan to'g'ri, chunki o'qitish jarayoni pedagog va ta'lim oluvchi-talabaning o'zaro hamkorlikdagi faoliyati hisoblanadi. Bunda maqsadlar ta'lim beruvchi (pedagog)ning faoliyatidan kelib chiqqan holda qo'yiladi (o'rgatish, tushuntirish, ko'rsatish, aytib berish va hokazo), ta'lim oluvchi-talabaning xarakterlarida ifodalanadigan natijalar esa ta'limning vazifalari deyiladi. Bunday ma'noda ta'lim vazifalari ta'lim oluvchi-talaba mashg'ulotning oxirida bilishi yoki bajara olishi mumkin bo'lgan narsani anglatadi.

Umuman olganda, ta'lim jarayonida vazifalarni o'lchash, aniqlash, o'qitishni qayta takrorlash imkoniga ega bo'lish uchun har bir maqsadga erishish mezonini bilish kerak, ya'ni ta'lim maqsadi shunday qo'yilishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo'lsin.

Xullas, Professor N.Saydahmedov yuqorida bayon qilingan fikrlarini hisobga olgan holda ta`lim oluvchi-talabalarning o`quv materiallarini o`zlashtirish faoliyatini quyidagi 4 daraja asosida ko`rsatgan:

I daraja: tashqi ko`rsatma ta`siridagi harakat. Bu faoliyat tanishuv darajasi deb nomlangan. Tanishuv darajasida ta`lim oluvchi-talabaning bilim olish, eslash qobiliyati oldindan o`zlashtirilgan materiallar matni bilan qayta tanishish asosida amalga oshishini tavsiflaydi. Ta`lim oluvchi-talabada o`ziga tanish materiallarni faqat ma`lum vaziyatlarda, ya`ni bu materiallar oldida turgan taqdirda eslash imkoni bo`ladi. O`zlashtirishning birinchi darajasi obyektlar, hodisalar, jarayonlar to`g`risida umumiy tasavur hosil qilish bilan chegaralanadi va ularni ta`lim oluvchi-talabaning bilib olishi noma`lum obyektlar qatorida kechadi.

II daraja: xotira asosidagi harakat. Bu faoliyatning algoritmi darajasi deb nomlanadi. Algoritm darajasida ta`lim oluvchi-talabaning qobiliyati materiallarni yoki uning alohida qismlarini tashqi ko`rsatmasiz mustaqil ravishda qayta tiklay olishi bilan tavsiflanadi. Bu ta`lim oluvchi-talabalar o`zlashtirish darajasining birmuncha yuqori pog`onasi bo`lib, ta`lim oluvchi-talabalar o`z xotirasiga tayangan holda ta`lim beruvchi (pedagog) o`rgatgan yoki adabiyotlardagi mavjud materiallarni ma`lum algoritmi bo`yicha tushuntirib bera oladi.

III daraja: nostandart vaziyatlardagi mahsuldor harakat. Bu faoliyatning evristik darajasi deb nomlanadi. Evristik darajada ta`lim oluvchi-talabaning aniq masalalarni yechish qobiliyati o`rganilayotgan mavzu bo`yicha materiallarni tanish va notanish vaziyatlarda mustaqil qayta tiklash evaziga yangi axborotlarni qo`lga kiritishi bilan xarakterlanadi. Bilimlarni ko`chirish ma`lum masalalar sinfi bilan chegaralangan va butun bir o`quv predmeti bo`yicha tarqalmagan bo`ladi.

IV daraja: faoliyatning yangi qirralarini tadqiq qiluvchi mahsuldor harakat. Bu faoliyatning ijodiy darajasi deb nomlanadi. Ijodiy darajada ta`lim oluvchi-talabaning materiallarni mustaqil o`rganish va qayta ishlash qobiliyati mavjud axborotlarni yangi vaziyatlarda keng doiradagi masalalar yechimiga ko`chirish bilan tavsiflanadi. Faoliyatning bu darajasi izlanuvchanlik, ijodkorlik xarakteriga ega bo`lib, turli vaziyatlarda o`zlashtirilgan keng doiradagi bilimlarni qator obyektlarda qo`llash bilan amalga oshiriladi.

Umuman olganda, bilim va ko`nikmalarni o`zlashtirish sifati bo`yicha ta`lim maqsadlarining tashxislanuvchanligi o`zlashtirishning zaruriy darajalarini aniqlashtirishni talab etar ekan. Demak, birinchi navbatda ta`lim oluvchi-talabalarning bo`ljak faoliyatiga va mutaxassislik mahoratiga qo`yilgan talablar e`tiborga olinadi.

Ta`lim oluvchi -talabalarning bilim, ko`nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash - pedagogik texnologiyaning qadimiy usullaridandir. Nazorat va baholash maktab amaliyoti rivojining doimiy hamrohi bo`lib kelgan. Shunga qaramay, bugun

ham baholashning mazmuni, texnologiyalari haqida qizg'in munozaralar davom etmoqda. Bahoning: ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasini qat'iy belgilovchi - sifat ko'rsatkichi, yoki; u yoki bu ta'lim tizimining ustunligi, kamchiliklarini ko'rsatuvchi ko'rsatkich ekanligi aniq belgilanishi zarur.

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash tekshirish deb ham ataladi. Tekshirish - nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasida teskari aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida ob'ektiv axborot olinishi, bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashni ta'minlashdir. **Tekshirishning maqsadi** nafaqat ta'lim oluvchining bilim darajasi, sifati, shuningdek, uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat. Tekshirish tizimidagi birinchi bosqich ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oldindan aniqlash hisoblanadi. Odatda, u o'quv yili boshida ta'lim oluvchilar tomonidan avvalgi o'quv yilida o'zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o'quv yilining o'rtasida yangi bo'lim (kurs) ni o'rganishga kirishilganda ham o'tkazilishi mumkin va o'rinli. Bilimlarni tekshirishning **ikkinchi bosqichi** har bir mavzuni o'zlashtirish jarayonidagi joriy tekshirishdir. **Joriy tekshirish** ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashhis qilish imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi alohida olingan muayyan vaziyatni o'rganishdir. Bunday tekshirish shakl va metodlari turlicha bo'lib, ular o'quv material mazmuni, murakkabligi, ta'lim oluvchilarning yoshi va tayyorgarligi, ta'lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga muvofiq belgilanadi.

Oraliq tekshirish bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning **uchinchi bosqichi** sanalib, ta'lim oluvchilarning o'quv materialining muayyan bob yoki bo'limlari bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli. Yangi mavzuni o'rganish bilan birga ta'lim oluvchilar avval o'zlashtirilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko'maklashadi, biroq o'quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarning mustahkamlik darajasini tashhis qilish imkonini bermaydi. Tashhisning boshqa shakl va metodlari bilan birga qo'llanilsagina ushbu tekshirish kutilgan samarani beradi. Tekshirishni tashkil etishda **beshinchi bosqich** ta'lim oluvchilarning ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini yakuniy tekshirish va hisobga olishdir. O'zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak va o'quv yili oxirida o'tkaziladi. U olingan baholarni qo'shib, o'rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda chiqarishdangina iborat bo'lmasligi lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqichda belgilangan maqsadga muvofiq tarzda mavjud **bilim darajasi** (sifati)ni tashhis qilishdan iborat.

Tekshirishdan tashqari nazorat o'z ichiga baholash (jarayon sifatida) va baho (natija sifatida) ham oladi. O'zlashtirish tabellari, sinf, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholar shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilari va hokazolar baho ko'rinishida qayd etiladi. Ta'lim oluvchining **o'zlashtirish darajasini** baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo'ladi. Bunda ta'lim oluvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko'rsatkichlari hisobga olinadi. Miqdor ko'rsatkichlari ko'proq ballar yoki foizlarda. Sifat ko'rsatkichlari esa a'lo, yaxshi, qoniqarli va hokazo baholovchi fikrlar yordamida qayd etiladi. Har bir baholovchi fikrga oldindan kelishilgan (belgilangan) ma'lum ball, ko'rsatkich (masalan, o'rin - 1, 2, 3, 4 va hokazo) tayinlanadi. Bunda baho o'lchash va hisoblashlar natijasida olinadigan son emas, balki baholovchi fikrga yuklangan ma'no ekanini unutmazlik muhim. Baholovchi son sifatida qo'llashga berilib ketishning oldini olish uchun bir qator mamlakatlarda baholar harfli (A, V, S, D va hokazo) ifodaga ega.

Bahoni amalda egallangan bilim, ko'nikma va malakalar bilan davlat ta'lim standartiga ko'ra o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar umumiy hajmi o'rtasidagi nisbat sifatida tushunish (ta'riflash)dan ta'lim darajasining miqdoriy mazmuni kelib chiqadi. O'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) ko'rsatkichi $B+A/T$ yuz foiz nisbat asosida hisoblanadi. Bunda:


$$O'K = \frac{B+A}{T} 100\%$$

B - o'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) bahosi;

A - amalda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi;

T - o'zlashtirish nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarning to'liq hajmi.

Ko'rinib turibdiki, (O'K) o'zlashtirish ko'rsatkichi (baho) bu o'rinda 100 foiz - axborotni to'liq o'zlashtirish va 0 foiz - uning umuman mavjud emasligi o'rtasida bo'ladi. Ma'lumki, baholash funktsiyasi ta'lim darajasini qayd etish bilangina cheklanmaydi. Baho - ta'lim oluvchilarga ularning ta'lim olishi, bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijodiy yondoshishini rag'batlantirish maqsadida ta'sir ko'rsatish vositasi. Aynan xolis (ob'ektiv) baholash ta'sirida ta'lim oluvchilarda adekvat o'z-o'zini baholash, shaxsiy muvaffaqiyatlarga tanqidiy munosabat yuzaga keladi. Shu bois bahoning ahamiyati, vazifalarining xilma-xilligi ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatining barcha jihatlarini aks ettiradigan va ularni aniqlashni ta'minlaydigan ko'rsatkichlarni izlab topishni taqozo etadi. Demak, o'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi:



1-rasm. O'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish vazifalari

Nazorat qilish va hisobga olish vazifalari


Nazorat qilishning asosiy vazifasi ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o'quv materiallarini o'rganishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi va o'qituvchining o'quv metod hamda usullarini to'g'ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o'quv materiallarini o'rganishning maqbul yo'llarini topish bilan bog'liqdir. Ta'lim vazifasi ta'lim oluvchilarning bilimini tekshirishda aniq ko'rinadi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda ta'lim oluvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni bilib olishlariga imkon tug'iladi. Chunki guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar javob berayotgan ta'lim oluvchining fikrlarini diqqat bilan tinglashadi va avval egallangan bilimlarni mustahkamlab, qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitishadi. O'rtoqlarining javoblariga qo'shimcha qilishga yoki yozilmay qolgan savollarga javob berishga shaylanish orqali o'rganilgan mavzuni aniqlashtirishga harakat qiladi. Shuningdek, tekshirish va baholash ta'lim oluvchining o'z bilimlari va qobiliyatlarini o'zi mustaqil aniqlashiga ham yordam beradi. O'zidagi kamchiliklarni ko'ra olishga va uni tugatish yo'llarini izlashga ko'maklashadi. Lekin ta'lim oluvchining bilimini baholashda Ta'lim beruvchinohaqlikka yo'l qo'ysa, ta'lim oluvchi bilan Ta'lim beruvchio'rtasida ziddiyat kelib chiqadi. Uy vazifalarining esa haddan ziyod ko'p bo'lishi ham ta'lim oluvchilarning yuzaki dars tayyorlashiga olib keladi. Eng asosiysi o'zlashtirishni hisobga olish shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirish, yaxshi o'qishga xohish uyg'otish, o'quv ishlariga vijdonan yongdoshish, javob berishga tayyorlanishda mustaqil bo'lish hamda bilish faoliyatini chuqurlashtirishga yo'naltirilmog'i lozim. Agar nazoratning o'qitish va tarbiyalash vazifalari to'g'ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirish hamda his-tuyg'ulari va axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon tug'iladi. Bu o'z-o'zidan nazoratning rivojlantiruvchi vazifasi sanaladi. Ta'lim oluvchilarning ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga

qo'yiladigan pedagogik talablar (buni pedagog olim N.A.Sorokin ta'rifida berishni ma'qul deb topdik) ta'lim nazariyasi va amaliyotida quyidagicha belgilangan: har bir ta'lim oluvchining o'quv faoliyatini nazorat qilishni talab etadigan, sinf yoki guruhning o'quv ishi natijalari ta'lim oluvchining shaxsiy natijalarining o'rnini almashtirishga yo'l bermaydigan nazoratning individual tavsifi; nazoratni ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida: boshlang'ichidrok etishdan to bilimlarni amalda qo'llashgacha bo'lgan bosqichlarida ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatlarining boshqa tomonlari bilan birgalikda olib borishning tizimliliigi; nazoratning o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini hal etadigan, uni olib borishga ta'lim oluvchilarni qiziqtiradigan turli shakllari; o'quv dasturining barcha qismlarini qamrab olgan, ta'lim oluvchilarning nazariy bilimlari, intellektual hamda amaliy ko'nikma va malakalarini tekshirishdan iborat nazoratning keng ko'lamliligi; ta'lim oluvchilarni har jihatdan bilib olmasdan turib, o'qituvchining xato xulosalar chiqarish, sub'ektiv munosabatda bo'lishiga yo'l qo'ymasligi, shuningdek, o'zlashtirish natijalarini baholashda baho mezonlariga qat'iy rioya qilishni talab etadigan nazoratning xolisligi (ob'ektivligi); har bir fan, uning bo'limlarining maxsus xususiyatlari, shuningdek, ta'lim oluvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda turli nazorat metodlarini tanlashning tabaqalashganligi; muayyan sinf (guruh) ta'lim oluvchilarining o'quv ishlarini nazorat qilishda barcha o'qituvchilar tomonidan qo'yiladigan talablarning bir xil bo'lishi. Yuqorida ko'rsatilgan talablarga rioya qilish orqali nazoratning ishonchliligi ortadi va o'quv jarayonida o'z vazifalarini hal qilishga imkon yaratiladi. Har bir fan bo'yicha ta'lim oluvchining o'quv faoliyatini nazorat qilish va baholash chorak yoki yarim yillik davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi nazorat turlari orqali baholanadi: joriy nazorat; oraliq nazorat; yakuniy nazorat. Joriy nazorat - bu ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan muayyan mavzularni o'zlashtirilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli. Bu nazorat Ta'lim beruvchitomonidan o'tkazilib, ta'lim oluvchilarning bilim darajasini aniqlash fanning har bir mavzusi bo'yicha kundalik ballar qo'yib borishni nazarda tutadi. Oraliq nazorat ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materialining muayyan bob yoki bo'limlari bo'yicha o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli. Yakuniy nazorat - ta'lim oluvchilarning chorak yoki yarim yillik uchun belgilangan o'quv materiallari bo'yicha o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli bo'lib, o'rganilgan mavzular bo'yicha yozma, og'zaki, test shaklida o'tkaziladi.

Ta'lim oluvchilarning faoliyatini hisobga olish metodlari og'zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan bo'lishi mumkin. Og'zaki tekshirish. Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning ancha keng tarqalgan an'anaviy usullaridan biridir. Og'zaki tekshirishning mohiyati shunda ko'rinadiki,

ta`lim beruvchi ta`lim oluvchilarga o'rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, ularning o'zlashtirish darajasini aniqlaydi. Og'zaki tekshirish ta`lim oluvchilarning bilimlarini tekshirishni savol-javob usuli asosida amalga oshiriladi. Ushbu usul ayrim hollarda suhbat usuli deb ham atashadi. Og'zaki tekshirishda ta`lim beruvchi o'rganilayotgan mavzuni alohida qismlarga ajratadi va ularni har biridan ta`lim oluvchilarga savollar beradi. Biroq, ta`lim oluvchilarning nutqini o'stirish hamda ularning chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lishlari uchun ulardan shu yoki oldingi mavzuni butunlay esga tushirishni talab qilish mumkin. Ko'pgina fanlarda og'zaki tekshirish ta`lim oluvchilarning javoblarini yozma mashqlarni tashkil etish asosida to'ldirib boriladi. Shu bois ta`lim oluvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun turli shakllardan foydalaniladi.

2-rasm. Ta`lim oluvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholash shakllari



Bilimlarni tekshirish va baholash shakllari

Og'zaki ommaviy tekshirish ta`lim oluvchilardan og'zaki so'rash bo'lib, ular guruhga qaratilgan savollarga javob beradilar. Bunday tekshirishda javoblar qisqa bo'ladi. Mazkur so'rash ko'pchilik ta`lim oluvchilarni nazorat qilishni ta'minlaydi va butun guruhni faollashtiradi, ammo ta`lim oluvchilarning nutqini o'stirmaydi. Bunday nuqsonlar individual so'rashda ko'zga tashlanmaydi. Ammo so'rashning bu shaklida guruhdagi boshqa ta`lim oluvchilarning to'laqonli ishlashlariga erishish juda qiyin. Kombinatsiyalangan (tezlashtirilgan) tekshirishda Ta`lim beruvchibir necha ta`lim oluvchini bir vaqtda doskaga chaqiradi, biri og'zaki javob beradi, 3-4 nafar ta`lim oluvchi esa kartochkalar bo'yicha yozma ishni bajarishadi va hokazolar. Bu tekshirishning murakkab usuli bo'lib, o'qituvchidan yetarlicha tajriba va diqqatlarini guruhdagi hamma ta`lim oluvchilarga taqsimlay bilishni talab qiladi. Yozma tekshirish - ta`lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo'lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, Ta`lim beruvchi alohida mavzu yoki o'quv dasturining ma'lum bo'limini o'tib bo'lganidan so'ng ta`lim oluvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashni tashkil etadi. Yozma tekshirish topshiriq, ya'ni, insho yozish hamda turli nazorat va mustaqil ishlarni bajarishni uyda ham amalga oshirishga imkon beradi. Ushbu jarayonda o'qituvchining bajarilgan ish

bilan tanishib chiqishi, uning sifatini tekshirishi uchun ko'p mehnat va vaqt sarflanadi. Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish. Bajarilayotgan amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to'g'riligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat bo'lishi mumkin.

O'quvchining butun dars davomidagi barcha faoliyatlarini nazorat qilish tekshirishning maxsus turi bo'lib, u ta'lim oluvchining darsdagi ishtiroki uchun ball qo'yish bilan yakunlanadi. Bu ta'lim oluvchini doimo harakat qilishga va faollikka undaydi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim oluvchi va talabalarning bilimini, aqliy holatlarini nazorat qilish va baholash davlat miqyosidagi muhim ahamiyatga ega ishdir. Shu bilan birga, nazorat va baholash jarayoni ta'lim oluvchi bilimining boyishiga, ular shaxsining rivojlanishiga hamda tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Pedagogika fani bilimlarni o'z vaqtida nazorat qilish va baholashning 3 vazifasi borligini alohida uqtiradi:

1. O'zlashtirishni nazorat qilish va baholash natijalariga qarab davlat ta'lim standartlarining qanday bajarilayotganligi to'g'risida xulosa chiqariladi va galdagi vazifalar belgilanadi.

2. Bilimlarni nazorat qilish va baholash natijasida ta'lim oluvchi-talabalarda bilimlar yanada kengayadi.

3. Ta'lim sohasidagi yaxshi natijalar yoshlar tarbiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ularda ko'tarinki ruh, o'z kuchiga bo'lgan ishonch va qiziqishlar paydo bo'ladi.

Ta'limni tashkil etish shakllariining mohiyati, mazmuni, guruxlarni shakllantirish tamoyillari, ta'lim texnologiyasida o'qitish metodlarining o'rni, ahamiyati, tasniflanishi va ularni tanlash omillari

Metod – grekcha atama bo'lib, aynan “nimagadir yo'l” degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Metodlarni har qanday muammoni, ya'ni maqsadni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- so'z orqali ifodalanadigan metod;
- ko'rgazmali metod;
- amaliy metod.

Metodlar quyidagi guruhlarni o'z ichiga oladi:

- birinchi guruh metodlari: so'z orqali uzatish va informatsiyasini eshitish orqali qabul qilish metodlari bo'lib, og'zaki metodlarni:

- hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar;

- ikkinchi guruh metodlari: o'quv informatsiyasini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari bo'lib, ko'rgazmali metodlarni:

- tasviriy namoyish qilish va boshqalar;

- uchinchi guruh metodlari: o'quv informatsiyasini amaliy mehnat harakatlari orqali berish bo`lib, amaliy metodlarni:

- mashqlar, laboratoriya ishlari, dastur tuzish, pedagogik masalalarni yechish, mehnat harakatlari va boshqalarnio`z ichiga oladi.

Ta`lim texnologiyasida o`qitish metodlarining tanlash omillari:

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda ta`lim oluvchilarning:

- bilim saviyasi,
- o'zlashtirish qobiliyati,
- ta'lim manbai,
- didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:
- o'qitishning ma'ruza (suhbat) metodi;
- o'qitishning amaliy ishlar metodi;
- laboratoriya ishlar metodi;
- mustaqil ishlar metodi;
- ilmiy tatqiqot meiodlari;
- o'qitishning muammoli – izlanish va reproduktiv metodi;
- o'qitishning induktiv va diduktiv metodi;
- o'qitishning nazorat va o'z – o'zini nazorat qilish metodi.

Interfaol metodlar asosida tuzilgan dars tizimlarida turli strategiyalardan foydalaniladi. Bunda talabalarga yashirincha usullardan (kitob, konspektlar va h.k.) foydalanish taqiqlanmaydi, aksincha, bunday usullarni qo'llash rag'batlantiriladi.

Talabalarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, muammolarni hal qilishda tayyor standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qilishga undash, talabalar ichki hissiyotlarini yuzaga chiqarib, ularni mantiqiy fikrlashga chorlash, ularni solishtirish, xususiy analitik fikr yuritishga o'rgatish, ularning intellektual. zukkolik xislatlarini shakllantirish va ma'lum yo'nalishda yanada yuqori darajada

rivojlantirish maqsadida muammoli uslubdan foydalaniladi.

Muammoli vaziyat qanday hosil qilinadi? Buning uchun bajarilishi lozim bo'lgan topshiriq e'lon qilinadi. Endi shu vazifani bajarish uchun talaba bor bilim va ko'nikmalarini eslaydi, topshiriqni bajarishda shu paytgacha egallagan bilimlarining yetishmasligini sezish bilan birga talaba shaxsida ma'lum psixologik qarama-qarshilik shaklidagi holat yuz beradi. Galdagi muammo topshiriqni bajarish va shu topshiriqni bajarish uchun yangi bilim, iqtidor va ko'nikmalarni izlash muammosi paydo bo'ladi. Ana shu vaziyat esa muammoli tahsilning boshlanish jarayoni hisoblanadi.

Pedagog talabalarning topshiriqni mustaqil bajarish jarayonini zukkolik bilan boshqaradi, e'tibor bilan kuzatadi, kerak bo'lganda jonli muloqotga

chorlaydi. Talabalar mantiqiy fikrlash davomida ularning jonli mushohadasi, fikr doirasi pedagog tomonidan izchillik bilan hisobga olinadi va tahsil oxirida faol talabalarga qo'yilgan ballar yoki baholami e'lon qiladi.

Talabalarda umumlashgan psixologik va uslubiy bilim, iqtidor va ko'nikmalarni shakllantirish, o'z tajribalarini tanqidiy nuqtai nazardan yanada mustahkamlash, real haqiqiy amaliyotdagi sharoitda sinash va amaliy ko'nikmalarni yangi bilimlar bilan yanada boyitish maqsadida shu uslubdan foydalaniladi.

Ma'lumki, har qanday fan o'qitilishi uchun belgilangan maqsadga ko'ra, uning mazmuni tanlanadi. Uni o'zlashtirish uchun unga mos metodlar tanlanadi. So'ngra o'quv vositalari va nihoyat, bularga mos ravishda o'qitish shakli tanlanadi.

Talabalarning psixologik tayyorgarliklari va fikrlash yoki olingan bilimlarni o'zlashtirish darajalariga qarab har bir ta'lim bosqichi uchun mos mazmun va metodlar tanlanadi. Har bir bosqichning o'ziga xos mazmunini bayon qilish mantiqi va metodlari bor. Ta'limda har doim mazmun va metodlar muammosi mavjud, bu muammolar bir-biri bilan uzviy bog'langan. Ta'lim metodlaridagi muammolar «Kimni qanday o'qitamiz?» degan savol bilan bog'liq bo'lib, bundan ta'lim metodlarini ishlab chiqish uning mazmuniga bog'liq ekanligi kelib chiqadi. Bu ikki muammo o'zaro qarama-qarshilikda bo'lib, bir-birini to'ldirib boradi.

Metodikaning maqsadi mazkur fandan yangi o'quv fani (o'quv predmeti) yaratish va bu fanning o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat. Bunday o'quv fanlari talabaning barcha talab va ehtiyojlarini qoniqtirishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar talablari asosida «avval o'qish, so'ngra, bu o'qishga o'rgatish uchun o'qitish» prinsipiga asoslanishi, talabaning o'quv materialini o'zlashtirishidagi ko'rsatkich va o'zlashtirish darajalari, nazariy va amaliy bilimlarini egallashda «soddadan-murakkabga» qoidasiga asoslangan nazorat topshiriqlarini belgilash hamda talabalarga individual va tabaqalashgan holda yondashuvlar xususiyatlarini hisobga olishi lozim.

An'anaviy metodikada talaba shaxsining rivojlanishini hisobga olgan holda uning bilimi ko'nikmaga, undan esa malakagacha rivojlanishiga ahamiyat berilmasligi ayon. An'anaviy ta'limda ta'lim beruvchi talabaga iloji boricha o'rganilayotgan mavzudan ko'proq axborot berishga harakat qiladi. Ta'lim beruvchi axborotlarni to'plash, axborotlarni tanlash va qayta ishlash, o'rganilgan axborotlarni qo'llash kabi bilishning uchta bosqichdan iborat modeliga har doim ham rioya qilavermaydi. Keyingi navbatda talabaning bilish faoliyati (olgan bilimi) uni bilish faoliyatining yangi pog'onasiga, ya'ni bu bilish faoliyatining faollashuv jarayoniga ko'tarishi kerak. Shundagina bilim ko'nikmaga, ko'nikma esa malakaga aylanadi. Talabalar bilish faoliyatining faollashuvi qator prinsiplarga tayanadi: fanni o'rganishga qiziqtirish, tayanch iboralaiga asoslanish, muammoli metodlarni

qo'llash, mustaqil ishlarni tashkil etish, yalpi va yakka ishlarni tashkillashtirish, ko'rgazmali va texnik vositalardan foydalanish, ta'lim mazmunini turmush bilan bog'lash, fanlararo aloqadorlikni o'rnatish va hokazo. Bundan esa, ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi rioya qilishi kerak bo'ladigan asosiy prinsiplar kelib chiqadi:

- talabada o'z kuchiga ishonish hissiyotini uyg'otish;
- talabaga o'z vaqtida kerakli yordam berish.

Talabalarning fanlarga oid tanqidiy fikrini bilish maqsadida quyidagi varaqalar tarqatilgan:

1. Ma'ruzani eshitib yozib bordim, lekin o'zlashtirilayotgan material mohiyatini bir davrning o'zida to'liq tushunib, etmadim.
2. Oliy ta'limning mazmuni va shakli o'rta maktabnikidan nimasi bilandir farq qiladi.
3. Ilmiy tushunchalar, atamalar va ta'riflardan foydalanishda qiyinchiliklarni his qilaman.
5. Ma'ruza va seminar mashg'ulotlarining mohiyatini tushuna olmayman.
5. Nazariy bilimlar bilan amaliyot o'rtasida birmuncha nomutanosibliklar mavjud.
6. Mustaqil faoliyatni rejalashtirishning oqilona usullari yetishmaydi.
7. Mustaqil bilim olish uchun juda oz vaqt qoladi.
8. O'quv yili davomida bir qancha materiallar individual ishlashgayig'ilib qoladi.
9. Reyting nazoratida his-tuyg'uda barqarorlikning yetishmasligi sababli diqqatni bir joyga to'play olmayman.
10. Seminar mashg'ulot lari va reyting nazoratiga tayyorlanish uchun birlamchi manbalarning yo'qligi yomon oqibatlarga olib keladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga, tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham yo'q. Ammo tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlari to'plami mavjud.

Tanqidiy fikrlash tajribasini egallashi uchun talabalarga vaqt va imkoniyat berish zarur, ya'ni;

- talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
- turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish;
- talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;
- har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga uning o'zida ishonch hissini uyg'otish;
- tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan talabalar:

- o'ziga ishonchni orttirish, o'z fikri hamda g'oyalarining qadrini tushunish;
- ta'lim jarayonida faol ishtirok etish;

- turli fikr va g'oyalarni e'tibor bilan tinglash;
- o'z hukmlarini shakllantirishga va undan qaytishga tayyor turishi lozim. Tanqidiy (tahliliy) fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki talabalar sustkash tinglovchilar bo'lishadi, ularda ta'lim beruvchi bilimli yoki matnda uning bu birlari aks etgan, shu tufayli ularning bilimlariga ta'lim beruvchi mas'ul, degan ishonch shakllanib qolgan. Ta'lim jarayonidagi talabalarning faol ishtiroki va ta'limga o'zlarining mas'ul ekanligiga tayyorligi, tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, o'z g'oyasi va fikrlari bilan o'zaro o'rtoqlashishga da'vat etish kabi pedagogik yondashuv ularning faolligini o'stiradi.

Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talabalarning fikrlari, o'z tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. Ta'lim beruvchi (pedagog) talabalardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan xoli bo'lishi lozim. Bu esa talabalarda o'zgaralar g'oyalarni mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida talabalarga o'z fikri, o'ziga taalluqli bo'lgan g'oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko'rsata olish kerak. Talabalarning o'zlari ham o'z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil qila olishlari hamda masalalarni muhokama qilish jarayonida o'ta muhim va katta hissa bo'lib hisoblanishini tan olishlari kerak.

Fikrlash jarayoni talabalarning o'zaro bir-birlari bilan fikr almashishlarini ko'zda tutadi. O'zaro fikr almashishda talabalardan diqqat bilan tinglash, o'zining qarashlari tizimini so'rovchiga zo'rlab o'tkazish va boshqa so'zlovchilar fikrini tuzatib turishdan o'zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban talabalar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keng doiradagi munozara oqibati o'laroq, talabalar o'zlariga tegishli bo'lgan g'oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyati orta boradi hamda ularni o'z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g'oyalarni tizimiga tirkab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o'tkazishning bir necha modellari mavjud, ya'ni o'ziga ishonch hosil qilish, ishda faol ishtirok etish, o'rtoqlari va ta'lim beruvchi bilan fikr almashish, o'zgaralar fikrini tinglay olish va boshqalar.


Umuman olganda, talabalarning tanqidiy (tahliliy) fikrini rivojlantirish oliy o'quv yurtlaridagi o'quv-tarbiya jarayonida kamol toptiruvchi hamda tarbiyalovchi prinsiplarni amalga oshirishda va talabalarning o'zini-o'zi boshqarishida muhim rol o'ynaydi.

**“BILAMAN. BILISHNI XOHLAYMAN.
BILIB OLDIM” (BBB) GRAFIK ORGANAYZERI**

Grafik organayzer ta'lim oluvchi (talaba)larga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo'llashda ta'lim oluvchi

(talaba)lar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishlashda mashg'ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.

Guruhlar faoliyati quyidagi ko'rinishda tashkil etilishi mumkin:




O'quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

2-jadval. BBB grafik organayzerini yozuv taxtasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan sxemasi

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Grafik organayzerdan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi:



4-rasm. Grafik organayzerdan foydalanish bosqichlari

Bosqichlar bo'yicha amalga oshirilgan harakatlarning tafsiloti qo'yidagicha:

- 1) ta'lim oluvchi (talaba)lar kichik guruhlariga birlashtiriladi;
- 2) ta'lim oluvchi (talaba)larning yangi mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajasi o'rganiladi;
- 3) ta'lim oluvchilar tomonidan qayd etilgan tushunchalar loyihaning 1-bandiga yozib boriladi;
- 4) ta'lim oluvchi (talaba)larning yangi mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi;
- 5) ta'lim oluvchi (talaba)larning ehtiyojlari sifatida bayon etilgan tushunchalar loyihaning 2-bandiga yozib qo'yiladi;
- 6) Ta'lim beruvchiyangi mavzuga oid umumiy ma'lumotlardan ta'lim oluvchilarni xabardor qiladi;
- 7) ta'lim oluvchi (talaba)lar tomonidan o'zlashtirilgan yangi tushunchalar aniqlanadi;
- 8) bayon etilgan yangi tushunchalar loyihaning 3-bandiga yozib qo'yiladi;
- 9) mashg'ulot yakunida yagona loyiha yaratiladi

“BLITS-SO'ROV” METODI

“Blits-so'rov” (inglizcha “blits” – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo'nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Ta'lim muassasalarida ushbu metodga muvofiq savollar, asosan, ta'lim beruvchitomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. Javob qaytarish shakli mashg'ulot turi, o'rganilayotgan mavzuning murakkabligi, ta'lim oluvchi (talaba)larning qamrab olinishiga ko'ra belgilanadi.

Mashg'ulotlarda metodni qo'llash quyidagicha kechadi:

Ta'lim beruvchio'rganilgan mavzu, muayyan tarkibiy qismlar mohiyatining ochib berilishini talab etadigan savollarni ishlab chiqib, ta'lim oluvchilar e'tiboriga havola qiladi



Ta'lim oluvchi (talaba)lar berilgan savolga qisqa muddatda lo'nda, aniq javob beradi



Guruh (juftlik)da ishlashda bir nafar ta'lim oluvchi berilgan savolga javob qaytaradi (uning guruhdoshlari javobni to'ldiradi, (biroq, fikrlar takrorlanmasligi lozim)


5-rasm. Mashg`ulotlarda metodni qo`llash tartibi

Metodni qo`llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g`oyalarning mohiyati ta`lim oluvchi (talaba)lar tomonidan og`zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin.

“VENN DIAGRAMMASI” GRAFIK ORGANAYZERI

Grafik organayzer ta`lim oluvchi (talaba)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o`zlashtirish (sintezlash) ko`nikmalarini hosil qilishga yo`naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo`yicha amalga oshiriladi.


Yozuv taxtasi o`zaro teng to`rt bo`lakka ajratiladi va har bir bo`lakka quyidagi sxema chiziladi:



6--rasm. “Venn diagrammasi” grafik organayzerini yozuv taxtasidagi sxema chizmasi

Grafik organayzer ta`lim oluvchi (talaba)lar tomonidan o`zlashtirilgan o`zaro yaqin nazariy bilim, ma`lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo`lim yoki boblar bo`yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:



7-rasm. Grafik organayzerlarni qo'llash bosqichlari

Grafik organayzerni qo'llash jarayonida har bir guruh muayyan mavzuga oid topshiriqlarni bajaradi. Ta'lim oluvchi (talaba)larning e'tiborlariga quyidagi jadvalni taqdim etish mumkin:

Guruhlar	Diagrammaning tartib raqami	Topshiriqlar mazmuni
1- guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
2-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
3-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
4-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	

3-jadval. Grafik organayzerni qo'llash jarayonida mavzuga oid topshiriqlarni bajaradigan jadval namunasi

Tayanch tushunchalar tahlili

Tushuncha	Tushuncha mazmuni
Bilim	<p>borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi. Obyektiv reallikning inson ongida adekvat aks ettirilishi (tasavvur, tushuncha, mulohaza, nazariyalar). U kundalik, ilmiy, empirik, nazariy bilimlarga ajradadi.</p> <p>Kundalik bilim sog'lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga asoslanadi. Insonning atrof-muhitga moslashuvi, uning xatti-harakatlari va oldindan ko'ra bilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.</p>
Ko`nikma	<p>ongli faoliyat (harakat)ni tez, tejamli, to 'g'ri, kam jismoniy va asabiy kuch sarflagan holda bajarish. Shaxsning bilimlari asosida tarkib topadi. Dastlabki shakllanish bosqichlarida bunday harakatlar jiddiy diqqat bilan bajariladi, keyingi bosqichlarda diqqat bilan nazorat qilish kamayib boradi va natijada avtomatlashgan harakatga aylanadi.</p> <p>Harakat turlari bo'yicha uch turga: harakat ko'nikmalari,</p>

	<p>sensor ko'nikmalar, aqliy ko'nikmalarga bo'linadi. Ko'nikmalar muntazam mashq qilish (takrorlash) orqali zarur darajada saqlanadi. Ma'lum vaqt takrorlamaslik ko'nikma darajasining pasayishiga olib keladi. Uni qayta mashqlar bajarish, malaka oshirish orqali tiklanadi.</p>
Malaka	<p>shaxsning ma'lum kasbga yaroqlilik, tayyorlik darajasi, shu kasbda ishlay olishi uchun zarur bilim, ko'nikmalari yig'indisi.</p> <p>Kasbiy axborotlarning tez ko'payib borayotgani ilgari o'zlashtirilgan malakaning yetishmasligini keltirib chiqaradi. Bu yetishmaslikni qayta tayyorlash va malaka oshirish orqali to'ldiriladi. Bu jarayon uzluksiz davom etgandagina malaka ortib borishi orqali kasbiy faoliyatni hozirgi talablar darajasida davom ettirish imkoniyati hosil bo'ladi.</p>
Maqsadni belgilash	<p>didaktik vazifalarni aniqlash, ukuv natijalarini shakllantirish. Bu pedagogik faoliyatni asosiy omili bulib, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining birgalikdagi faoliyati xarakatini umumiy natijaga yunaltiradi.</p>
Nazorat	<p>doimiy tekshirish yoki nazorat maqsadidagi tekshiruv. Ta'lim oluvchilarni bilim, ko'nikma, malakalarini (BMK) aniqlash, o'lchash va baxolashni anglatadi.</p>
Joriy nazorat	<p>O'qituvchi tomonidan har kungi ishda, asosan dars jarayonida amalga oshiriladi</p>
Oraliq nazorat	<p>Dastur mavzusi, bulimlari uzlashtirilgandan sung amalga oshiriladi.</p>
Yakuniy nazorat	<p>O'quv yili yarmida yoki yil oxirida amalga oshiriladi.</p>
Frontal tekshiruv	<p>O'zlashtirish lozim bo'lgan (qoida, jadval, yilnomalar) ko'p bo'lmagan materialni tekshirish uchun qo'llaniladi.</p>
Og'zaki tekshirish	<p>nazoratning eng uzgaruvchan usuli bulib, ta'lim berishning barcha boskichlarida kullaniladi va talabalar bilan alokani onson ushlab turishga, ularning fikr va xarakatlarini kuzatishga, javoblarini tugrilashga yordam beradi.</p>
Yozma nazorat	<p>(diktant, bayon yozish, savollarga yozma javob berish va yozma nazorat ishlari) - vaqt bo'yicha tejamli bo'lib, butun guruxni va har bir talabani ta'lim olishga tayyorligini bir vaqtda aniqlash imkonini berib, topshiriqni individual bajarish xususiyati bilan ajralib turadi, biroq topshiriqni tekshirishga ko'p vaqtni talab qiladi.</p>
Metod	<p>grekcha so'z bo'lib, yo'l, axloq usuli ma'nolarini bildiradi. Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. Faoliyat, harakatning yo'li, usuli yoki qiyofasi, shakli. ko'rinishi.</p>

Ta'lim metodi	o'qituvchining ta'lim oluvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, ta'lim oluvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli
---------------	--

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:

1. O`Tolipov, D.Ro`ziyeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: Innovatsiyo-ziyo, 2019.
2. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metodik qo'llanma. Tuzuvchilar: D.Ro'zieva, M.Usmonboeva, Z.Holiqova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. – 136 bet.
3. H.T. Omonov, N.X.Xo'jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov Pedagogik texnologiyalar ya pedagogik mahorat- Toshkent.: «Iqtisod-moliya», 2009.
4. 2009Golish L.V. Texnologii obucheniya na lektsiyax i seminarax/ Uchebnoe posobie/ Pod obsh red. Akad. S.S. Gulyamova. - T.: TGEU, 2005.
5. O'. Tolipov, M. Usmonboeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Pedagog faoliyatining texnologiyalanuvchanlik darajasini prof N.Sayidahmedov qanday mezonlarni ishlab chiqqan?
2. Pedagogik texnologiyada maqsadni belgilash-texnologiyalashtirishning asosiy omili hisoblanib, qanday bosqichlarni o`z ichiga oladi?
3. Zamonaviy pedagogik texnologiya tizimini vujudga keltirish borasidagi amalga oshiriladigan ishlarni umumlashtirish va hayotda qo'llash uchun qanday tadbirlarga amal qilish maqsadga muvofiq?
4. Ta'lim texnologiyasi asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlar an'anaviy pedagogik amaliyotdan qanday xususiyatlariga ko'ra farq qiladi?
5. Qanday yondashuv yuzakilikda emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini, beruvchi konstruktiv, ko'rsatmali sxemada o'z ifodasini topadi?
6. O'quv maqsadlarining to'liq standartlashtirilishining qanday me'yorlari mavjud?
7. M.V.Klarin fikri bo'yicha, ta'lim beruvchi (pedagog)lar tomonidan maqsadlarni belgilashning qanday tipik usullari mavjud:
8. Ta'lim oluvchi -talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash - pedagogik texnologiyaning qanday usullari?

9. Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash qanday jarayoni anglatadi?

10. Metodlar qanday guruhlarni o'z ichiga oladi?

TEST TOPSHIRIQLARI

::3.1-savol::

Ta'lim jarayoning ishtirokchilari...

{

= o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talabalar # a`lo javob

~ maktab raxbari (direktor) va o'quvchi-talabalar #yana urinib ko`ring

~o'qituvchi (pedagog) va ota-onalar, talabalar #yana urinib ko`ring

~maktab ilmiy mudiri va (pedagog)-olimlar #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 68-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::3.2-savol::

Tashxislanuvchan o'rnatilgan maqsad — o'quvchi-talaba tomonidan ...

{

~ilmiy jarayon mahsuli sifatida o'zlashtirilgan aniq o'lchamli tushunchalar, amallar va faoliyat turlari # yana urinib ko`ring

=didaktik jarayon mahsuli sifatida o'zlashtirilgan aniq o'lchamli tushunchalar, amallar va faoliyat turlari #to`g`ri javob

~ metodik jarayon mahsuli sifatida o'zlashtirilgan aniq o'lchamli tushunchalar, amallar va faoliyat turlari # yana urinib ko`ring

~ pedagogik jarayon mahsuli sifatida o'zlashtirilgan aniq o'lchamli tushunchalar, amallar va faoliyat turlari #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 67-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::3.3-savol::

Zamonaviy pedagogik texnologiya tamoyillaridan biri bo'lgan o'quv mehnatining o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talaba o'rtasida ... o'qituvchi (pedagog)dan ta'lim jarayonini izchil boshqarishni talab qiladi.

{

~ izchil rejalashtirilgan baholashni # yana urinib ko`ring

~ izchil rejalashtirilgan boshqaruvni #yana urinib ko`ring

= izchil rejalashtirilgan taqsimoti # a`lo javob

~ izchil rejalashtirilgan nazoratni #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 68-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::3.4-savol::

Har bir o'rganiladigan kichik va yirik o'quv birliklari ... tayanadi

{

~ilmiy bilimlarga # yana urinib ko`ring

~ilmiy dunyoqarashga #yana urinib ko`ring

~hozirgi ma`lumotlarga #yana urinib ko`ring

=oldin o'rganilganlarga # a`lo javob

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 69-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::3.5-savol::

O'quv birliklari o'quvchi-talaba o'rganishi lozim bo'lgan ..., ular orasidagi mantiqiy bog'lanishning ta'minlanishi shu bob yoki bo'limning o'zlashtirilishiga olib keladi.

{

= tushunchalar, ta'riflar, qoidalar, qonunlar, hodisalar- voqealardan iborat bo'lib # a`lo javob

~ tushunchalar, atamalar, qoidalar, qonunlar, hodisalar- voqealardan iborat bo'lib #yana urinib ko`ring

~ misollar, ta'riflar, qoidalar, qonunlar, hodisalar- voqealardan iborat bo'lib #yana urinib ko`ring

~ tushunchalar, ta'riflar, masalalar, qonunlar, hodisalar- voqealardan iborat bo'lib #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 68-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::3.6-savol::

O'qituvchi (pedagog) bob, bo'lim uchun ajratilgan soatlarda o'quvchi-talabalar o'rganishi lozim bo'lgan mezonlar hisoblanib, ...

{

~ o'quvchi-o`qituvchi bilimni baholashning chegaraviy qiymati aniqlab olinadi. # yana urinib ko`ring

= o'quvchi-talaba bilimni baholashning chegaraviy qiymati aniqlab olinadi. # a`lo javob

~ o'quvchi-talaba bilimni baholashning loyixaviy qiymati aniqlab olinadi. #yana urinib ko`ring

~ o'quvchi-talaba bilimni baholashning miqdoriy qiymati aniqlab olinadi. #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 68-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::3.7-savol::

O'quv rejasini tuzishda o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talabalar bilishi kerak bo'lgan ... o'rganishdan oldin vazifa qilib beradi

{

~ o'quv birliklarini bo'limlar, boblar bo'yicha aniqlaydi va ularga guruxiy topshiriq sifatida bo'limni # yana urinib ko`ring

~ o'quv birliklarini bo'limlar, boblar bo'yicha aniqlaydi va ularga yakka topshiriq sifatida bo'limni #yana urinib ko`ring

=o'quv birliklarini bo'limlar, boblar bo'yicha aniqlaydi va ularga mustaqil topshiriq sifatida bo'limni # a`lo javob

~ o'quv birliklarini bo'limlar, boblar bo'yicha aniqlaydi va ularga jamoaviy topshiriq sifatida bo'limni #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 68-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::3.8-savol::

O'quvchi-talabalar bilimidagi notekisliklarni aniqlash, ularni to'ldirib va navbatdagi o'zlashtirish bosqichiga ko'tarish maqsadida...

{

= diagnostikalash amalga oshiriladi # a`lo javob

~ korreksiyalash amalga oshiriladi #yana urinib ko`ring

~ taqsimlash amalga oshiriladi #yana urinib ko`ring

~ taqqoslash amalga oshiriladi #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 68-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::3.9-savol::

Diagnostikalash quyidagi maqsadlarni amalga oshiradi:

{

~ o'quvchi-talabalar bilimidagi ilmiyliklarni to'ldirish # yana urinib ko`ring

= o'quvchi-talabalar bilimidagi yetishmovchiliklarning oldini olish # a`lo javob

~ o'quvchi-o'qituvchi bilimidagi yetishmovchiliklarning oldini olish #yana urinib ko`ring

~ o'quvchi-o'qituvchi bilimidagi ilmiyliklarni to'ldirish #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 68-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::3.10-savol::

... ta 'lim texnologiyasining asosiy elementlaridan biri hisoblanib, asosiy o'zlashtirishdagi kamchiliklar soatini aniqlash, har bir o'quvchi-talabanning bilim darajasini aniqlash, rejaning borishiga tuzatishlar kiritish yoki bilan ta 'lim jarayonining natijasi kafolatlanganligini ta 'minlaydi.

{

~Koreksiya # yana urinib ko`ring

~ Qayta to'ldirish #yana urinib ko`ring

= Diagnostika # a`lo javob

~ Metod #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 68-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::3.11-savol::

Bo'lim yoki bobning o'zlashtirilish darajasining diagnostik tahlili natijasi 50 foizdan kam ko'rsatkichni bersa, o'qituvchi (pedagog) qanday yo'l tutadi?

{

= ta 'lim jarayonining borishiga tuzatish kiritishi shart # a`lo javob

~ ta 'lim jarayonining borishini qayta boshlashi shart #yana urinib ko`ring

~ ta 'lim jarayonining borishini yakunlashi shart #yana urinib ko`ring

~ ta 'lim jarayonining borishiga yangilik kiritishi shart #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 70-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::3.12-savol::

Qayta tuzatish kiritilishidan (korreksiya) maqsad nima?

{

~ olingan bilimlardagi ilmiylikni to'ldirishdan iborat # yana urinib ko`ring

= olingan bilimlardagi kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat # a`lo javob

~ olingan bilimlardagi yangiliklarni amalda qo'llashdan iborat #yana urinib ko`ring

~ olingan bilimlar asosida ilmiydunyoqarashni shakllantirishdan iborat #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 70-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::3.13-savol::

Kamchiliklarni bartaraf etish qanday amalga oshiriladi?

{

= to'ldirish asosida # a`lo javob

~ tuzatish asosida #yana urinib ko`ring
~ ko`rish asosida #yana urinib ko`ring
~ anglash asosida #yana urinib ko`ring
}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 70-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::3.14-savol::

Kutilishi lozim bo'lgan natijani olish...

{
~ an`anaviy pedagogik texnologiyalarning markaziy g'oyasi hisoblanadi. # a`lo javob
~ an`anaviy pedagogik texnologiyalarning yot g'oyasi hisoblanadi. #yana urinib ko`ring
= zamonaviy pedagogik texnologiyalarning markaziy g'oyasi hisoblanadi #yana urinib ko`ring
~ zamonaviy pedagogik texnologiyalarning yot g'oyasi hisoblanadi. #yana urinib ko`ring
}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 70-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::3.15-savol::

«avval o'qish, so'ngra, bu o'qishga o'rgatish uchun o'qitish» prinsipiga asoslangan texnologiya-bu...

{
~ zamonaviy didaktik jarayonlar #yana urinib ko`ring
~ an`anaviy pedagogik texnologiyalar #yana urinib ko`ring
~ an`anaviy didaktik texnologiyalar #yana urinib ko`ring
= zamonaviy pedagogik texnologiyalar # a`lo javob
}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 152-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::3.16-savol::

Har bir ta'lim bosqichi uchun mos mazmun va metodlar qanday tanlanadi?

{
~ talabalarning psixologik tayyorgarliklari va fikrlash yoki olingan bilimlarni qabul qilingan darajalariga qarab #yana urinib ko`ring
= talabalarning psixologik tayyorgarliklari va fikrlash yoki olingan bilimlarni o'zlashtirish darajalariga qarab # a`lo javob
~ talabalarning pedagogik tayyorgarliklari va fikrlash yoki olingan bilimlarni o'zlashtirish darajalariga qarab #yana urinib ko`ring
}

~ talabalarning pedagogik tayyorgarliklari va ijodiy fikrlash yoki olingan bilimlarni o'zlashtirish darajalariga qarab #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 152-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::3.17-savol::

Ta'limda har doim qanday muammolar mavjud va bu muammolar bir-biri bilan qanday bog'langan?

{

~ mazmun va mohiyatlar muammosi ; uzliksiz bog'langan #yana urinib ko`ring

~ maqsad va metodlar muammosi ; uzviy bog'langan #yana urinib ko`ring

= mazmun va metodlar muammosi ; uzviy bog'langan # a`lo javob

~ mohiyat va maqsadlar muammosi; uzliksiz bog'langan #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 152-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::3.18-savol::

Nazariy va amaliy bilimlarini egallashda qanday qoidaga asoslangan nazorat topshiriqlari belgilanadi?

{

= «soddadan-murakkabga» # a`lo javob

~ «pastdan-yuqoriga» #yana urinib ko`ring

~«soddadan-soddaga» #yana urinib ko`ring

~«murakkabdan-murakkabga» #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3 -adabiyotni 152-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::3.19-savol::

An'anaviy metodikada talaba shaxsining rivojlanishini hisobga olgan holda uning ... ahamiyat berilmasligi ayon

{

= bilimi ko'nikmaga, undan esa malakagacha rivojlanishiga # a`lo javob

~ dunyoqarashi, ko'nikmaga, undan esa malakagacha rivojlanishiga #yana urinib ko`ring

~ bilimi ko'nikmaga, undan esa maxoratgacha rivojlanishiga #yana urinib ko`ring

~ bilimi dunyoqarashga, undan esa malakagacha rivojlanishiga #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 152-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::3.20-savol::

O'qituvchi talabaga iloji boricha o'iganilayotgan mavzudan ko'proq axborot berishga harakat qiladigan ta'lim turi?

{

= An'anaviy ta'limda # a'lo javob

~ Zamonaviy ta'limda #yana urinib ko'ring

~ Noan'anaviy ta'limda #yana urinib ko'ring

~ Didaktik ta'limda #yana urinib ko'ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 152-saxifani qayta ko'rib chiqin/

MUSTAQIL ISHLASH UCHUN TOPSHIRIQ

Quyida berilgan mavzuga oid tushunchalarni rus va ingliz tillarida izohlab, jadvalni to'ldiring

№	Tushuncha (o'zbek tilida)	Tushuncha (rus tilida)	Tushuncha (ingliz tilida)
1.	Bilim		
2.	Ko'nikma		
3.	Malaka		
5.	Maqsadni belgilash		
5.	Nazorat		
6.	Joriy nazorat		
7.	Oraliq nazorat		
8.	Yakuniy nazorat		
9.	Frontal tekshiruv		
10.	Og'zaki tekshirish		
11.	Yozma nazorat		
12.	Metod		
13.	Ta'lim metodi		

Masalan:

№	Tushuncha (o'zbek tilida)	Tushuncha (rus tilida)	Tushuncha (ingliz tilida)
1.	Bilim	знания, знание, познания, осведомленность, знакомство, эрудиция	Knowledge
2.	Bilim	познание, знание, познавательн ая способность	cognition
3.	Bilim	знание, понимание, осознание, знакомство	knowing
5.	Bilim	наука, естественные науки, знание, техничность, умение, ловкость	science

5.	Bilim	узнавание, знание, подсудность, компетенция, отличительный знак, юрисдикция	cognizance
----	-------	---	------------

TA`LIMNING “KEYS-STADI” TEXNOLOGIYASI. TA`LIMNI SHAXSGA YO`NALTIRILGAN TEXNOLOGIYASI. TA`LIMNING LOYIXA TEXNOLOGIYASI

Reja:

1. “Keys-stadi” tushunchasining mohiyati, kelib chiqish tarixi, tipologiyalari va “keys-stadi” texnologiyasini tuzilishi
2. “Hamkorlik pedagogikasi” texnologiyasi, uning mazmuni va o`ziga xosliklari.
3. “Loyixa” tushunchasining mazmuni, mohiyati, loyixaviy ta`limning o`ziga xosliklari, o`quv loyixasi tushunchasi va “Loyixa” texnologiyasini ishlab chiqish qoidasi.


Tayanch tushunchalar: “Keys-stadi”, “Keys-stadi” texnologiyasi, loyiha, loyihalash, ta`lim jarayonini loyihalash, o`qitish va o`qish strategiyasi, darsning turini tanlash, darsning texnologik xaritasi, dars ishlanmasi, texnologik pasport (pedagogikada), model, modellashtirish, o`quv loyihaviy faoliyat, o`quv loyihasi, shaxsga yo`naltirilgan ta`lim

“KEYS-STADI” TUSHUNCHASINING MOHIYATI, KELIB CHIQISH TARIXI, TIPOLOGIYALARI VA “KEYS-STADI” TEXNOLOGIYASINI TUZILISHI

“Keys-stadi” ingliz tilida “case” – metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish-degan ma`noni anglatadi. “Keys-stadi” texnologiyasi o`quvchi (talaba)larda aniq, real yoki sun`iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko`nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. “Keys-stadi” texnologiyasi o`quvchi (talaba)larni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o`rganish va tahlil qilishga o`rgatadi.


Ta`lim shakllari, ta`lim metodlari, ta`lim vositalari, ta`lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to`plash, ularni o`rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o`qituvchi va o`quvchi (talaba) o`rtasidagi ta`limiy aloqaning usul va vositalari, o`quv natijalari - “Keys-stadi” texnologiyasining negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlaridir.

Keys-stadi texnologiyasining umumiy tuzilmasi quyidagicha:




1-rasm Keys-stadi texnologiyasining umumiy tuzilmasi

Mashg'ulotlarda metodni qo'llash quyidagi bosqichlarda kechadi:




2-rasm Keys-stadi metodidan mashg'ulotlarda qo'llash bosqichlari

Keys-stadi bo'yicha jamoaviy hamkorlik quyidagi tartibda amalga oshadi:



3-rasm Keys-stadi bo'yicha jamoaviy hamkorlik tartibi


Texnologiyani alohida o'quvchiga nisbatan qo'llash tartibi quyidagicha:



4-rasm Keys-stadi texnologiyasining alohida o'quvchiga nisbatan qo'llash tartibi

Ta'limiy xarakterga ega muammoli vaziyat (o'quv keysi)ni tashkil etish maqsadi mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda jamoa o'rtasida muammoli vaziyatni yaratish, uni hal qilish yechimlari to'g'risidagi fikrlarni jamlash, muhokama qilish orqali to'g'ri qarorlar qabul qilish muhitini yaratishdan iborat.

Texnologiya yordamida tanlangan muammoning yechimini topishga doir muhokama quyidagi bosqichlarda tashkil qilinadi:



6-rasm. Muammoni muhokama qilish shartlari

O'rganilayotgan muammoning asosiy maqsadini aniqlash	S H A R T
Muammoli vaziyatni real holatlar bilan taqqoslashni o'rganish	
Ehtimoli bo'lgan "to'siq"lar (2-darajali masalalarni muhokama qilish, to'g'ri qarorlar qabul qilish va h.k.)ni	
Auditoriya uchun tushunarsiz ma'lumotlarni aniqlash	
Muammoni yechishda muhim, ahamiyatga ega ma'lumotni	
Muammoli vaziyatni hal qilish uchun oraliq bosqichlarni	
Muammoni hal etishning muqobil yo'llarini belgilash	
Muhokamani tugatish tartibini belgilash	
Muammoli vaziyatni muhokama qilish vaqtini aniqlashtirish	
Yakuniy izohlash va muhokama natijasini xulosalash	

“Hamkorlik pedagogikasi” texnologiyasi, uning mazmuni va o`ziga xosliklari.

Pedagogik texnologiyalarning asosiylaridan biri –bu shaxsga yo`naltirilgan ta`lim texnologiyasidir. Shaxsga yo`naltirilgan ta`lim - bu tabiiy tizim hisoblanib, o`quvchining noyob shaxsiy rivojlanishi, uning o`ziga hos qobiliyatlarini va psixologik yo`nalishlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

Shaxsga yo`naltirilgan ta`lim texnologiyasi o`z ichiga quyidagi texnologiyalarni ham qamrab oladi:

- ✓ shaxsga insonparvarlik yondoshuvi;
- ✓ xamkorlik texnologiyasi;
- ✓ o`yin texnologiyasi;
- ✓ kommunikativ ta`lim texnologiyasi;
- ✓ erkin tarbiya texnologiyasi;
- ✓ bolani qo`llab-quvvatlash texnologiyasi.

Shaxsga yo`naltirilgan ta`lim texnologiyasiga qo`yiladigan talablar:

- dialog(o`zaro suhbat);
- faollik va ijodkorlik;
- bolaning individual rivojlanishini qo`llab-quvvatlash;
- o`quvchiga mustaqil ijod qilishi, qaror qabul qilishi, ta`lim olish turi va uslublarini tanlashi uchun keng imkoniyat yaratib berish;

Pedagog quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- san`at, ijodkorlik va bolaga xurmat bilan munosabatda bo`lish;
- insoniy, pedagogik pozitsiyada bo`lish;
- bolalarning ruhiy va jismoniy sog`lom bo`lishi va bolalik ekologiyasi haqida qayg`urishi;
- doimiy ravishda madaniy-informasion, fanni rivojlantiruvchi yangiliklardan unumli foydalanib ta`lim jarayonini boyitib borishi;
- ta`lim mazmuni bilan ishlashni bilishi va ung shaxsga yo`naltirilgan shakl bera bilishi;
- har hil pedagogik texnologiyalardan foydalana olishi va ularga shaxsni rivojlantiruvchi yo`nalish bera olishi;
- har bir bolaning individual xususiyatlarini qo`llab-quvvatlashi va ularni rivojlantirish haqida qayg`urishi.

Shaxsga insonparvarlik yondoshuvi texnologiyasi


Bu texnologiya avvalo shaxsni insonparvarlik yondoshuvi, psixoterapevtik yo'nalishi bilan boshqa texnologiyalardan ajralib turadi. Bular o'z o'rnida majburlashni qoralaydi va aksincha bolani har tomonlama xurmat qilish, uni yaxshi ko'rish hamda bolaning ijodkorlik imkoniyatlariga optimal ishonch bilan qarash g'oyalari ilgari suradi. Bu texnologiyada shaxsga munosabat birlamchi bo'lib individual yondoshuv, notalabchan demokratik boshqaruv hamda yorqin insoniy qarashlar boshqa yo'nalishlardan ustun turadi.

Hamkorlik texnologiyasi va hamkorlik pedagogikasi

Hamkorlik texnologiyasi pedagog bilan o'quvchi o'rtasidagi tenglik, demokratiya hamda sub'ektlar orasidagi o'zaro hamkorlikni amalga oshiradi. Pedagog bilan o'quvchi xamkor va ijodkor sifatida ish yuritib birgalikda mashg'ulot mazmuni, maqsadini aniqlaydilar va birgalikda baholaydilar. Lekin fanda "Hamkorlik pedagogikasi" texnologiyasi ham mavjud. Uning o'ziga xos mazmuni va rivojlanishi mavjud. **Hamkorlik pedagogikasi** XX asrning 80-yillarida rivojlana boshladi va ta'limdagi ko'pgina innovatsion jarayonlarni hayotga chorladi. "Hamkorlik pedagogikasi" texnologiya negizida taniqli rus va chet el pedagoglarning tajribasi yotadi. Ular:

- K.D.Ushinskiy, N.I.Piragov, L.N.Tolstoy, V.A.Suxomlinskiy
- J.J.Russo, Ya.Korchak, K.Rodjers, E.Bern, S.T.Shatskiy

Hamkorlik pedagogikasi 4 ta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi.



Shalva Aleksandrovich Amonashvili taniqli pedagog olim, amaliyotchi va "Hamkorlik pedagogikasining" asoschisi. Shalva Aleksandrovich Amonashvili

o`zining eksperimental maktabida hamkorlik pedagogikasini, shaxsiy yondashuvni, til va matematika o`qitishning ajoyib metodikasini ishlab chiqdi va hayotga tadbiiq etdi.

Sh.A.Amonashvilining asosiy maqsadlari:


- bolaning shaxsiy xislatlarini namoyon qilish orqali unda olijanob insonning shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyalanishiga imkon tug`dirmoq;
- bolaning qalbi va yuragini ulug`lamoq;
- boladagi bilishga bo`lgan kuchlarni rivojlantirish va shakllantirish;
- keng va chuqur bilim hamda malaka olish uchun sharoit tug`dirmoq;
- ideal tarbiya-bu o`z-o`zini tarbiyalamoq

Sh.A.Amonashvili o`zining texnologiyasini amalga oshirish uchun quyidagi metodika va metodik usullardan foydalandi:


- insonparvarlik
- shaxsiy yondoshuv
- muloqot maxorati
- oila pedagogikasining qo`shimcha imkoniyati
- o`quv faoliyati

Sh.A.Amonashvili texnologiyasida bola faoliyatini baholash alohida ahamiyatga ega. Baholardan foydalanish o`ta cheklangan. Miqdoriy baholashdan ko`ra sifatli baholashga urg`u beriladi, ya`ni tavsif, natijalar paketi, o`z-o`zini baholash.

8-rasm. Hamkorlikda o`qitish texnologiyasi




9-rasm. Hamkorlikda o`qitish texnologiyasi xususiyatlari



10-rasm. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasini amalga oshiradigan no'anaviy dars shakllari



11-rasm. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan samarali foydalanish asoslari



“Loyiha” tushunchasining mazmuni, mohiyati, loyixaviy ta`limning o`ziga xosliklari, o`quv loyihasi tushunchasi va “loyiha” texnologiyasini ishlab chiqish qoidasi

Loyiha – aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli.

Loyiha dastur, model, texnologik xarita va b. ko`rinishda namoyon bo`ladi. Loyihaning asosini ilmiy yoki ijodiy xarakterga ega g`oya tashkil etadi.

Loyihalash – boshlang`ich ma`lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat.

Loyihalash **“g`oya – maqsad – kutiladigan natija – taxmin qilish – bashoratlash – rejalashtirish”** tizimiga asoslanadi. Loyihalash turli vositalar, ya`ni moddiy buyum, qurollar, m: kompyuter texnologiyasi, vatmon yoki oddiy ish qog`ozi, chizg`ich, qalam, marker, nusxa ko`chirish apparati (printer) va b. yordamida amalga oshiriladi.

Loyihani yaratish uchun pedagog:

- loyihani yaratish;
- jarayonni bosqichma-bosqich yoritish;
- maqsadni aniq belgilash;
- maqsadga mos vazifalarni aniqlash;
- o`quv materialini mazmunini shakllantirish;
- savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
- jarayon yoki tadbirning metodik tuzilishini asoslash;
- talaba bilim darajasini tashxislash va uning tarbiyalanganlik darajasini baholash kabi ko`nikma va malakalarga ega bo`lishi zarur.

Ta'lim jarayonini loyihalash – alohida olingan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasi (sxemasi)ni ishlab chiqish.

Ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari:

1) ta'lim jarayonini loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik jarayon, texnologik jarayonni boshqarish, vosita, axborot, ijtimoiy-iqtisoiy ta'minot)ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi bilan ta'minlanadi;

2) ta'limning texnologik vositalari talabalarning individual xususiyatlariga bog'liq holda tanlanadi;

3) loyihalash strategiyalari pedagogning individual uslubiga muvofiq tanlanadi;

4) loyihalash sifati teskari aloqa (pedagog va talaba o'rtasidagi) ko'lami, loyihalash mazmuni hamda barcha omillar samaradorligiga bog'liq.

O'quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashni aniq mezonlari oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq sanaladi.

O'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishning asosiy bosqichi – o'quv jarayonini loyihalashtirish hisoblanadi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1. Darsning maqsadi va natijasini belgilash.
2. Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish.
3. Ta'lim resurslarini tanlash.
4. O'qitish va o'qish strategiyasini belgilash.
5. Dars turini tanlash.
6. Darsning texnologik xaritasini ishlab chiqish.

Dars maqsadi va natijasini belgilash – o'qitish va o'qish jarayonlarining eng muhim omili bo'lib, ta'lim jarayonida aynan ular yetakchi o'rin tutadi. Darsning maqsad va natijasi DTS talablaridan kelib chiqib aniqlanadi. Ayni o'rinda shuni ham qayd etib o'tish kerakki, darsning maqsadi o'qituvchi tomonidan talabaga qanday bilim, ko'nikma va malakalarning berilishi nuqtai nazaridan emas, balki talabalar tomonidan darsda qanday bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi muhimligidan kelib chiqib belgilanishi zarur. O'z mohiyatiga ko'ra darsning maqsadi o'qituvchi va talabalarninig umumiy natijalarga qarab harakatlanishlarini belgilaydi. SHu sababli darsning maqsadi tashxisli ifodalanishi lozim. Ya'ni dars maqsadi aniq bo'lishi kerak.

Dars maqsadining aniq bo'lishiga erishish uchun o'qituvchidan quyidagilarga e'tibor qaratish talab etiladi:

1) darsda yuzaga keladigan didaktik jarayon ma'lum sharoit va belgilangan vaqt ichida ta'lim maqsadiga erishishni to'la ta'minlay olishi;


2) o'qitish jarayonining yakuni bo'yicha maqsadni amalga oshirish darajasi to'g'risida aniq xulosa chiqarish imkoniyatining mavjudligi.

SHunga ko'ra aytish mumkinki, ta'lim maqsadlari talabalarning harakatlarida ifodalanadigan ta'lim natijalari belgilanadi.

Ta'lim texnologiyasining keyingi eng muhim komponenti – kutilayotgan natijadir. Binobarin, u o'qitish jarayonining samaradorligini aks ettiradi va maqsadga erishish darajasini tavsiflaydi, o'qitish va o'qish jarayoni, natija qo'yilgan maqsadga mos kelganda yakunlanadi.

Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish – darsning didaktik maqsadi, kutilayotgan natija, o'quv materialning mazmuni asosida nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish, ularning hajmi, bajarilganlik darajasi, bajarilish sifati, vaqtiga ko'ra baholash mezonlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Ta'lim resurslarini tanlash – mavjud shart-sharoitdan kelib chiqqan holda o'qituvchi, talaba va darsni tashkil etish uchun ta'lim vositalarining o'rinli tanlanilishini, ulardan o'quv jarayonida to'g'ri foydalanishni ko'zda tutadi. O'qituvchi, talaba va darsni tashkil etish uchun ta'lim vositalari sirasidan quyidagilar o'rin oladi:




O'qitish va o'qish strategiyasi – belgilangan o'quv materiallarini talabalar ongiga yetkazish yo'llarini, ya'ni tanlangan ta'lim metodi, shakllarining amalda qo'llanilishini ko'zda tutadi.

Darsning turini tanlash – o'qituvchining mahoratiga ko'ra darsning didaktik maqsadi, o'quv materialining mazmuni, dars uchun ajratilgan vaqt, shuningdek, zarur shart-sharoitning tanlanilishini ifodalaydi.

Darsning texnologik xaritasi – dars ishlanmasining asosiy o‘zagini tashkil etadi. U dars turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo‘lishi mumkin. Darsning texnologik xaritasi xususida ma’ruzaning keyingi o‘rinlarida alohida to‘xtalib o‘tiladi.

Ta’lim jarayonini loyihalash: **loyiha – mazmun – faoliyat** uchligi asosida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyatning umumiy mohiyatini yaxlit ifodalashga xizmat qiluvchi loyihani yaratishdir.


Ta’lim jarayonini loyihalash quyidagi bosqichlarda kechadi:



13-rasm. Ta’lim jarayonini loyihalash bosqichlari

Ta’lim jarayonini loyihalashda bajariladigan **asosiy vazifalar** quyidagilardir:

- 1) pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;
- 2) natijalarni oldindin ko’ra bilish;
- 3) rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyahasini yaratish.



14-rasm. Ta’lim jarayonini loyihalashda vazifalarning belgilanishi

Dars ishlanmasi – bu ta’limiy mazmunga ega loyiha, shuningdek, o’qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo’lgan hujjat hisoblanadi. Uni tuzishda o’qituvchining dars jarayonidagi faoliyatini rejalashtirish, dars mazmuni boyitish, ta’lim samaradorligini oshirish **maqsadi** ko’zlanadi. Dars ishlanmasini yildan-yilga takomillashtirib va mukammallashtirib borish, yangi metodlarni qo’llash, yangi materiallarni kiritish bilan yangilab turilishi lozim. Binobarin, ta’lim jarayoniga yangi DTS, o’quv dasturlari, zamonaviy ta’lim texnologiyalarning joriy etilishi, o’qituvchi tomonidan yangi axborot texnologiyalari, zamonaviy texnik vositalarining qo’llanishi bilan dars ishlanmalariga qo’yilgan talablar ham o’zgarib boradi. Dars loyihasi (ishlanmasi)ni uchun tayyor, standart qolip mavjud emas. Chunki dars “jonli” tashkil etilishi zarur. Darsning bu xususiyatiga ko’ra uni hech qanday qolipga solib bo’lmaydi. U dars turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo’lishi mumkin.

Ta’lim jarayonini loyihalash, odatda, texnologik pasport va texnologik xaritalar vositasida amalga oshiriladi.

Texnologik pasport (pedagogikada) – ta’lim yoki ma’naviy-ma’rifiy tadbirning asosiy ko’rsatkichlari va ularning texnologik tavsifini yorituvchi hujjat.

1-jadval. OTMdagi o’quv mashg’ulotining texnologik pasporti

Ma’ruza mavzusi	
Ma’ruzaga ajratilgan vaqt	Talabalar soni
O’quv mashg’ulotining shakli va turi	
O’quv mashg’ulotining tuzilishi	
O’quv mashg’ulotning maqsadi:	
Pedagogik vazifalar:	O’quv faoliyati natijalari:
Ta’lim metodlari	
Ta’limni tashkil etish shakli	
Didaktik vositalar	
Ta’limni tashkil etish sharoiti	
Nazorat	

Texnologik xarita (pedagogikada) – pedagogik (ta’lim va tarbiya) jarayonni bajaruvchi yoki ma’lum ob’ektga texnik xizmat ko’rsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma’lumotlar, ko’rsatmalarni o’z ichiga olgan hujjat.

2-jadval. OTMdagi o’quv mashg’ulotlarining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talaba
1-bosqich. Boshlang’ich qism – o’quv mashg’ulotining tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi (15 daqiqa)		
2-bosqich. Asosiy qism – bilimlarni mustahkamlash bosqichi (55 daqiqa)		
3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)		

Ta'lim jarayonni loyihalashda odatda modellashtirishdan ham foydalaniladi.

Model – real, haqiqatda mavjud bo'lgan ob'ektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshagan nusxasi.

Modellashtirish hodisa, jarayon yoki tizimning umumiy mohiyatini to'la yorituvchi modelni yaratish.

O'quv jarayonida quyidagi turdagi **modellar** qo'llaniladi:

1. O'quv modellari (ta'lim jarayonida qo'llaniladi; ko'rsatmali qurollar, ko'rgazmali vositalar, trenajyorlar, ta'limiy dasturlar).

2. Tajriba modellari (ilmiy, amaliy tajribalarni olib borishda qo'llaniladi; loyihalashtirilayotgan ob'ektning kattalashtirilgan yoki kichiklashtirilgan nusxasi).

3. Ilmiy-texnik modellar (jarayon va hodisalarni tadqiq etishda qo'llaniladi; qurilma, moslama, asbob, jihoz va mexanizmlar).

5. O'yin modellari (turli vaziyatlarda ob'ekt tomonidan turli harakatlarni bajarish orqali ko'nikma, malakalarni hosil qilish maqsadida qo'llaniladi; kompyuter, sport, iqtisodiy, harbiy, ishchanlik o'yinlari va b.).

5. Imitatsion modellar (real voqelikni u yoki bu darajada shunchaki aniq aks ettirish uchun emas, balki aynan unga o'xshatish maqsadida qo'llaniladi; amaliy harakatlarni bajarishga xizmat qiluvchi turli trenajyorlar, mexanizmlar).

Bugungi kunda ta'lim jarayonida talabalar tomonidan ham turli o'quv loyihalarning tayyorlanishiga e'tibor qaratilmoqda.


Xo'sh, o'quv loyahasining o'zi nima? O'quv loyihalarini tayyorlash jarayoni qanday kechadi?

O'quv loyihasi – 1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natija (echim)ni mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usuli;

2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni yechishga qaratilgan o'quv harakati vositasi;

3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta'lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik vosita hisoblanadi

O'quv loyihalari faoliyat mazmuni, bilim sohasi (fanlar) bo'yicha tayyorlanishiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:




15-rasm. O'quv loyihalarining tasniflanadi

Har bir o'quv loyihasi o'z maqsadi va kutiladigan natijasiga ko'ra muayyan turga mansub bo'ladi. O'quv loyihalarining asosiy turlari quyidagilardir:

3-jadval. O'quv loyihalarining asosiy turlari


Axborotli loyihalar	Tadqiqot loyihalari	Amaliy loyihalar
Maqsadi		
Muammoga oid ma'lumotlarni to'plash, ularni tahlil qilish, umumlashtirish, mohiyatini yoritish, muammoni hal etish usul va vositalarini tavsiflash, ularning ahamiyatini asoslash	Tadqiqotni amalga oshirish, tadqiqot asosida muammo izohini asoslash, kelgusida rivojlanish uchun yangi muammolarni asoslash	Muammoni hal etish usul va vositalarini ishlab chiqish
Natijasi		
Maqola, referat ma'ruza keys va b.	Hisobot ma'ruza keys va b.	Harakatlar dasturi, biznes-reja, keys, strategiya, tavsiya, ma'lumotnoma to'plami va b.
Loyiha mavzusi (namuna)		
Pedagogning ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvi o'qitish sifati va samaradorligini kafolatlay	Ish tajribasidan qat'iy nazar har bir pedagog innovator bo'la oladimi?	Pedagogning innovatsion faoliyat malakalarini o'zlashtirish dasturi. Pedagogning innovatsion

Talabalarning juftlik, kichik guruhlar yoki jamoa asosida turli mavzulardagi o'quv loyihalarni tayyorlashlari quyidagi jarayonda kechadi:



Demak, ta'lim jarayonida **“O'quv loyihasi” metodi** o'quvchi (talaba)lar tomonidan individual, guruh yoki jamoa tarzida aniq belgilangan vaqt oralig'ida o'rganilayotgan mavzu bo'yicha axborotlarni yig'ish va tadqiq qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi. Mashg'ulotlarda **“O'quv loyihasi”** metodidan foydalanish o'quvchi (talaba)larda rejalashtirish, qaror qabul qilish, faoliyatni amalga oshirish, ma'lumotlarni qayta tekshirish, mavjud ma'lumotlarga tayangan holda xulosa chiqarish, natijalarni baholash ko'nikmalarining shakllanishiga yordam beradi. **“O'quv loyihasi”** metodini qo'llashda o'quvchi (talaba)lar mavzu bo'yicha yangi loyihalarni yarata olishlari lozim. Loyihalarni yaratishda taklif etilgan jarayonning mohiyati qisqa, aniq fikr, belgi, tasvirlar yordamida ifodalanishi talab etiladi.

“O`quv loyihasi” metodining didaktik imkoniyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:



18-rasm. “O`quv loyihasi” metodining didaktik imkoniyatlari

Tushuncha	Tushuncha mazmuni
“Keys-stadi”	ingliz tilida “case” – metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish-degan ma`noni anglatadi.
“Keys-stadi” texnologiyasi	o`quvchi (talaba)larda aniq, real yoki sun`iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko`nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.
Loyiha	aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli.
Loyihalash	boshlang`ich ma`lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat
Ta`lim jarayonini loyihalash	alohida olingan ta`lim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasi (sxemasi)ni ishlab chiqish.
O`qitish va o`qish strategiyasi	belgilangan o`quv materiallarini talabalar ongiga yetkazish yo`llarini, ya`ni tanlangan ta`lim metodi, shakllarining amalda qo`llanilishini ko`zda tutadi.
Darsning turini tanlash	o`qituvchining mahoratiga ko`ra darsning didaktik maqsadi, o`quv materialining mazmuni, dars uchun

	ajratilgan vaqt, shuningdek, zarur shart-sharoitning tanlanilishini ifodalaydi.
Darsning texnologik xaritasi	dars ishlanmasining asosiy o'zagini tashkil etadi.
Dars ishlanmasi	bu ta'limiy mazmunga ega loyiha, shuningdek, o'qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo'lgan hujjat hisoblanadi
Texnologik pasport (pedagogikada)	ta'lim yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirning asosiy ko'rsatkichlari va ularning texnologik tavsifini yorituvchi hujjat.
Model	real, haqiqatda mavjud bo'lgan ob'ektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshagan nusxasi.
Modellashtirish	hodisa, jarayon yoki tizimning umumiy mohiyatini to'la yorituvchi modelni yaratish
O'quv loyihaviy faoliyat	o'quv maqsadiga erishish yoki muammo, muammoli vaziyatni hal qilish yo'lida talabalar tomonidan izchil amalga oshiriladigan harakatlari majmuasi sanaladi.
O'quv loyihasi	1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natija (echim)ni mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usuli; 2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni yechishga qaratilgan o'quv harakati vositasi; 3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta'lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik vosita hisoblanadi
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim	bu tabiiy tizim hisoblanib, o'quvchining noyob shaxsiy rivojlanishi, uning o'ziga hos qobiliyatlarini va psixologik yo'nalishlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:

1. O`Tolipov, D.Ro`ziyeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.- T.:Innovatsiyo-ziyo, 2019.
2. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metodik qo'llanma. Tuzuvchilar: D.Ro'zieva, M.Usmonboeva, Z.Holiqova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. – 136 bet.
3. Pedagogik texnologiyalar. –T.: “Fan va texnologiya”- 2011. / Metodik qo'llanma. Tuzuvchilar: Sh.S. Shodmonova, N.S.Mirsagatova, G.N.Ibragimova, T.N.Mirsoliyeva
4. Golish L.V. Texnologii obucheniya na lektsiyax i seminarax/ Uchebnoe posobie/ Pod obщ red. Akad. S.S. Gulyamova. - T.: TGEU, 2005.

5. O'. Tolipov, M. Usmonboeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. "Keys-stadi" qanday ma`noni anglatadi?
2. "Keys-stadi" texnologiyasi nima uchun xizmat qiladi?
3. "Keys-stadi" texnologiyasi nimaga o`rgatadi?
4. Shaxsga yo`naltirilgan ta`lim qanday holda shakllantiriladi?
5. Shaxsga yo`naltirilgan ta`lim texnologiyasi o`z ichiga qanday texnologiyalarni qamrab oladi?
6. Shaxsga yo`naltirilgan ta`lim texnologiyasiga qanday talablar qo`yiladi?
7. Shaxsga yo`naltirilgan ta`lim texnologiyasida pedagog qanday talablarga javob berishi kerak?
8. Hamkorlik texnologiyasi qanday amalga oshiradi?
9. Loyiha –qanday harakat mahsuli?
10. Loyihalash – qanday mazmunga ega?
11. Loyihalash qanday tizimiga asoslanadi?

TEST TOPSHIRIQLARI

::5.1-savol::

"Keys-stadi" ning ingliz tilidagi talqini qanday?

- {
- = "case" – metod, "study" – muammoli vaziyat# a`lo javob
- ~ "case" – usul, "study" – aniq vaziyat#qo`shimcha tahlil eting
- ~ "case" – vosita, "study" – noaniq vaziyat# qo`shimcha tahlil eting
- ~ "case" – asos, "study" – o`rganilgan vaziyat# qo`shimcha tahlil eting
- }

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2- adabiyotni 33-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::5.2-savol::

"Keys-stadi" qanday ma`noni anglatadi?

- {
- ~ aniq tahlil yoki aniq vaziyatlarni tahlil qilish# a`lo javob
- = vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish# yana bir urinib ko`ring
- ~ o`rganilgan tahlil yoki o`rganilgan vaziyatlarni tahlil qilish# yana bir urinib ko`ring
- ~ noaniq tahlil yoki noaniq vaziyatlarni tahlil qilish# yana bir urinib ko`ring
- }

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2 - adabiyotni 33-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::5.3-savol::

“Keys-stadi” texnologiyasining xizmati...

{

~ o’quvchi (talaba)larda noaniq, lekin real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko’nikmalarini shakllantiradi # harakat qildingiz

~ o’quvchi (talaba)larda aniq, real yoki sun’iy va tabiiy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko’nikmalarini shakllantiradi# harakat qildingiz

= o’quvchi (talaba)larda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko’nikmalarini shakllantiradi# maqbul javob

~ o’quvchi (talaba)larda noaniq va noreal yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko’nikmalarini shakllantiradi# harakat qildingiz

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2 - adabiyotni 33-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::5.4-savol::

O`quvchi (talaba)larni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o`rganish va tahlil qilishga o`rgatadigan texnologiya-bu...

{

= “Keys-stadi” #a`lo javob

~ “Hamkorlik” #harakatingiz bor

~ “Loyixa” #harakatingiz bor

~ “Axborot” #harakatingiz bor

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 33-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::5.5-savol::

“Keys-stadi” texnologiyasining negizida qanday elementlar yotadi?

{

~ har qanday muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi #harakatingiz bor

~ aniq vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi #harakatingiz bor

~ o`rganilayotgan real vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi #harakatingiz bor

= muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi #a`lo javob

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2 -adabiyotni 33-saxifani qayta ko`rib chiqin /

::5.6-savol::

Ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to'plash, ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o'qituvchi va o'quvchi (talaba) o'rtasidagi ta'limiy aloqaning usul va vositalari, o'quv natijalari – bular qaysi texnologiyaning negizidagi muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar?

{

- = “Keys-stadi” #a`lo javob
- ~ “Hamkorlik” #harakatingiz bor
- ~ “Loyixa” #harakatingiz bor
- ~ “Axborot” #harakatingiz bor

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2 -adabiyotni 33-saxifani qayta ko`rib chiqin /

::5.7-savol::

Ta'lim jarayonida “O`quv loyihasi” metodining xizmati qanday?

{

= o'quvchi (talaba)lar tomonidan individual, guruh yoki jamoa tarzida aniq belgilangan vaqt oralig'ida o'rganilayotgan mavzu bo'yicha axborotlarni yig'ish va tadqiq qilinishini ta'minlashga #a`lo javob

~ o'quvchi (talaba)lar tomonidan individual, guruh yoki jamoa tarzida aniq belgilanmagan vaqt oralig'ida o'rganilayotgan mavzu bo'yicha axborotlarni yig'ish va tadqiq qilinishini ta'minlashga#harakatingiz bor

~o'quvchi (talaba)lar tomonidan individual, guruh yoki jamoa tarzida aniq belgilangan vaqt oralig'ida o'rganilayotgan mavzu bo'yicha axborotlarni tarqatish va yig`ib olinishini ta'minlashga#harakatingiz bor

~ o'quvchi (talaba)lar tomonidan individual, guruh yoki jamoa tarzida qat`iy belgilanmagan vaqt oralig'ida o'rganilayotgan mavzu bo'yicha axborotlarni ulashish va amalda qo`llashni ta'minlashga#harakatingiz bor

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2 -adabiyotni 42-saxifani qayta ko`rib chiqin/

::5.8-savol::

Mashg'ulotlarda "O`quv loyihasi" metodidan foydalanish qanday ko'nikmalarini shakllanishiga yordam beradi?.

{

~o'quvchi (talaba)larda rejalashtirish, qaror qabul qilish, faoliyatni amalga oshirish, ma'lumotlarni qayta tekshirish, mavjud ma'lumotlarga tayangan holda xulosa chiqarish, natijalarni baholash va amalda qo'llash #harakatingiz bor

= o'quvchi (talaba)larda rejalashtirish, qaror qabul qilish, faoliyatni amalga oshirish, ma'lumotlarni qayta tekshirish, mavjud ma'lumotlarga tayangan holda xulosa chiqarish, natijalarni baholash #a`lo javob

~ o'quvchi (talaba)larda rejalashtirish, qaror qabul qilish va uni o'zgartirish, faoliyatni amalga oshirish, ma'lumotlarni qayta tekshirish, mavjud ma'lumotlarga tayangan holda xulosa chiqarish, natijalarni baholash #harakatingiz bor

~ o'quvchi (talaba)larda qaror qabul qilish, faoliyatni amalga oshirish va ishtirok etish, ma'lumotlarni qayta tekshirish, mavjud ma'lumotlarga tayangan holda xulosa chiqarish, natijalarni baholash #harakatingiz bor

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2 -adabiyotni 33-saxifani qayta ko`rib chiqin /

::5.9-savol::

"O`quv loyihasi" metodini qo'llashda o'quvchi (talaba)lar mavzu bo'yicha...

{

~ eski loyihalarni qayta tiklay olishlari lozim #harakatingiz bor

~ yangi va eski loyihalarni taqoslashlari lozim #harakatingiz bor

= yangi loyihalarni yarata olishlari lozim #a`lo javob

~ loyihalarni o`rganib olishlari lozim #harakatingiz bor

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2 -adabiyotni 42-saxifani qayta ko`rib chiqin /

::5.10-savol::

Ta`lim jarayonida o'quvchi (talaba)lar tomonidan individual, guruh yoki jamoa tarzida aniq belgilangan vaqt oralig'ida o'rganilayotgan mavzu bo'yicha axborotlarni yig'ish va tadqiq qilinishini ta'minlashga...

{

= "O`quv loyihasi" metodi xizmat qiladi #a`lo javob

~ "Keys-stadi" metodi xizmat qiladi #harakatingiz bor

~ "Hamkorlik" texnologiyasi xizmat qiladi #harakatingiz bor

~ "Axborot" texnologiyasi xizmat qiladi #harakatingiz bor

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 42-saxifani qayta ko`rib chiqin /.

::5.11-savol::

Mashg`ulotlarda o`quvchi (talaba)larda rejalashtirish, qaror qabul qilish, faoliyatni amalga oshirish, ma`lumotlarni qayta tekshirish, mavjud ma`lumotlarga tayangan holda xulosa chiqarish, natijalarni baholash ko`nikmalarini shakllanishiga yordam beradigan metod-bu...

{

~ “Keys-stadi” #harakatingiz bor

~ “Hamkorlik” #harakatingiz bor

= “O`quv loyihasi” #a`lo javob

~ “Axborot” #harakatingiz bor

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 42-saxifani qayta ko`rib chiqin /

::5.12-savol::

Qanday metod qo`llanilganda o`quvchi (talaba)lar mavzu bo`yicha yangi loyihalarni yarata oladilar?

{

~ “Keys-stadi” #harakatingiz bor

~ “Hamkorlik” #harakatingiz bor

= “O`quv loyihasi” #a`lo javob

~ “Axborot” #harakatingiz bor

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 42-saxifani qayta ko`rib chiqin /

::5.13-savol::

“O`quv loyihasi” metodining didaktik imkoniyatlari berilgan qatorni belgilang:

{

= O`quvchi (talaba)larda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi, rivojlantiradi, mavzularni mustaqil o`rganish ehtiyojini qaror toptiradi, hamkorlikda ishlash ko`nikmalarini shakllantiradi # a`lo javob

~ O`quvchi (talaba)larda aqliy qobiliyatini shakllantiradi, rivojlantiradi, mavzularni guruxiy o`rganish ehtiyojini qaror toptiradi, hamkorlikda ishlash ko`nikmalarini shakllantiradi # javobga yaqinlashdingiz

~ O`quvchi (talaba)larda ommaviy fikrlash qobiliyatini, mavzularni hamkorlikda o`rganish ehtiyojini qaror toptiradi, individual ishlash ko`nikmalarini shakllantiradi # javobga yaqinlashdingiz

~ O'quvchi (talaba)larda mustaqil fikrlash qobiliyatini, mavzularni mustaqil o'rganish ehtiyojini qaror toptiradi, mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi # javobga yaqinlashdingiz

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 42-saxifani qayta ko'rib chiqin /

::5.14-savol::

Qay vaqtda taklif etilgan jarayonning mohiyati qisqa, aniq fikr, belgi, tasvirlar yordamida ifodalanishi talab etiladi?

{

= Loyihalarni yaratishda #maqbul javob

~ Ishlanmalarni tayorlashda # javobga yaqinlashdingiz

~ Maqolalarni yozishda # javobga yaqinlashdingiz

~Tezislarni yoritishda # javobga yaqinlashdingiz

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 42-saxifani qayta ko'rib chiqin /

::5.15-savol::

Hamkorlik pedagogikasi qachon rivojlana boshladi?

{

= XXasrning 80-yillarida # a`lo javob

~ XIXasrning 70-yillarida # javobga yaqinlashdingiz

~XXasrning 60-yillarida # javobga yaqinlashdingiz

~XXasrning 90-yillarida# javobga yaqinlashdingiz

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 83-saxifani qayta ko'rib chiqin /

::5.16-savol::

“Hamkorlik pedagogikasi” texnologiya negizida kimlarning tajribasi yotadi?

{

~taniqli rus va arman pedagoglarining # javobga yaqinlashdingiz

= taniqli rus va chet el pedagoglarining# maqbul javob

~taniqli o`zbek va chet el pedagoglarining# javobga yaqinlashdingiz

~taniqli o`zbek va chex pedagoglarining # javobga yaqinlashdingiz

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 83-saxifani qayta ko'rib chiqin /

::5.17-savol::

K.D.Ushinskiy, N.I.Piragov, L.N.Tolstoy, V.A.Suxomlinskiy-bular...

{
=“Hamkorlik pedagogikasi” texnologiyasining taniqli rus pedagoglari # a`lo javob
~ “Erkin tarbiya” texnologiyasining taniqli rus pedagoglari # javobga yaqinlashdingiz
~ “Mualliflik pedagogikasi” texnologiyasining taniqli rus pedagoglari # javobga yaqinlashdingiz
~ “Hamkorlik pedagogikasi” texnologiyasining taniqli chex pedagoglari # javobga yaqinlashdingiz

}
/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3 -adabiyotni 83-84-saxifani qayta ko`rib chiqin /

::5.18-savol::

Hamkorlik pedagogikasi nechta yo`nalish bo`yicha amalga oshiriladi?

{
~2 ta asosiy# javobga yaqinlashdingiz
~3 ta asosiy# javobga yaqinlashdingiz
4 ta asosiy# a`lo javob
~5 ta asosiy# javobga yaqinlashdingiz
}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 84-saxifani qayta ko`rib chiqin /

::5.19-savol::

Shalva Aleksandrovich Amonashvili kim?

{
= taniqli pedagog olim, amaliyotchi va “Hamkorlik pedagogikasining” asoschisi # maqbul javob
~taniqli german amaliyotchisi va “Mualliflik pedagogikasining” asoschisi # yana bir urinib ko`ring
~taniqli pedagog olim, va “Erkin pedagogikasining” asoschisi # yana bir urinib ko`ring
~taniqli chex pedagog olim, amaliyotchi va “Hamkorlik pedagogikasining” asoschisi # yana bir urinib ko`ring
}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 84-saxifani qayta ko`rib chiqin /

::5.20-savol::

Shalva Aleksandrovich Amonashvili o`zining eksperimental maktabidaishlab chiqdi va hayotga tadbiiq etdi.

{

= hamkorlik pedagogikasini, shaxsiy yondashuvni, til va matematika o`qitishning ajoyib metodikasini #a`lo javob

~erkin tarbiya pedagogikasini, shaxsiy yondashuvni, til va matematika o`qitishning ajoyib metodikasini # yana bir urinib ko`ring

~hamkorlik pedagogikasini, shaxsiy yondashuvni, fizika va adabiyot o`qitishning ajoyib metodikasini # yana bir urinib ko`ring

~ erkin tarbiya pedagogikasini, shaxsiy yondashuvni, biologiya va anatomiya o`qitishning ajoyib metodikasini # yana bir urinib ko`ring


}


/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 3-adabiyotni 84-saxifani qayta ko`rib chiqin /

MUSTAQIL ISHLASH UCHUN TOPSHIRIQ

“Keys-stadi” va “Loyixa” tushunchalarining o`ziga xos jihatlarini «Venn» diagrammasidan foydalangan holda taqqoslang.

« VENN» DIAGRAMMASI”





Masalan, jadval ko`rinishida quyidagicha ifodalash mumkin:

Ta`lim metodlari	Ta`lim vositalari	
O`ziga xos (farqli) tomonlar	O`xshash (bir) xil tomonlar	O`ziga xos (farqli) tomonlar
<ul style="list-style-type: none"> - Ta`lim metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko`zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo`lgan vazifalarii amalga oshirishda qo`llaniladigan turli-tuman ish usullari va shakllarini o`z ichiga oladi. - Axborotlarni to`plash usul va vositalari. - Muayyan ta`lim-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatni amalga oshirish yo`li, usuli yoki ko`rinishidan iborat bo`lib shakllangan faoliyat shu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o`ziga xos ta`lim metodini hosil qiladi. - Bunda harakatni amalga oshirish yo`li deb bajarilishi talab 	<ul style="list-style-type: none"> - Ta`lim maqsadi va natijasini kafolatlaydi - Ta`lim jarayonida qo`llaniladi - Ta`lim samaradorligini oshiradi - Ta`lim oluvchining bilim doirasini kengaytirishga xizmat qiladi - Ta`lim beruvchining axborotlarni 	<ul style="list-style-type: none"> - ta`lim samaradorligini ta`minlovchi ob`ektiv (darslik, o`quv qo`llanmalari, o`quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va sub`ektiv (o`qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid

<p>qilinayotgan faoliyat uchun qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta yo'llardan oldindan ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo'lni aytiladi.</p> <p>- Masalan, savod o'rgatish yo'llari: oilada o'rgatish, maktabda o'rgatish, maktabgacha ta'lim muassasasida o'rgatish, o'qituvchi yordamida o'rgatish.. Shunga o'xshash sanoqni, arifmetik amallarni o'rgatishda ham yuqoridagiga o'xshash yo'llardan foydalanish mumkin. Shu yo'llardan foydalanib harakatni amalga oshirishda har turli metodlarni qo'llaniladi.</p> <p>-Ta'lim metodi – o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli. Belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan usullari majmuasidir.</p>	<p>to'g'ridan to'g'ri yetkazishiga ko'maklashadi</p>	<p>misollar va hokazolar) omillar.</p> <p>- Axborotlarni ilmiy tahlil qilish usul va vositalari</p> <p>- kitoblar, kompyuter, ko'rgazma qurollar va boshqalar vositasida o'rgatish</p>
--	---	--

O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH VA SAMARALI BOSHQARISH ASOSIDAGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA. TARBIYA JARAYONINI TEXNOLOGIYALASHTIRISH

Reja:

1. **Tabaqalashtirilgan va individual ta'lim texnologiyasi**
2. **Axborot texnologiyalari va ta'limning jamoaviy hamda guruxiy texnologiyasi**
3. **Insonparvarlik pedagogikasi. Tarbiya san'ati va tenologiyasi. Yaxlit yondashuv va tarbiyaviy ish**

Tayanch tushunchalar: o'qitishni tabaqalashtirish, o'qitishni individuallashtirish, dars, vosita, individuallik, model, metodika, leksiya (ma'ruza), axborotli malaka, tarbiya

Tabaqalashtirilgan va individual ta'lim texnologiyasi

G.K.Selevko tadqiqotlarida o'qitishni tabaqalashtirish o'quv jarayonini tashkil etish shakli sifatida izohlanadi, o'zida bilim darajasi bir xil bo'lgan, u yoki bu jihatdan o'quv jarayonida umumiy sifatlarga ega bo'lgan o'quvchilar guruhi bilan o'qituvchi ishlaydi. O'qitishni tabaqalashtirish o'quv jarayonidagi ta'lim oluvchilarning turli guruhlarini ixtisoslashtirilishini ta'minlaydigan umumiy didaktikaning bir qismi sifatida ham belgilanadi.

O'qitish tizimining qurama texnologiyasining muallifi N.P.Guzik.

«O'qitish tizimining qurama texnologiyasi» saviyasiga va darslarda mavzu bo'yicha davriylikni rivojlantirishga ko'ra sinf ichidagi o'qitishning tabaqalashtirilishi deb qaraladi. Darslar har bir mavzu bo'yicha ketma ket joylashgan besh tipdan iborat bo'ladi:

- 1) mavzuni umumiy tahlil qiluvchi darslar (ular leksiyalar deb yuritiladi);
- 2) ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlari jarayonida o'quv materialining chuqurlashtirib ishlab chiqishini ko'zda tutgan, tuzilgan seminar mashg'ulotlari (bunday darslar uchtdan beshtagacha bo'lishi mumkin);
- 3) bilimlarni umumlashtirish va tartibga tushirish (guruhlash) darslari (mavzular bo'yicha sinovlar);
- 4) fanlararo materiallarni umumlashtirish (mavzular bo'yicha vazifalarni himoya qilish);
- 5) dars-praktikumlar.

Keyingi bosqichda o'qituvchi o'quvchilarning saviyalariga ko'ra tabaqalashtirish ishlarini tashkil etadi. Bu ish yangi materialni berish, uni mustahkamlash va takrorlash, bilim, malaka va ko'nikmalarni nazorat qilish orqali amalga oshiriladi.

Bu texnologiyada uchta tabaqalashtirishning turli darajadagi qiyinchiliklari: «A», «V», «S» dasturlari ajralib turadi.

Dasturlar quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- muayyan darajadagi bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashni ta'minlaydi;
 - ta'lim oluvchilarning ma'lum darajadagi mustaqilligini ta'minlaydi;
- «S» dasturi tayanch standart sifatida qayd qilinadi. Uni bajarish orqali ta'lim oluvchilar fan bo'yicha o'quv materialini, uni qayta tiklay olish darajasida o'zlashtiradilar. «S» dasturi vazifalarini nisbatan qiyin dasturga o'tmasdan oldin har bir o'quvchi bajara olishi lozim.

«V» dasturi mavzuni qo'llash bilan bog'liq masalalarni yechish uchun zarur bo'lgan o'quv va aqliy faoliyatining umumiy va o'ziga xos usullari bilan birga egallashni ta'minlaydi. Ushbu dasturga kiritiladigan qo'shimcha ma'lumotlar birinchi bosqich materiallarini kengaytiradi, asosiy bilimlarni isbotlaydi, namoyish etadi va oydinlashtiradi hamda tushunchalarning amal qilish va qo'llanishini ko'rsatib turadi.

«A» dasturi o'quvchilarning bilimlarini to'la anglash, ijodiy qo'llash darajasiga ko'taradi. Bu dasturda ijodiy qo'llash istiqboli tobora takomillashib boruvchi ma'lumotlar, chuqurlashtiriladigan materiallar, hamda uning mantiqiy asoslanganligi joylashtirilgan.

Tabaqalashtirilgan ta'limda materiallarni takrorlashda turli darajadagi vazifalarni erkin tiklash metodikasi qo'llanadi.

Tabaqalashtirilgan vazifalarni nazorat qilishda individuallikka o'tiladi va u chuqurlashtiriladi.

Inge Unt, A.S. Graniskaya, V.D. Shadrikov tadqiqotlarida individual o'qitish o'quv jarayonini tashkil etish shakli, modeli sifatida belgilanadi.

Unda:

- pedagog faqat birgina talaba bilan o'zaro munosabatda bo'ladi;
- bir talaba faqat o'qitish vositalari (kitoblar, komyuter va b.) bilan o'zaro aloqada bo'ladi.

Individual o'qitishda faoliyatning mazmuni, metodlari va surati talabaning xususiyatlariga moslashtiriladi.

Shaxsiy yondoshish deganda:

- pedagogikaning tamoyili bo'lib, unga ko'ra pedagog o'quv— tarbiya ishlari jarayonida talabalarning shaxsiy xislatlarini hisobga olgan holda ayrim talabalar bilan individual model bo'yicha o'zaro munosabatda bo'lish hamda individual xususiyatlarga asoslanish;

- o'quv jarayonida talabalarning individual xususiyatini hisobga olish;
- barcha talabalarning rivojlanishigina emas, balki har bir talabaga alohida rivojlanish uchun psixologik—pedagogik tadbirlar yaratish tushuniladi.

O'qitishni individuallashtirish;

- o'quv jarayonini tashkil etish bo'lib, unda o'qitish usullari, sur'atini tanlash talabaning individual xususiyatlari bilan boglanadi;

- individual yondashuvni ta'minlovchi turli o'quv-metodik, psixologik-pedagogik va tashkiliy-ma'muriy tadbirlardir.

Shunday qilib, didaktika bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko'ra o'qitishni individuallashtirish o'quv jarayonining shunday tashkil qilinishiki, unda individual yondashuv va individual shakl ustuvor hisoblanadi.

O'qitishni individuallashtirish quyidagi mualliflik texnologiyalarida asoslab berildi:

- Inge Untning o'qitishni individuallashtirish texnologiyasi;

- A.S. Granskayaning moslashuvchan oqitish texnologiyasi;
- V.D. Shadrikovning individuallikka qaratilgan reja asosida oqitish texnologiyasi.

Inge Untning o'qitishni individuallashtirish texnologiyasidagi asosiy konsepsiya hozirgi sharoitda o'qitishni individuallashtirishning muhim shakli o'quvchilarning maktabdagi va uydagi mustaqil ishlari deb qoidalashtirilgan. Inge Unt uning mazmuni va metodikasi deb mustaqil ishlar uchun individual o'quv vazifalari, joriy o'quv adabiyotiga moslashtirilgan, individuallashtirilgan mustaqil ishlar qo'llanmasi asosida nashr etilgan ish daftarlarini tushunadi.

A.S.Graniskaya o'zining moslashuvchan o'qitish tizimini sinf-dars tizimida tashkil etish va unda o'qituvchi 60-80% vaqtini o'quvchilar bilan individual ishlashga ajratish mumkinligini qayd qiladi. A.S.Graniskaya metodikasining o'ziga xosligi uning darsni muayyan g'ayriodatiy qurilma asosida tashkil etishidir:

- Birinchi qism — barchani o'qitish;
- Ikkinchi qism — ikki parallel jarayon: oluvchilarning mustaqil ishlari va o'qituvchining ayrim o'quvchilar bilan individual ishlashi, ya'ni umumlashtirilgan sxemalardan foydalanish, almashinib turuvchijuft o'qituvchi bo'lib ishlash, moslashuvchan ko'p qirrali vazifalar va b.

V.D.Shadrikov gipotezasiga ko'ra agar bolaga murakkablashib boruvchi vazifalarning tafsiloti berilsa, unga o'rganish jarayonini motivatsiyalash taklif etilsa, lekin bolaga shu bugun uning uchun mumkin va qulay ishlash imkoniyati qoldirilsa, o'quvchilar qobiliyati samarali rivojlanadi deb hisoblanadi. V.D.Shadrikov metodikasi asosini har bir o'quvchining qobiliyatiga qarab o'qitishga imkon beradigan olti darajadagi o'quv rejasi, dastur va metodik qo'llanma tashkil etadi. Har bir fanning murakkablik darajasiga ko'ra kuchi yetgan variantni tanlab olib, o'quvchilar sinfda tez-tez almashib turadi va fanning hajmi va mazmunini qo'ldan chiqarmay birgalikda o'quv dasturini o'zlashtirishga harakat qiladilar. Murakkablik darajasini tanlash teziikda amalga oshiriladi va «ba'zan» uni amalga oshirib bo'lmaydi. Chunki u sinfdagi o'quvchilarning tenglashish, qobiliyati holatiga bog'liq bo'ladi.

Murakkablikning olti darajasi amalda barcha bolalarga e'tibor berishga, barchaning kuchi yetadigan hamda o'quvchining qobiliyatiga, uning rivojlanishiga moslangan, o'quv jarayonini tashkil etishga imkon beradi.

Bu o'qitishni individuallashtirish mualliflik texnologiyasi negizida umumiy tamoyillar mavjud:

- individuallashtirish oqitish jarayoni strategiyasidir;
- individuallashtirish—individuallikni shakllantirishning zaruriy omili;
- barcha o'rganiladigan fanlarda individuallashtirilgan o'qitishdan foydalanishning mumkinligi;

- individual ishlarni o`quv faoliyatining boshqa shakllari bilan integrasiyalash;

- individual suratda, uslubda o'rganish.

Individuallashtirish texnologiyasining umumiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- o'zlashtira olmaslikka olib keluvchi omillarni qayd qilish;

- fikrlash jarayonida bilim, malaka, ko'nikmalarni egallash asnosida individual kamchiliklarni tuzata olish usullari;

- oila tarbiyasidagi motivatsiyaning bo'linmasligi hamda iroda sustligi kamchiliklarini qayd qilish va yenga olish;

- qobiliyatli va iste'dodli o'quvchilarga nisbatan o'quv jarayonini optimallashtirish (ijodiy faoliyat, sinf va sinfdan tashqari ishlarni hisobga olish);

- o'qitish jarayonini tanlash erkinligini berish;

- umumiy o'quv malakalari va ko'nikmalarini shakllantirish;

- o'quvchilarning o'z-o'ziga mos baholarni olishini shakllantirish;

- o'qitishning texnik vositalaridan, shuningdek, EHMdan foydalanish.

O'qitishni individuallashtirish texnologiyasiga quyidagilar kiradi:

Batov tizimi AQShda ishlab chiqilgan bo'lib, u o'quv jarayoni ikki qismga bo'linadi:

Birinchi qism- butunicha sinf ishi.

Ikkinchi qism- individual mashg'ulotlar.

Bunday mashg'ulotlar unga zaruriyat sezgan o'quvchilar bilan yo umum tomonidan qabul qilingan me'yorlardan orqada qolmaslik yoki nisbatan rivojlangan qobiliyatlari bilan ajralib turganlar bilan bir qatorda bo'lishini ta'minlash maqsadida o'tkaziladi.

Yuqori qobiliyatli kategoriya o'quvchilar bilan o'qituvchi, nisbatan kamroq qobiliyatli va qo'lg'och o'quvchilar bilan o'qituvchi yordamchisi shug'ullanadi.

Tramp rejasi - bu texnologiya AQShda juda mashhur. Bu o'qitish shakllarining shunday tizimiki, unda katta auditoriyadagi mashg'ulotlar kichik guruhlardagi individual mashg'ulotlar bilan qo'shib olib boriladi.

Tramp rejasiga ko'ra zamonaviy texnik vositalar yordamida 100-150 kishidan iborat katta guruhlarda yuksak malakali o'qituvchilar, professorlar leksiya o'qiydilar. 10 - 15 kishidan iborat kichik guruhlar esa leksiya materiallarini muhokama qiladilar, bahs yuritadilar.

Individual ishlar esa maktab kabinetlarida, laboratoriyalarida o'tkaziladi. Leksiya mashg'ulotlariga 40%, kichik guruhlardagi mashg'ulotlarga 20%, kabinet va laboratoriyalardagi individual ishlarga esa 40% ajratiladi. Odatdagi sinf tushunchasi yo'q, kichik guruhlar ham doimiy emas.

O`quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish sohasidagi pedagogik texnologiya:

1. O`qitishni tabaqalashtirish texnologiyasi
2. O`qitish tizimining qurama texnologiyasi
3. Individual o`qitish texnologiyasi
4. Shaxsga yo`naltirilgan ta`lim texnologiyasi
5. Hamkorlik ta`lim texnologiyasi

Axborot texnologiyalari va ta`limning jamoaviy hamda guruh texnologiyasi

Axborot texnologiyalari ma'lumotlarni boshqarish va qayta ishlash texnologiyalaridir. Odatda bu atama ostida kompyuter texnologiyalari tushuniladi. Axborot texnologiyalari sohasida turli axborotni EHM va kompyuter tarmoqlari orqali yig`ish, saqlash, himoyalash, qayta ishlash, uzatish kabi amallar ustida ishlar olib boriladi.

Axborot texnologiyasi asosiy texnik vositalari sifatida hisoblash- tashkiliy texnikadan tashqari aloqa vositalari – telefon, teletayp, telefaks va boshqalar qo`llaniladi.

Axborot texnologiyasi insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo`lgan bo`lsa-da, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o`ziga xos xususiyati shundaki, sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch energiya, hom ashyo, materiallar va moddiy iste`mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ustunlik qilmoqda, ya`ni axborot texnologiyalari mavjud yangi texnologiyalar orasida yetakchi o`rinni egallamoqda.

Axborot texnologiyalari industriyasi majmuini kompyuter, aloqa tizimi, ma'lumotlar ombori, bilimlar ombori va u bilan bog`liq faoliyat soxalari tashkil qiladi.

Bugungi kunda axborot texnologiyasini shartli ravishda **saqlovchi, ratsionallashtiruvchi, yaratuvchi** turlarga ajratish mumkin. Birinchi turdagi texnologiyalar mehnatni, moddiy resurslarni, vaqtni tejaydi. Ratsionallashtiruvchi axborot texnologiyalariga chiptalar buyurtma qilish, mexmonxona xisob-kitoblari tizimlari misol bo`ladi.

Yaratuvchi (ijodiy) axborot texnologiyalari axborotni ishlab chiqaradigan, undan oydalanadigan va insonni tarkibiy qism sifatida o`z ichiga oladigan tizimlardan iborat.

Axborot texnologiyalarining hozirgi zamon taraqqiyoti hamda yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha soxalarini axborotlashtirish zarurligini ko`rsatmoqda.

Jamiyatni axborotlashtirish deganda, axborotdan iqtisodni rivojlantirish, mamlakat fan-texnika taraqqiyotini, jamiyatni demokratlashtirish va

intellektuallashtirish jarayonlarini jadallashtirishni ta'minlaydigan jamiyat boyligi sifatida foydalanish tushuniladi.

Darxaqiqat, jamiyatni axborotlashtirish—inson hayotining barcha jabxalarida intellektual faoliyatning rolini oshirish bilan bogliq ob'ektiv jarayon xisoblanadi.

Jamiyatni axborotlashtirish respublikamiz xalqi turmush darajasining yaxshilanishiga, ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilishiga, iqtisodning o'sishi hamda fan-texnika taraqqiyotining jadallashishiga xizmat qiladi.

Jamiyatni axborotlashtirish jarayonini 5 asosiy yo'nalishga ajratish mumkin:

- Mehnat, texnologik va ishlab chiqarish jarayoni vositalarini kompleks avtomatlashtirish.
- Ilmiy tadqiqotlar, loyixalash va ishlab chiqarish axborotlashtirish.
- Tashkiliy- iqtisodiy boshqarishni avtomatlashtirish.
- Axoliga xizmat ko'rsatish soxasini axborotlashtirish.
- Talim va kadrlar tayorlash jarayonini axborotlashtirish.

Bilim olishda, ya'ni ma'lum turdagi axborotlarni o'zlashtirishda kompyuter tizimining yordami benixoya kattadir. Axborot qanday ko'rinishda ifodalanishidan qat'i nazar, uni yigish, saqlash, qayta ishlash va foydalanishda kompyuter texnikasining rolini quyidagilar belgilaydi:

Birinchidan, o'qitishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish standart (an'anaviy) tizimga nisbatan o'quv jarayonini jadallashtirib, talabada ilmga qiziqishni oshiradi, ular ijodiy faoliyatini o'stiradi, bilim berishga differentsial yondashish, olingan bilimlarni takrorlash, mustaxkamlash va nazorat qilishni yengillashtiradi, talabani o'quv jarayonining sub'ektiga aylantiradi.

Ikkinchidan, yangi axborot texnologiyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagi shakllarda foydalanish mumkin bo'ladi:

- muayyan pedmetlarni o'qitishda kompyuter darslari;
- kompyuter darslari—ko'rgazmali material sifatida;
- talabalarning guruxli va frontal ishlarini tashkillashtirishda;
- talabalarning ilmiy izlanishlarini tashkillashtirishda;
- talabalarning o'qishdan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilish masalalarini xal etishda va x.k.

Mehnat samaradorligining bundan keyingi o'sishi va faravonlik darajasini ko'tarish katta xajmdagi multimediya axborotini (matn, grafika, video tasvir, tovush, animatsiya) qabul qilish ishlashga yangi intellektual vositalar va inson mashina interfeyslardan foydalanish asosidagina yerishish mumkin.

Informatikada mehnat unumdorligini oshirish suratlari yetarli bo'lmasa, butun xalq xo'jaligida samaradorligini o'sishi anchagina kamayish ro'y berishi mumkin.

Hozirgi dunyodagi barcha ish joylarining 50 foizi ga yaqin axborotni qayta ishlash vositalari bilan ta'minlangan..

Jamiyatni axborotlashtirish, yangi axborot texnologiyalari bilan ta'minlash insonlarning turli – tuman ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishda muxim o'rin tutadi.

Bugungi kunda ijtimoiy turli ko'rinishdagi axborotlar majmuasi keng va rivojlangan bo'lib, uning jamiyatda tutgan o'rni bexisobdir.

Oxirgi davrda axborotli muxitda katta o'zgarishlar bo'lib bormoqda. Ana shu o'zgarishlar qog'ozsiz texnologiya zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu yesa o'z navbatida, EXM ning yanada keng rivojlanishiga sabab bo'ladi. Axborotli muxitning kelajakda inson hayotida o'rni va ahamiyati, bugungi holatdan ancha yuqori bo'lishi uchun bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar ko'llamini kegaytirish talab etiladi..

Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish

Bu yondoshuvda kichik guruhlar 4 ta o'quvchidan tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O'quvchilarga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o'quvchi o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.

O'quvchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi

Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi 1976 yili Tel-Aviv universiteti professori SH.Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda ko'proq o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e'tibor qaratiladi.

O'quvchilar alohida-alohida yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o'rganish lozim bo'lgan o'quv materialini kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir o'quvchiga taqsimlanadi. Shunday qilib, har bir o'quvchi umumiy topshiriqning bajarilishiga o'z xissasini qo'shadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o'tkaziladi. Guruh a'zolari birgalikda ma'ruza tayyorlaydi va sinf o'quvchilari o'rtasida o'z ijodiy izlanishlari natijasini e'lon qiladi. Kichik guruhlar o'rtasida o'tkazilgan o'quv bahsi, munozara o'quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni sanaladi. Hamkorlikda ishlash natijasida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasining har bir o'quvchining muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarini, umuman sinf jamoasini jipslashtirishga, avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llanib, yangi bilimlarning o'zlashtirishiga bog'liq bo'ladi.

Guruhli o`quvni tashkil etishda o`quvchilar faoliyati guruh-guruhlarga bo`linib olib boriladi. Interfaol ta`limda o`quv-biluv faoliyatni guruhlarda tashkil etishning o`ziga xosliklari mavjud. Bu shaklda sinfdagi o`quvchilar guruhlarga bo`linib, har bir guruhga aniq, alohida vazifalar beriladi. Har bir guruh alohida (ya`ni bir xil yoki tabaqalashgan) topshiriqlar ustida ishlaydi. Topshiriq o`zaro muloqotga asoslanadi yoki biror yetakchi rahbarligida tashkil etiladi. Guruhlarda topshiriq shunday amalga oshiriladiki, mashg`ulot yakunida har bir ishtirokchi yoki guruh a`zosining qanchalik hissa qo`shganligi hisobga olinadi. Guruhlar tarkibi doimiy bo`lmasligi mumkin, ular shunday tartibda shakllantiriladiki, topshiriqni bajarishda har bir guruh a`zosiga o`zining maksimal hissasini qo`shish imkoniyati, muhiti yaratiladi. Guruhlar turli kattalikda shakllantirilishi mumkin. Odatda guruhlarda 4-6 nafar a`zo ishtirok etadi. Uning tarkibiga beriladigan topshiriqlarning mazmuni va xarakteriga qarab o`zgartirishlar kiritilishi mumkin. Guruhni shunday shakllantirish kerakki, har bir guruh tarkibida mustaqil ishlash ko`nikmalariga ega bo`lgan o`quvchilarning bo`lishi kutilgan natijalar beradi. Guruhli o`quv-biluv ishlarini tashkil etishda ayrim o`quvchilarning individual yordamga muhtojliklari seziladi. Shunday vaziyatlarda o`qituvchi tayyorgarlik darajasi yuqori bo`lmagan o`quvchilarga yordam berib borishi maqsadga muvoffiq. Guruhli o`quv-biluv faoliyati laboratoriya ishlari, amaliy mashg`ulotlar, tabiiy fanlardan tashkil etilgan amaliyot, nutq o`stirish mashg`ulotlari (dialog) matnlarni o`zlashtirish, tarixiy materiallarni o`rganish va mehnat darslarida juda qo`l keladi. Bu holatlarda guruhlarda o`zaro muloqot o`rnatish, mustaqil ishlash yaxshi natija beradi. Guruhli o`quv-biluv faoliyati yana o`quv-mavzuviy konferensiyalar, munozara, mushoira, debat, savol-javob, ma`lum mavzudagi kichik ma`ruzalar, qo`shimcha mashg`ulotlar, o`quv dasturlaridan tashqari mavzularni o`rganishda ham juda qo`l keladi. Bunday o`quv-biluv faoliyatida guruh a`zolari juda faollik ko`rsatadilar, o`z fikr, pozitsiyalarini himoya qilish ko`nikmalari shakllanadi. Guruhdagi hamkorlikda, kuchli o`quvchilar kuchsiz o`quvchiga yordam berish bilan ularni qo`llab quvvatlaydi, guruhda ham ijodkorlik vujudga keladi. Guruhli o`quv-biluv faoliyatini tashkil etishda guruh a`zolari orasida vazifalar aniq taqsimlansa, o`zaro hamkorlik to`g`ri yo`lga qo`yilsa, samarali natijalar beradi. O`quvchilarning o`quv-biluv faoliyatini guruhli tashkil etishda quyidagi elementlar hisobga olinmog`i zarur:

- O`quvchilarni guruhlarda ishlashga tayyorlash, o`quv topshiriqlarini aniq qo`yish, guruhda ishlash bo`yicha tushuncha berish, reglament o`rnatish.
- O`quv topshiriqlarini bajarish bo`yicha reja tuzish, uni muhokama etish. Uni hal etish yo`llarini aniqlash va ishni olib borish bo`yicha o`zaro vazifalarni taqsimlash.
- O`quv topshiriqlarini bajarish bo`yicha ishni tashkil eta olish.

Guruhdagi ishni tashkil etishda ish jarayoni va a`zolar ish jarayonini kuzatish va zarur hollarda yordamga kelish. Guruhda topshiriqlarni bajarish jarayonida o`zaro

tekshiruv va nazorat olib borishni yo`lga qo`yish. Guruhlarda topshiriqlarni bajarish natijalari bo`yicha axborot berish, sinfda munozaralar o`tkazish, ish jarayonining borishiga qo`shimcha va tuzatishlar kiritib borish. O`qituvchi tomonidan ishning natijalari bo`yicha xulosalar chiqarish va yakun yasash. Har bir guruhning ish natijalariga, sinf ishiga tahliliy baholar berish. Guruh ishining muvaffaqiyatli chiqishi o`qituvchining o`quv faoliyatini tashkil eta olish harakati, mahoratiga bog`liq. Ya`ni o`qituvchi guruhda ishtirok etayotgan har bir o`quvchining shaxsiy faoliyatini tashkil eta olishi, har bir o`quvchi o`qituvchi ko`magini olishi ishning borishi bilan pirovard natijani muvaffaqiyatli ko`rsata olishiga bog`liq. Guruhlar ishini o`quv biluv jarayonida tashkil etishda bir kator kamchiliklar sodir bo`lishi mumkin. Qiyinchiliklardan biri guruhlarni to`g`ri, maqsadli shakllantira olish va unda ishni tashkil eta olishdir. Guruhlarda ishlash jarayonida o`quvchilar ayrim qiyin topshiriqlar yechimini mustaqil yechishga qiynaladilar. Shu sababli guruhlarda ishni tashkil qilishda umumiy ishni tashkil etish bilan bir vaqtda individual ishlarni ham tashkil etishga to`g`ri keladi. Bunday hollarda ko`pincha yaxshi natijalarga erishish mumkin. Umuman o`quv predmetlari bo`yicha beriladigan topshiriqlarning qiyinchilik darajasiga qarab guruhda ijodiy muhit yaratiladi. Guruhlarda ishlash davrida o`qituvchi, o`quvchi-o`quvchi orasida o`zaro hamkorlik, o`zaro yordam muhiti o`rnatilsa, guruhlar ishi kutilgan natijalarni beradi.

Insonparvarlik pedagogikasi.

“Insonparvarlik pedagogika”si zamonaviy tarbiya nazariyasi va amaliyotida XX asrning 50-yillari oxiri – 60-yillarining boshlarida AQSHda paydo bo`lgan yo`nalish. Insonparvarlik pedagogikasining falsafiy-g`oyaviy yo`nalganligi pedosentrizm g`oyalariga yaqin. “Detosentrizm, pedosentrizm – tarbiyaviy konsepsiya bo`lib, oilaning qiziqishlari faqat bolaga qaratiladi. Detosentrizm ko`proq bir bolali va to`liqsiz oilalar uchun xos”. Insonparvarlik pedagogikasida tarbiyaning bosh maqsadi shaxsning o`z-o`zini aktuallashtirishidir. Insonparvarlik pedagogikasi esa yangicha tarbiyalash va “progressivizm” pedosentrizmi g`oyalariga yaqinroq. Pedagogdan u bolani qanday bo`lsa, shundayligicha qabul qilishni, uning sezgisi va ehtiyojlarini his etishni talab etadi. AQSHda u boshlang`ich, o`rta va oily maktabda o`quv kurslarining mazmuniga va qurilishiga ta`sir ko`rsatadi. “Insonparvarlik psixologiyasi” XXasrning 50-yillarida AQSHda bixeviorizm va freydizmga qarshi yuzaga kelgan hamda uning asosida tarbiyalanuvchining shaxsiy manfaatlarini birinchi o`ringa qo`yish yotadi. Xususan, bu qarash vakillari tasodifan yuzaga keladigan kichik guruhlardagi mashg`ulotlarni afzal biladilar. Insonparvarlik ta`limotining asoschilaridan biri Karl Rodjersdir. O`zining pedagogik qarashlarini K.Rodjersinson xulqidagi o`zgarishlar asosi

sifatidagi uning qobiliyatlari shaxsiy tajribalarga tayangan holda o'sadi, rivojlanadi va o'rgatiladi, deb ta'kidlangan "Freedom to learn for the 80's" kitobida bayon etgan. Kimnidir o'zgartirish, unga tayyor tajribani uzatish kerak emas. Faqat uning rivojlanishiga imkon beruvchi muhitni yaratish mumkin. K.Rodjers bunday muhitni yaratishni "qulaylashtirish" (ingl. facilitate) deb ataydi.

Bugungi kunda butun dunyoda qulay muhitni yaratuvchi o'qituvchilarni fasilitator deb atashadi. Bunday muhitni yaratish shart-sharoiti tarbiyachining bilimi va intellektiga bog'liq bo'lmaydi. Undan faqat tarbiyalanuvchini nimani yaxshi ko'rishi, nimaga qiziqishi, nima bilan shug'ullanishini aniq belgilay olish talab etiladi. Fasilitatorning muhim hissiyoti sifatida K.Rodjer sempatiya, tarbiyalanuvchi shaxsiga ijobiy baho berish, fasilitatorning tarbiyalanuvchiga muvofiqligini kiritadi. Faqat ana shunday sharoitda shaxs o'z xulq-atvorini o'zgartirish haqida qaror qabul qilishi mumkin. K.Rodjers an'anaviy pedagogikaning quyidagi qoidalaridan qoniqish hosil qilmaydi:

1. O'qituvchi bilimlarni bayon etadi, o'quvchilar ularni o'zlashtirishga harakat qiladi.
2. Dars va imtihonlar – ta'limning asosiy tarkibiy qismlari. Dars bilimlarni shakllantirish shakli, imtihon esa egallangan bilimlarning darajasini aniqlaydi.
3. O'qituvchi boshqaruvchi, ta'lim oluvchilar esa unga bo'ysunuvchilar sifatida aks etadi.

Bu bilan bog'liqlikda K. Rodjers ta'limning ikki turini ajratib ko'rsatadi: oddiy bilimlar, faktlar bilan qurollantiradigan axboriy va ta'lim oluvchilarga ularning o'z-o'zini o'zgartirishi va o'z-o'zini rivojlantirishi uchun zaruriy, haqiqiy bilimlar beruvchi ahamiyatli ta'lim.

Insonni shaxs sifatida shakllantiruvchi ta'lim shaxsga yo'naltirilgan yoki K.Rodjers fikricha, ahamiyatli ta'limdir. O'qituvchi o'z faoliyatida o'quvchilarining o'z-o'zini to'la namoyon eta olishiga tayanishi zarur. "Uning o'qitishi o'quvchilar katta qiziqish bilan hal etadigan, har doim ham o'zi mustaqil murakkab vaziyatlardan chiqish yo'lini topa olmaydigan, o'qituvchining yordamiga tayanadigan va ijod qilishga takrorlanmas istakni hosil qiladigan hayotiy muammolar bilan o'zaro harakatga kirishishi asosiga qurilishi kerak. O'qituvchining roli o'quvchilar bilan shunday shaxsiy o'zaro munosabatlarni va yuqorida tilga olingan tendensiyalarni namoyon bo'lishiga imkon beruvchi psixologik muhit tashkil etishda o'z aksini topadi". K.Rodjersning fikricha, insonni konsentrlaydigan ta'limning natijalarini ta'lim muassasasidagi baholar bilan baholash mumkin bo'lmaydi. Uning mezonlari egallangan bilimlarning miqdor va hatto sifat ko'rsatkichlarida emas, aksincha bu o'zgarishlar shaxsda, uning o'sishi va rivojlanishida aks etadi. Ularga quyidagi turdagi o'zgarishlar kiradi:

- inson o'zini to'la idrok eta boshlaydi;

- u ko'proq o'zini va o'z tuyg'ularini qabul qiladi;
- ko'proq o'ziga ishonch va avtonomen shakllanadi;
- o'z oldiga real maqsadlar qo'yadi, o'zida komillikni ko'radi;
- unda insoniy qiyofa shakllanadi;
- boshqa odamlarni qabul qilish va tushunish boshlanadi.

Har qanday pedagogika ma'lum aniq tarixiy sharoitlarda shakllanadi. Shu sababli u haqdagi mulohazalar, unga abstrakt (mavhum) insonparvarlik nuqtai nazardan yoki boshqa davr mezonlari nuqtai nazaridan qarash uni "insonparvar" kabi "insonparvar bo'lmagan" sifatida ham baholashni yuzaga keltirishi mumkin. Pedagogikaning ilmiyligi, demak, uning insoniyligi ham unga xos bo'lgan bola shaxsi mohiyatini tushunish, uni rivojlantirish vositalarini maqsadga muvofiq izlash darajasi bilan belgilanadi. Hamma davrlarda ham pedagogika inson va jamiyatning ilg'or rivojlanish talablariga mos kelishga intilgan. Odamlar o'rtasidagi munosabatlarga, bolalarga ta'sir etish va ular bilan o'zaro aloqalarda insonga qarshi vositalar, usullar va metodlar mavjudligi butunlay boshqa tushunchalarni ifoda etadi. Buni pedagogika emas, balki bolalarni to'la itoatkorlik yoki vaxshiylashish holatiga kiritish borasida mas'uliyatni bilmaydigan, odamiylikka zid tizim deb atash mumkin.

Aytib o'tilganlarning barchasi pedagogikaning insonparvarligi yoki insonparvarlikka zidlik muammosining ahamiyati va qarama-qarshiliklarini aniqlab olish uchun ilm ahlinini qiziqtiradigan bir qator masalalarni ob'ektiv aniqlab olishga majbur etadi. "Insonparvarlik" tushunchasi mohiyatini, uning turlari va ilmiy pedagogika bilan munosabatlarini qanday talqin qilish kerak? "Falsafa qomusiy lug'at"da insonparvarlik "Odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishga g'amxo'rlik qilish g'oyalari bilan sug'orilgan dunyoqarash" sifatida qaraladi. "Pedagogik ensiklopedik lug'at"da esa, insonparvarlik shaxs sifatida inson, uning erkin rivojlanishi va o'z qobiliyatlarini namoyon eta olishini qadriyat sifatida qabul qilish ekanligi uqtiriladi. Keng ma'noda insonparvarlik – insonni shaxs sifatida qadriyat deb belgilaydigan, uning erkinlik, baxtga bo'lgan huquqi, o'zining qobiliyatlarini namoyon etishi va rivojlantirishi, ijtimoiy institutlarning baholash mezonlarida inson ravnaqini hisobga oladigan qarashlarning tarixiy o'zgaruvchan tizimi, insoniylik – odamlar orasida kutiladigan me'yoriy munosabat. Insonparvarlik yana asosida insonning cheksiz imkoniyatlari va uning komillikka doir intilishlari, o'z qobiliyatlari, qarashlarini erkin namoyon etishga doir shaxs huquqini e'tirof etish turadigan, inson ravnaqini ijtimoiy munosabatlar darajasini baholash mezonini sifatida tasdiqlaydigan dunyoqarash tamoyili tarzida ham qaraladi. Hozirgi vaqtda mazkur tamoyil pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri sifatida shakllantirildi. Insonparvarlik tushunchasi boshqa odamlarga va yer yuzidagi barcha tirik mavjudotga ezgu,

rahmdil, g'amxo'r munosabatni namoyon etadigan shaxs sifati, insoniylik tarzida baholanadi. Zero, insonparvarlik dunyoda insonga eng oily qadriyat sifatida qarashning yaxlit konsepsiyasidir. Bu konsepsiyaning asosi – shaxs qadr-qimmatini himoya etish, uning ozod, erkin rivojlanishga bo'lgan huquqining tan olinishi; buning uchun (hayotda, mehnatda, o'qishda) mos qulay shart –sharoitlar yaratishdan iboratdir. Shuning uchun ham hozirgi davrda ta'limni insonparvarlashtirishni uning tarkibiy qismiga kiritish zarur va muhim sanaladi. Lekin uni ta'limning tarkibiy qismiga kiritish uchun faqat o'quv fanlari tarkibidagina emas, balki insonning qadr-qimmatini yuqori qo'yuvchi o'zaro munosabatlar madaniyatini tarkib toptiruvchi ta'lim muhitini yuzaga chikarishni talab etadi. Ehtimol, "ta'lim" degan atamani yaxshilab tushunib olishning eng yaxshi yo'li boshqa bir atama, ya'ni "o'rganish"ga aniqlik kiritib olish bo'lsa kerak.

Ta'limni insonparvarlashtirish – uning mazmuni, tamoyillari, shakl va metodlarini yangilash, ularning o'zaro aloqasi va birligini ta'minlash orqali shaxsni har tomonlama shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirishdir. Shaxsning rivojlanishi va o'quvchilarning ijtimoiy ahamiyatga ega sifat va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta'limning insonparvarlik mazmuniga yaqinlashish, ularni hayotda faol ishtirok etishga jalb etish, uning bilish bilan qo'shiluvi va madaniyatni o'zlashtirishi hamma-hammasi so'nggi yillarda sezilarli shakllandi. Mazkur yo'nalishda so'nggi yillarda tarbiyalanuvchilar ongidagi aldam-qaldamlik, ularning xulq-atvorini haddan tashqari qat'iy belgilash, ularga qattiq ta'sir etish, tanqidiy fikrlash tarziga ega bo'lmagan qarashlardan voz kechish yordamida ko'plab innovasiyalar yo'naltirildi. Bunday aqidaparastlikka qarama –qarshi o'laroq, milliy va chet el pedagogikasida tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilishga yo'naltirilgan, unda mustaqillikni shakllantiruvchi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar orasida insonparvar, ishonchga asoslangan munosabatlarni tarkib toptirish qoidalaridan foydalanish, "ta'limni insonparvarlashtirish", ya'ni insonparvarlik tamoyili yuzaga chiqadi. Bunday asosga qurilgan ta'lim esa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi. Ta'limni insonparvarlashtirish eng umumiy ma'noda, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining munosabatlarini avtoritar pedagogik muloqot uslubidan demokratik muloqot uslubiga almashtirish asosiga tashkil etilishi bilan tavsiflanadi. Bunda asosiysi – tarbiyalanuvchi shaxsiga hurmat va ta'lim mazmunida ijtimoiy tajriba tarzida olingan insoniyat madaniyati bilan tanishtirish yo'lida uning ma'naviy imkoniyatini hisobga olish. Ta'lim jarayonining mohiyati ijtimoiy tajribani maqsadga yo'naltirilgan tarzda shaxsiy tajribaga almashtirish yoki shaxsiy va ijtimoiy tajribani qo'shilishida namoyon bo'ladi.

Ta'limni insonparvarlashtirish uning yetakchi tendensiyasi sifatida ta'limni insonga qaratish, uning individualligini namoyon bo'lishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratishni ifodalaydi. U insonni yuqori ehtiyojlari: o'z-o'zini namoyon etish,

o'z-o'zini realizatsiyalash, ma'naviy, ijtimoiy va kasbiy shakllanishida maksimal darajada qoniqishga yo'naltirilgan o'z noyobligini yo'qotish, hayot, tabiat dunyosi va madaniyatdan begonalashib ketish xavfidan himoyalanihga chaqiradi. Uzluksiz ta'lim tizimining insonparvarlashuvi – uzluksiz ta'lim nazariyasi va amaliyotini tavsif etuvchi, dunyoqarashga oid qoidalar va tamoyillar yig'indisi sifatida insonparvarlikka asoslanuvchi, inson qadr-qimmati va huquqiga hurmat, uning taqdiri va har tomonlama rivojlanishiga g'amxo'rlikni aks ettiruvchi, bundan tashqari odamlar orasida haqiqiy insonparvar munosabatlar: o'zaro bir-birini tushunish, o'zaro hurmat, birgalikdagi hamkorlik, o'zaro yordam kabilarni tarkib toptirish zarurligini ta'kidlovchi tushuncha. Boshqacha aytganda, ta'lim jarayoni markazida ta'lim oluvchi shaxsini qaror toptirish. O'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirishni avtoritar pedagogikaning shaxsga pedagogik ta'sirini bekor qilish, shaxsga yo'naltirilgan pedagogikaga o'tish tarzida pedagog va ta'lim oluvchilar o'rtasida me'yoriy insoniy munosabatlarni tarkib toptirish bilan farq qilishi, ta'lim oluvchilarning shaxsiy erkinligi va faoliyatida haqiqiy ahamiyat kasb etish sifatida tushunish lozim.

Insonparvarlik nuqtai nazaridan ta'lim va tarbiyaning tub maqsadi shundaki, har bir tarbiyalanuvchi bilish va muloqot faoliyatining to'la huquqli sub'ekti, tashabbuskor shaxs bo'la oladi. O'quv-tarbiya jarayonining insonparvarlashtirishning o'lchovi qanchalik bu jarayon shaxsning o'z-o'zini realizatsiyalashi uchun sharoit yaratganligi, undagi tabiiy layoqatni yuzaga chiqarganligi, uning erkinlik, tashabbuskorlik va ijodkorlik qobiliyatlari bilan belgilanadi.

Ta'limning insonparvarlikka yo'naltirilganligining natijasi sifatida birgalikda qayg'urishga qobiliyatli, erkinlikka tayyorgarlik, insonparvarlikka yo'naltirilgan tanlov va individual intellektual salohiyatga ega shaxsning shakllanishida namoyon bo'ladi. Pedagogik jarayonni insonparvarlashtirishning umumiy masalalarini tahlil qilib, A.A.Melik-Pashaev uni amalga oshirishning yo'llaridan biri "qandaydir fan doirasida kuchni sarflashda emas, turli bilim sohalari, madaniyat, atrof-borliqdan mashg'ulot uchun ma'lumot erkin tanlab olinadigan va umumiy tarzda pedagogik vazifalarni birlashtiradigan" ta'lim mazmunini qayta tashkil etishda aks etadi, deb ta'kidlab o'tadi. A.A.Melik –Pashaev yoshlarda "Men" tuyg'usining katta imkoniyatlariga ishonch uyg'ota oladigan pedagogning mavjudligini insonparvarlashtirishning ikkinchi yo'li, deb hisoblaydi.

Oliy ta'lim sohasidagi insonparvarlik yondashuv talaba shaxsi, uning qobiliyati va iqtidorini rivojlantirishga tub burilish, uning istak va imkoniyatlariga javob beradigan ta'lim yo'lini tanlash huquqini amalga oshirish sifatida tavsiflanadi, bu davlat tomonidan shaxsiy qiziqishlarni, nafaqat davlat tomonidan, balki jamiyat tomonidan har tomonlama hisobga olinishidir.

Shaxsiy-insonparvarlik yondashuv shaxs sifatlarini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tizimi markazida turadi. Bunday rivojlanishning o'lchovi ta'limning asosiy natijasi, yaxlitlikda o'qituvchi, tarbiyachi, boshqaruvchi, tarbiyaviy muassasa ish sifati mezoni, deya e'lon qilinadi. Bunday yondashuv ta'lim oluvchi shaxsi, uning ichki dunyosi, qobiliyatlari, imkoniyatlari, erkinlik va adolatlilik, yaxshilik va baxtning axloqiy kuch-qudratini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Oliy ta'lim muassasasining maqsadi – shaxsning ichki kuchlari va imkoniyatlarini uyg'otish, ularning to'liq va erkin rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir.

O'quv-tarbiya jarayonida talabaga shaxsiy –insonparvarlik yondashuvi qator tadqiqotlarda (L.D.Stolyarenko, I.S.YAkimanskiy, G.K.Selevko, N.N.Azizxo'jaeva, M.Ochilov, N.Sayidaxmedov, R.Safarova, F.R.Yuzlikaev, O'.Tolipov) shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarning kommunikativ asosi sifatida o'rganilgan. Mazkur yondashuvning mohiyati quyidagi g'oyalarning yig'indisi tarzida yuqorida nomlari qayd etilgan mualliflarning konsepsiyalarida aks etgan:

I. Ta'lim maqsadi, o'quv –tarbiya jarayonining shaxsga yo'naltirilganligi sifatidagi shaxsga yangicha qarash. Bu quyidagilarni bildiradi:

- shaxs pedagogik jarayonning ob'ekti emas, sub'ekti sifatida aks etadi;
- shaxs – qandaydir tashqi maqsadlarga erishish vositasi emas, ta'lim tizimi maqsadi;
- har bir talaba qobiliyatli, ko'plab talabalar iqtidorli;
- shaxsning muhim sifatleri sifatida yuksak axloqiy qadriyatlar (yaxshilik, sevgi, mehnatsevarlik, vijdon, qadr -qimmat, fuqarolik va boshqalar) aks etadi.

Tarbiya san`ati va texnologiyasi

Kishining maqsadga muvofiq harakati shu faoliyatdan olinishi mumkin bo'lgan natijalarni rejalashtirilishiga bog'liqligi oldindan aniqlangan. Asrlar davomida pedagog o'zining kundalik ta'lim berish va tarbiyalash amaliyotida turli-tuman qarorlarni qabul qilishga to'g'ri kelgan va bu aynan uning shu kabi qarorlarning oqibatlarini yakka tartibda rejalashtirishiga, uning oldingi amaliy tajribasi ostida ishlab chiqilgan kasbiy his-tuyg'usiga asoslangan.

O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlarining asarlarida, jumladan, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Muhammad Tarag'ay Mirzo Ulug'bek, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiylarning asarlarida, shuningdek, qadimgi yunon faylasuflari Aristotel, Sokrat, Platonning asarlarida, hozirgi kunda ham biz uchun g'oyat darajada qiziqarli bo'lgan, xususan, ta'lim - tarbiyaning maqsadi va vazifasi, mazmuni va usullariga oid tashhisiiy mulohazalar va fikrlar mavjud.

Abu Ali ibn Sino, ulug' qomusiy olim, inson mohiyati va mohiyaviy kuchi muammosini tadqiq qilgan ekan, abstrakt narsalarning g'oyaviy etilish ma'no-sini

“hayotiy narsalarni fikran qarash” sifatida aniqladi. SHunga ko’ra odam uchun bilim atrof dunyoda mo’ljalni to’g’ri olish uchun, hodisalarni tushuntirish va oldindan ko’rish uchun, faoliyatni rejalashtirish va amalga oshirish va boshqa bilimlarni ishlab chiqish uchun zarur bo’ladi. Bilim - voqelikni o’zgartirishning juda muhim quroli. U tez rivojlanayotgan o’zgaruv-chan tizimdan iborat, uning o’sishi hozirgi sharoitda o’zining sur’ati bo’yicha boshqa har qanday tizimning o’sishiga qaraganda jadalroqdir. Kishilarning qayta o’zgartuvchi amaliyfaoliyatida bilimlardan foydalanish qoidalarining maxsus guruhi bo’lishini taqozo qiladiki, bu qoidalar qanday holatda, qaysi vosita yordamida va qanday maqsadlarga erishish uchun u yoki bu bilim zarur bo’lishini ko’rsatadi. Boshqacha aytganda, bilim faoliyat tizimiga kiradi va maxsus shakl sifatida namoyon bo’ladi, uning asosida esa faoliyatdagi ish tartibi bayon etiladi.

O’zining falsafiy qarashlarida mashhur matematik faylasuf Abu Nasr Forobiy pedagogikaning fan sifatidagi ayrim muhim vazifalarini ko’rsatib o’tadi. “Tarbiyalash san’ati tamoyili shundayki, - degan u,- tarbiyalash uchun reja tuzadigan kishilarning ko’z oldidan quyidagilar ketmasligi kerak va bu shunday: bolalar faqat hozirgi kungina emas, balki kelajak uchun xam tarbiyalanishlari lozim, ya’ni, odamzod mafkurasi uchun va uning umumiy burchi uchun tarbiya olishlari kerak”. Ulug’ matematik, astronom Mirzo Ulug’bek o’z shogirdlariga tez-tez shunday deb turgan: “Agar Erdagi voqelikni yaxshitushunishni istasang, kelajakni yaxshi rejalashtira ol”. Astronomiya, matematika, fizika, tibbiyot, geografiya, tarix va ling-vistikaga oid ko’plab asar yozgan buyuk mutafakkir Abu Rayhon al-Beruniy ta’kidlagan: “Aqlli kishi kelajak avlod uchun foyda keltirib, u aql va idrok bilan hammani mushohada eta olsagina, ruhan qanoat hosil qilgan”. Vatanimizda faol ijtimoiy -pedagogik tafakkur rivoj-lanishiga Toshmuhammad Qori-Niyoziy, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori Abdurashid-xonovlar katta hissa qo’shdilar. Ularning asarlarida kelajak kishi siymosini yaratish g’oyasi muammosi alohida o’rin egallaydiki, unga erishish yo’lida tarbiyaning tegishli tizimi barpo bo’lishi lozim edi. Mashhur o’zbek pedagogi Abdulla Avloniy o’z asarlarida ko’p marta o’z diqqatini pedagogikaning vazifalarini tahlil qilishda, uning tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaviy faoliyatning san’at sifatidagi ahamiyatini yoritishga qaratdi. Abdulla Avloniyning fikricha, «tarbiya san’atlarning oliysidir, san’at esa hali mavjud bo’lmagan tomon intiladi, uning oldida ijodiyotining kelajakdagi maqsadi va g’oyaviy siymosi g’avdalanadi».

Erkin tarbiya texnologiyasi

Erkin tarbiya texnologiyasida asosiy urg’u bolaning o’z hayotiy faoliyati davomida mustaqil fikr yuritishi va tanlash erkinligiga qaratiladi. Tanlash xuquqiga ega bo’lgan o’quvchi sub’ekt vazifasini bajarishga tashqaridan bo’lgan ta’sir ostida emas, balki o’zining ichki kechinmalaridan kelib chiqqan holda intilib a’lo darajada

bajaradi. An'anaviy ta'lim tizimidagi har qanday pedagogik texnologiyaning asosida tushuntirish yotadi, lekin shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida esa tushunish va o'zaro bir birini tushunish yotadi. Bu tushunchaga V.S. Bibler shunday izoh bergan; tushuntirishda bitta ong, bitta sub'ekt ishtirok etib monologni hosil qiladi. Tushunishda ikkita ong, ikkita sub'ekt ishtirok etib o'zaro (bir birini) tushunish, dialogni hosil qiladi. Tushuntirish doim "yuqoridan past"ga bo'lgan qarash, ya'ni "so'zini o'tkazish"ni anglatadi.

Tushunish esa bu muloqot, hamkorlik, o'zaro (bir- birini) tushunish demakdir.

Erkin shaxsni shakllantirish muammosi ta'lim muassasalarida o'quv- tarbiyaviy ishlarni pedagogik texnologiya "rels" iga o'tkazish taqazo etadi. Bu jarayon oson kechmaydi. Chunki: butun ixtiyoriy ko'rilayotgan va joriy etilayotgan o'kitish tizimini qat'iyon ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish kerak. Aslida ham ijtimoiy tajriba elementlari - bilim, ijodiy faoliyat, ob'ektiv borlikka munosabatlar - pedagogik jaryon maxsulidir va ma'lum pedagogik tizim doirasida shakllantiriladi. Pedagogik texnologiya esa amaliyotga joriy etilayotgan pedagogik tizim loyixasidir. Unda pedagogik tizim nima? Uning tarkibi qanday? Bu savollarga mavjud pedagogik nashrlardan topish mumkin.

N.V.Kuzmina pedagogik tizim o'zida ta'lim va tarbiya maqsadida bo'ysindirilgan o'zaro bog'liq tarkibli elementlardan tashkil topishini o'qtiradilar: pedagogik maqsad; o'quv va ilmiy axborot; pedagogik aloqa vositalari: o'quvchilar va pedagog.

V.P.Bespalkoning ta'rifiga ko'ra "Pedagogik" tizim ma'lum shaxs sifatlarini shakllantirishga tartibli, aniq maqsadni ko'zlab va oldindan o'ylab pedagogik ta'sir etishini vujudga keltirish uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'liq vositalar, usullar va jarayonlar yigindisidir. Har jamiyatda shu jamiyat mafkurasiga xos shaxsni shakllantirish maqsadi va unga mos pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Agar maqsad o'zgarsa tizim ham o'zgaradi.

Bizga yaxshi ma'lumki, tarbiya jarayoni uzoq muddatli, murakkab, uzluksiz bo'lib, u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Garchi zamonaviy ta'lim texnologiyasi o'quvchining ta'lim jarayonidagi yetakchilik rolini yoqlayotgan bo'lsada, tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi asosiy mavqeini egallay olmaydi. Chunki unda xarakter, dunyoqarash yetarlicha shakllanmagan bo'lib, u bu borada tarbiyachining yordamiga extiyoj sezadi. Shu bois tarbiya texnologiyasi ham mantiqiy, ham tarkibiy jixatdan ta'lim texnologiyasidan farq qiladi.


Tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatlari hamda o'ziga xos jixatlari xususidagi mavjud nazariy va amaliy g'oyalarga, pedagogik bilimlarga tayangan xolda tarbiya texnologiyasining tarkibiy qismlarini quyidagicha belgiladik:

- 1) tarbiya jarayonining umumiy loyixasi;
- 2) tarbiyani tashkil etishga bo'lgan ijtimoiy extiyoj (ragbat);

- 3) tarbiya maqsadi;
- 4) tarbiya mazmuni (shakl, metod, usul va texnik vositalar);
- 5) o`qituvchi (tarbiyachi) faoliyati;
- 6) o`quvchi (tarbiyalanuvchi) faoliyati;
- 7) tarbiya samarasi (natija).

Ushbu fikrlar asosida tarbiya texnologiyasining tarkibiy tuzilmasi tasvirda quyidagicha namoyon bo`ladi (3-shakl).

1-shakl. Tarbiya texnologiyasining tarkibiy tuzilmasi



Pedagogik texnologiya o`zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

1. Pedagogik texnologiya pedagogik jarayonni takomillashtirish, optimallashtirishga bo`lgan ijtimoiy extiyojni qondirish omili sanaladi.
2. Pedagogik texnologiya didaktik hamda tarbiyaviy xarakterdagi, shuningdek, ta`lim — tarbiya jarayonini samarali, maxoratli tarzda tashkil etish borasidagi nazariy hamda amaliy bilimlar majmui, metodologik fan sifatida namoyon bo`ladi.
3. Pedagogik texnologiya ta`lim — tarbiya jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi yaxlit jarayondir.
5. Pedagogik texnologiya yunaltiruvchanlik vazifasini bajaradi, ya`ni, u shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash, shakllantirish uchun xizmat qiladi.
5. Pedagogik texnologiya — shaxsiylik xususiyatiga ega bo`lib, muayyan texnologiyalarni ta`lim — tarbiya jarayonida qo`llashga nisbatan yagona, qat`iy, me`yoriy (standart) talablar qo`yilmaydi.

Har bir pedagog u faoliyat olib yuritayotgan ta`lim — tarbiya muxitining xususiyatlari, mavjud ichki va tashki shart — sharoitlarini inobatga olgan xolda muayyan texnologik yondoshuvni amalga oshirish imkoniyatiga ega.

6. Pedagogiyk texnologiya o`zida ta'lim, tarbiya va shaxs taraqqiyoti (kamoloti) birligini ifoda etadi.

Xullas, pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni shakllantirish uchun poydevor bo`lgan pedagogik jarayonni takomillashtirish, insonparvarlashtirish, o`quvchining mustakilligini ta'minlash, o`qitish jarayonida texnik vositalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishga erishishdan iborat.

Yaxlit yondashuv va tarbiyaviy ish

Tarbiyalash texnologiyasi — nisbatan yangi atama bo'lishiga qaramay rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Tarbiyalash texnologiyasi pedagogikada yangi yo'nalish hisoblangan «ijtimoiy pedagogika» bilan birgalikda fuqarolik g'ururi, vatanparvarlik, ijtimoiy faollik, mas'uliyat hissi va boshqa shaxsiy sifatlarni shakllantirishga jiddiy ta'sir qilmoqda. Ta'kidlash joizki, tarbiyalash texnologiyasi yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarning g'oyasi, mazmuni va tarkibini emas, balki bu sohadagi respublikamiz hukumati tomonidan ishlab chiqilgan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish bilan shug'ullanadi. **Tarbiyalash texnologiyasi** mo'ljallangan tarbiyaviy maqsadga samarali erishuvni ta'minlovchi vositalar majmuasini ko'rib chiqadi. O`qituvchi (pedagog)larning o`zida muloqot, bahs olib borish madaniyatini shakllantirish maqsadida pedagogik ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar, ayniqsa, muhimdir. O'zaro hamkorlik pedagogikasi — o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talaba o'rtasida hamfikrlilik. bir-biriga ishonch, o'zaro yordam, ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi. Bu esa. o'z navbatida, yoshlar tomonidan haqiqiy insoniy qadriyatlaming anglab olinishi va e'tirof etilishini kafolatlaydi.

Milliy o'zlikni anglashni butun olam insonparvarlik g'oya va madaniyati, umuminsoniy qadriyatlar, ko'p millatli xalqimiz an'analaridan ayrim holda tiklab bo'lmaydi. Yoshlarning iqtidori va bilimga chanqoqligi aynan shulardan quv at oladi, m'naviyatga erishish va uning rivojlanishi shular bilan chambarchas bog'liqdir.


Milliy mafkura, psixologik va pedagogik fanlardan foydalanib, maqsadlar ketma-ketligini to'g'ri «texnologik» tanlay bilish o'ta muhim. Nazariya nuqtai nazaridan tarbiya uslubiyotini ta'riflash yetarli.

Lekin texnologik jihatdan barcha tarbiya maqsadlarining qismlarini aniqlash va ularni ro'yobga chiqarish yo'llarini belgilash zarur bo'ladi. «Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida bo'lg'usi mutaxassislarning umumiy va kasbiy madaniyatini shakllantirish bo'yicha jamlama tarbiyaviy ishlar rejasi»-tarbiyaviy ishlar dasturlashga misol bo'la oladi. Ushbu dastur Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasarrufidagi oliy o'quv yurtlari olimlari va pedagoglarining mehnati mahsulidir. Uning asosi etib, O'zbekiston Respublikasining 1-Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekistonning daxlsizligini mustahkamlash, uning buyuk kelajagini barpo etish, har bir talabani ko'p qirrali, barkamol va Vatanning yuksak g'oyalariga sodiq

shaxs sifatida tarbiyalash haqidagi ko'rsatmalari olingan. Dasturda asosiy tarbiyaviy yo'nalishlar va maqsadlar keltirilgan. Jumladan, fuqaro tarbiyasi, kasb egallash, shaxsiy mas'uliyat, yuqori malakali bo'lish va kasbiy mahoratni egallashga intilishni tarbiyalash, oilaviy hayotga tayyorlash, talabani shaxs sifatida rivojlantirish kabilarga alohida e'tibor berilgan.

O'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish pedagogdan ijodiy ishlashni talab etadi. Pedagog o'zida unga yordam beruvchi tashqi imkoniyatlar, ya'ni, nazariy-amaliy materiallar, o'quv qurollari va vositalari mavjudligi haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Pedagog o'zidagi mavjud ma'lumotlar va imkoniyatlar asosida qaralayotgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha mavjud metodika va ilg'or o'qitish uslublarini ko'zlagan maqsadga yo'naltirish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

2-shakl. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish



“Tayanch tushunchalar tahlili”

Tushuncha	Tushuncha mazmuni
O'qitishni tabaqalashtirish	1.O'quv jarayonini tashkil etish shakli. 2.O 'quv jarayonidagi ta'lim oluvchilarning turli guruhlarini ixtisoslashtirilishini ta'minlaydigan umumiy didaktikaning bir qismi sifatida ham belgilanadi
O'qitishni individuallashtirish	1.O'quv jarayonini tashkil etish shakli. 2. O'quv jarayonining shunday tashkil qilinishiki, unda individual yondashuv va individual shakl ustuvor hisoblanadi.

Dars	1. O'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli. 2. Bevosita o'qituvchining rahbarligi hamda nazorati ostida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonini anglatuvchi tushuncha
Vosita	Maqsadga erishishni ta'minlaydigan xilma-xil ixozlar yig'indisi
Individuallik	shaxsning betakror biososiologik xususiyatlari
Model	real, haqiqatda mavjud bo'lgan ob'ektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshagan nusxasi
Metodika	biror ishni tashkil qilishda maqsadga muvofiq qo'llanadigan metodlar
Leksiya (ma'ruza)	odatda oliy o'quv yurtida biror fan mazmunini og'zaki bayon qilishga asoslangan o'quv jarayoni, metodi
Axborotli malaka	ta'lim va ta'biya masalalariga axborotlarni moslashtirish va talqin qilish malakasi
Tarbiya	1. Yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tamonlama shakllantirish, uning mustaqil fikrlashga oid ongi va xulq – atvorini tarkib toptirishdir. 2. Shaxsni maqsadga muvofiq qilib takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. O`Tolipov, D.Ro`ziyeva. Pedagogik texnologiya va pedagogic maxorat.- T.:Innovatsiyo-ziyo, 2019.

2. N .N . Azizxo'jayeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.- Toshkent-2006

3. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi /Metodik qo'llanma. Tuzuvchilar: D.Ro'zieva, M.Usmonboeva, Z.Holiqova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. – 136 bet.

4. Golish L.V. Texnologii obucheniya na lektsiyax i seminarax/ Uchebnoe posobie/ Pod obsh red. Akad. S.S. Gulyamova. - T.: TGEU, 2005.

5. O'. Tolipov, M. Usmonboeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005

Nazorat uchun savollar:

1. G.K.Selevko tadqiqotlarida o'qitishni tabaqalashtirish qanday izohlanadi?

2. O'qitishni tabaqalashtirishda kimlar qanday ishlaydi?
3. O'qitishni tabaqalashtirish qanday qism sifatida belgilanadi?
4. O'qitish tizimining qurama texnologiyasining muallifi kim?
5. «O'qitish tizimining qurama texnologiyasi»g anima deb qaraladi?
6. Batov tizimi qayerda ishlab chiqilgan?
7. Batov tizimida o'quv jarayoni nechi qismga bo'linadi?
8. O'quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish sohasidagi qanday pedagogik texnologiyalarni bilasiz?
9. "Insonparvarlik pedagogika"si qacho va qayerda paydo bo'lgan yo'nalish?
10. Har qanday pedagogika qanday sharoitlarda shakllanadi?
11. Bugungi kunda butun dunyoda qanday o'qituvchilar fasilitator deb atalmoqda?
12. Oliy ta'lim sohasidagi insonparvarlik yondashuvni qanday tushunasiz?
13. Erkin tarbiya texnologiyasida asosiy urg'u nimaga qaratiladi?
14. Tarbiya jarayoni qanday xususiyatlarga ega?
15. Tarbiya texnologiyasining qanday tarkibiy qismlari mavjud?
16. Qanday malaka axborotli malaka deb ataladi?

Test topshiriqlari

:: 5.1-savol::

Kimning tadqiqotlarida o'qitishni tabaqalashtirish o'quv jarayonini tashkil etish shakli sifatida izohlanadi?

- ```
{
= G.K.Selevko # a`lo javob
~ N.P.Guzik #yana urinib ko`ring
~ Inge Unt #yana urinib ko`ring
~ A.S. Graniskaya #yana urinib ko`ring
}
```

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2-adabiyotni 125-saxifani qayta ko`rib chiqin/

#### **:: 5.2-savol::**

**O'qitishning tabaqalashtirilgan texnologiyasida o'qituvchi kimlar bilan ishlaydi?**

- ```
{
~ o`zida bilim darajasi har xil bo`lgan, u yoki bu jihatdan o`quv jarayonida umumiy
sifatlarga ega bo`lgan o`quvchilar guruhi bilan #yana urinib ko`ring
~ o`zida bilim darajasi bir xil bo`lgan, u yoki bu jihatdan o`quv jarayonida umumiy
sifatlarga ega bo`lgan o`qituvchilar guruhi bilan #yana urinib ko`ring
~ o`zida bilim darajasi har xil bo`lgan, u yoki bu jihatdan o`quv jarayonida umumiy
sifatlarga ega bo`lgan ota-onalar guruhi bilan #yana urinib ko`ring
}
```

= o'zida bilim darajasi bir xil bo'lgan, u yoki bu jihatdan o'quv jarayonida umumiy sifatlariga ega bo'lgan o'quvchilar guruhi bilan # a`lo javob

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2 -adabiyotni 125-saxifani qayta ko`rib chiqin/

:: 5.3-savol::

O'qitishni tabaqalashtirish o'quv jarayonidagi ta'lim oluvchilarning turli guruhlarini ixtisoslashtirilishini ta'minlaydigan ...

{

= umumiy didaktikaning bir qismi sifatida ham belgilanadi # a`lo javob

~ umumiy metodikaning bir qismi sifatida ham belgilanadi #yana urinib ko`ring

~ xususiy didaktikaning bir qismi sifatida ham belgilanadi #yana urinib ko`ring

~ xususiy metodikaning bir qismi sifatida ham belgilanadi #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2 -adabiyotni 125-saxifani qayta ko`rib chiqin/

:: 5.4-savol::

O'qitish tizimining qurama texnologiyasining muallifi?

{

= N.P.Guzik # a`lo javob

~ G.K.Selevko #yana urinib ko`ring

~ Inge Unt #yana urinib ko`ring

~ A.S. Graniskaya #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2 -adabiyotni 125-saxifani qayta ko`rib chiqin/

:: 5.5-savol::

« O'qitish tizimining qurama texnologiyasi» saviyasiga va darslarda mavzu bo'yicha davriylikni rivojlantirishga ko'ra ...

{

= sinf ichidagi o'qitishning tabaqalashtirilishi deb qaraladi # a`lo javob

~ maktab ichidagi o'qitishning tabaqalashtirilishi deb qaraladi #yana urinib ko`ring

~o'qituvchi tomonidan o'qitishning tabaqalashtirilishi deb qaraladi #yana urinib ko`ring

~maktab ilmiy mudiri tomonidan o'qitishning tabaqalashtirilishi deb qaraladi #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2 -adabiyotni 125-saxifani qayta ko`rib chiqin/

:: 5.6-savol::

«O‘qitish tizimining qurama texnologiyasi»da uchta tabaqalashtirishning turli darajadagi qiyinchiliklari ajralib turadigan dasturlar...

{

~ «A»,«B»,«S» dasturlari ajralib turadi#yana urinib ko`ring

= «A»,«V»,«S» dasturlari ajralib turadi # a`lo javob

~«A»,«B»,«D» dasturlari ajralib turadi #yana urinib ko`ring

~«A»,«E»,«S» dasturlari ajralib turadi #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2 -adabiyotni 126-saxifani qayta ko`rib chiqin/

:: 5.7-savol::

Tabaqalashtirilgan ta`limda materiallarni takrorlashda qanday metodika qo`llanadi?

{

= turli darajadagi vazifalarni erkin tiklash # a`lo javob

~ turli darajadagi vazifalarni guruxiy tiklash #yana urinib ko`ring

~ turli darajadagi maqsadlarni erkin tiklash #yana urinib ko`ring

~ turli darajadagi maqsadlarni jamoaviy tiklash #yana urinib ko`ring

}

/yordam: ushbu savolga javob olish uchun 2 -adabiyotni 126-saxifani qayta ko`rib chiqin/

:: 5.8-savol::

Tabaqalashtirilgan vazifalar qanday nazorat qilinadi?

{

~ guruxiylikka o`tish va u chuqurlashtirish orqali #yana urinib ko`ring

~ jamoaviylikka o`tish va u chuqurlashtirish orqali #yana urinib ko`ring

~ sinfiylikka o`tish va u chuqurlashtirish orqali #yana urinib ko`ring

= individuallikka o`tish va u chuqurlashtirish orqali # a`lo javob

}

Keys mazmuni bilan shaxsan tanishish

Kichik guruhlarda muhokama qilish ("Sindikats" metodi yordamida)

Jamoa o'rtasida umumiy muhokamani tashkil etish

Muammoni muhokama qilishda e'tiborni quyidagilarga qaratish zarur

- O'rganilayotgan muammoning asosiy maqsadini aniqlash
- Muammoli vaziyatni real holatlar bilan taqqoslashni o'rganish
- Ehtimoli bo'lgan "to'siq"lar (2-darajali masalalarni muhokama qilish, to'g'ri qarorlar qabul qilish va h.k.)ni aniqlash
- Auditoriya uchun tushunarsiz ma'lumotlarni aniqlash
- Muammoni yechishda muhim, ahamiyatga ega ma'lumotni aniqlash
- Muammoli vaziyatni hal qilish uchun oraliq bosqichlarni ilg'ab olish
- Muammoni hal etishning muqobil yo'llarini belgilash
- Muammoli vaziyatni muhokama qilish vaqtini aniqlashtirish
- Muhokamani tugatish tartibini belgilash
- Yakuniy izohlash va muhokama natijasini xulosalash

shart

1.2. "HAMKORLIK PEDAGOGIKASI" TEXNOLOGIYASI, UNING MAZMUNI VA O'ZIGA XOSLIKLARI

- Hamkorlik pedagogikasi XX asrning 80-yillarida rivojlana boshladi va ta'limdagi ko'pgina innovatsion jarayonlarni hayotga chorladi. "Hamkorlik pedagogikasi" texnologiya negizida taniqli rus va chet el pedagoglarning tajribasi yotadi. Ular:
 - - K.D.Ushinskiy, N.I.Piragov, L.N.Tolstoy, V.A.Suxomlinskiy
 - - J.J.Russo, Ya.Korchak, K.Rodjers, E.Bern, S.T.Shatskiy
- Hamkorlik pedagogikasi 4 ta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi.

Sh.A.Amonashvilining asosiy maqsadlari:

- bolaning shaxsiy xislatlarini namoyon qilish orqali unda olijanob insonning shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyalanishiga imkon tug'dirmoq;
- bolaning qalbi va yuragini ulug'lamoq;
- boladagi bilishga bo'lgan kuchlarni rivojlantirish va shakllantirish;
- keng va chuqur bilim hamda malaka olish uchun sharoit tug'dirmoq;
- ideal tarbiya-bu o'z-o'zini tarbiyalamoq

Sh.A.Amonashvili o`zining texnologiyasini amalga oshirish uchun quyidagi metodika va metodik usullardan foydalandi:

- insonparvarlik
- shaxsiy yondoshuv
- muloqot maxorati
- oila pedagogikasining qo`shimcha imkoniyati
- o`quv faoliyati

“Loyixa” tushunchasining mazmuni, mohiyati, loyixaviy ta`limning o`ziga xosliklari, o`quv loyixasi tushunchasi va “Loyixa” texnologiyasini ishlab chiqish qoidasi

- **Loyiha** – aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli.
- **Loyiha** dastur, model, texnologik xarita va b. ko`rinishda namoyon bo`ladi.
Loyihaning asosini ilmiy yoki ijodiy xarakterga ega g`oya tashkil etadi.
- **Loyihalash** – boshlang`ich ma`lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat.
- **Loyihalash** “g`oya – maqsad – kutiladigan natija – taxmin qilish – bashoratlash – rejalashtirish” tizimiga asoslanadi.
• **Loyihalash** turli vositalar, ya`ni moddiy buyum, qurollar, m: kompyuter texnologiyasi, vatmon yoki oddiy ish qog`ozi, chizg`ich, qalam, marker, nusxa ko`chirish apparati (printer) va b. yordamida amalga oshiriladi.

Loyihani yaratish uchun pedagog:

- loyihani yaratish;
- jarayonni bosqichma-bosqich yoritish;
- maqsadni aniq belgilash;
- maqsadga mos vazifalarni aniqlash;
- o`quv materialini mazmunini shakllantirish;
- savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
- jarayon yoki tadbirning metodik tuzilishini asoslash;
- talaba bilim darajasini tashxislash va uning tarbiyalanganlik darajasini baholash kabi ko`nikma va malakalarga ega bo`lishi zarur.

Ta'lim jarayonini loyihalash –

alohida olingan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasi (sxemasi)ni ishlab chiqish.

Ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari:

- 1) ta'lim jarayonini loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik jarayon, texnologik jarayonni boshqarish, vosita, axborot, ijtimoiy-iqtisoiy ta'minot)ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi bilan ta'minlanadi;
- 2) ta'limning texnologik vositalari talabalarning individual xususiyatlariga bog'liq holda tanlanadi;
- 3) loyihalash strategiyalari pedagogning individual uslubiga muvofiq tanlanadi;
- 4) loyihalash sifati teskari aloqa (pedagog va talaba o'rtasidagi) ko'lami, loyihalash mazmuni hamda barcha omillar samaradorligiga bog'liq.


O'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishning asosiy bosqichi – o'quv jarayonini loyihalashtirish hisoblanadi.

Bu jarayon quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi :


- Darsning maqsadi va natijasini belgilash.
- **Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish.**
- Ta'lim resurslarini tanlash.
- **O'qitish va o'qish strategiyasini belgilash.**
- Dars turini tanlash.
- **Darsning texnologik xaritasini ishlab chiqish.**

Ta'lim jarayonini loyihalash: **loyiha – mazmun – faoliyat** uchligi asosida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyatning umumiy mohiyatini yaxlit ifodalashga xizmat qiluvchi loyihani yaratishdir.

Ta'lim jarayonini loyihalash bosqichlari




Ta'lim jarayonini loyihalashda vazifalarning belgilanishi



O'quv loyihasi

- 1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natija (echim)ni mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usuli;**
- 2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni yechishga qaratilgan o'quv harakati vositasi;**
- 3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta'lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik vosita hisoblanadi**

O'quv loyihalari faoliyat mazmuni, bilim sohasi (fanlar) bo'yicha tayyorlanishiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:



O'quv loyihalarining asosiy turlari

Axborotli loyihalar	Tadqiqot loyihalari	Amaliy loyihalar
Maqsadi		
•Muammoga oid ma'lumotlarni to'plash, ularni tahlil qilish, umumlashtirish, mohiyatini yoritish, muammoni hal etish usul va vositalarini tavsiflash, ularning ahamiyatini asoslash	Tadqiqotni amalga oshirish, tadqiqot asosida muammo izohini asoslash, kelgusida rivojlanish uchun yangi muammolarni asoslash	Muammoni hal etish usul va vositalarini ishlab chiqish
Natijasi		
Maqola, referat, ma'ruza, keys va b.	Hisobot, ma'ruza, keys va b.	Harakatlar dasturi, biznes-reja, keys, strategiya, tavsiya, ma'lumotnoma to'plami va b.
Loyiha mavzusi (namuna)		
Pedagogning ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvi o'qitish sifati va samaradorligini kafolatlay oladimi? Pedagogning innovatsion faoliyati aynan nimalarda aks etadi?	Ish tajribasidan qat'iy nazar har bir pedagog innovator bo'la oladimi? Pedagogning innovatorlik faoliyati darajasi	Pedagogning innovatsion faoliyat malakalarini o'zlashtirish dasturi. Pedagogning innovatsion faoliyatni tashkil etish strategiyasi

O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH VA SAMARALI BOSHQARISH SOHASIDAGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA. TARBIYA JARAYONINI TEXNOLOGIYALASHTIRISH

Reja

1. TABAQALASHTIRILGAN VA INDIVIDUAL TA'LIM TEXNOLOGIYASI
2. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA TA'LIMNING JAMOAVIY HAMDA GURUXIY TEXNOLOGIYASI
3. INSONPARVARLIK PEDAGOGIKASI, TARBIYA SAN'ATI VA TENOLOGIYASI, YAXLIT YONDASHUV VA TARBIYAVIY ISH

Adabiyotlar:

1. Azizzo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2006
2. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metodik qo'llanma. Tuzuvchilar: D.Ro'zieva, M.Usmonboeva, Z.Holiqova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. – 136 bet.
3. Pedagogik texnologiyalar. Tuzuvchilar: Sh.S.Shodmonova va b. – T.: "Fan va texnologiya", 2011, 148-bet
4. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: Pedagog, 2004.
5. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat / S.A.Madiyarova va b. – T.: "Iqtisod-moliya", 2009.
6. Sayidaxmedov N., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T.: RTM, 1999.
7. Tolipov O'., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.

1.1. TABAQALASHTIRILGAN VA INDIVIDUAL TA'LIM TEXNOLOGIYASI

- G.K.Selevko tadqiqotlarida o'qitishni tabaqalashtirish o'quv jarayonini tashkil etish shakli sifatida izohlanadi, o'zida bilim darajasi bir xil bo'lgan, u yoki bu jihatdan o'quv jarayonida umumiy sifatlarga ega bo'lgan o'quvchilar guruhi bilan o'qituvchi ishlaydi. O'qitishni tabaqalashtirish o'quv jarayonidagi ta'lim oluvchilarning turli guruhlarini ixtisoslashtirilishini ta'minlaydigan umumiy didaktikaning bir qismi sifatida ham belgilanadi.

- **O'qitish tizimining qurama texnologiyasining muallifi N.P.Guzik bo'lib, mazkur texnologiya saviyasiga va darslarda mavzu bo'yicha davriylikni rivojlantirishga ko'ra sinf ichidagi o'qitishning tabaqalashtirilishi deb qaraladi.**
- Darslar har bir mavzu bo'yicha ketma ket joylashgan besh tipdan iborat bo'ladi:
- 1) mavzuni umumiy tahlil qiluvchi darslar (ular leksiyalar deb yuritiladi);
- 2) ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlari jarayonida o'quv materialining chuqurlashtirib ishlab chiqishini ko'zda tutgan, tuzilgan seminar mashg'ulotlari (bunday darslar uchtdan beshtagacha bo'lishi mumkin);
- 3) bilimlarni umumlashtirish va tartibga tushirish (guruhlash) darslari (mavzular bo'yicha sinovlar);
- 4) fanlararo materiallarni umumlashtirish (mavzular bo'yicha vazifalarni himoya qilish);
- 5) dars-praktikumlar.

• **Mazkur texnologiyada uchta tabaqalashtirishning turli darajadagi qiyinchiliklari:**

«A»,«V»,«S» dasturlari ajralib turadi.

Dasturlar quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- muayyan darajadagi bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashni ta'minlaydi;
- ta'lim oluvchilarning ma'lum darajadagi mustaqilligini ta'minlaydi;

«S» dasturi tayanch standart sifatida qayd qilinadi. Uni bajarish orqali ta'lim oluvchilar fan bo'yicha o'quv materialini, uni qayta tiklay olish darajasida o'zlashtiradilar. «S» dasturi vazifalarini nisbatan qiyin dasturga o'tmasdan oldin har bir o'quvchi bajara olishi lozim.

- **«V» dasturi mavzuni** qo'llash bilan bog'liq masalalarni yechish uchun zarur bo'lgan o'quv va aqliy faoliyatining umumiy va o'ziga xos usullari bilan birga egallashni ta'minlaydi. Ushbu dasturga kiritiladigan qo'shimcha ma'lumotlar birinchi bosqich materiallarini kengaytiradi, asosiy bilimlarni isbotlaydi, namoyish etadi va oydinlashtiradi hamda tushunchalarning amal qilish va qo'llanishini ko'rsatib turadi.
- **«A» dasturi o'quvchilarning** bilimlarini to'la anglash, ijodiy qo'llash darajasiga ko'taradi. Bu dasturda ijodiy qo'llash istiqboli tobora takomillashib boruvchi ma'lumotlar, chuqurlashtiriladigan materiallar, hamda uning mantiqiy asoslanganligi joylashtirilgan.

- Tabaqalashtirilgan ta`limda materiallarni takrorlashda turli darajadagi vazifalarni erkin tiklash metodikasi qo`llanadi.
- Tabaqalashtirilgan vazifalarni nazorat qilishda individuallikka o`tiladi va u chuqurlashtiriladi.
- Inge Unt, A.S. Graniskaya, V.D. Shadrikov tadqiqotlarida individual o`qitish o`quv jarayonini tashkil etish shakli, modeli sifatida belgilanadi.

Unda:

- pedagog faqat birgina talaba bilan o'zaro munosabatda bo`ladi;
- bir talaba faqat o`qitish vositalari (kitoblar, komyuter va b.) bilan o`zaro aloqada bo`ladi.

- **O`qitishni individuallashtirish:**
 - o`quv jarayonini tashkil etish bo`lib, unda oqitish usullari, sur`atini
 - tanlash talabaning individual xususiyatlari bilan boglanadi;
 - individual yondashuvni ta`minlovchi turli o`quv-metodik, psixologik-pedagogik va tashkiliy-ma`muriy tadbirlardir.
 - Shunday qilib, didaktika bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlaiga ko`ra o`qitishni individuallashtirish o`quv jarayonining shunday tashkil qilinishiki, unda individual yondashuv va individual shakl ustuvor hisoblanadi.
 - **O`qitishni individuallashtirish:**
 - o`quv jarayonini tashkil etish bo`lib, unda oqitish usullari, sur`atini tanlash talabaning individual xususiyatlari bilan boglanadi;
 - individual yondashuvni ta`minlovchi turli o`quv-metodik, psixologik-pedagogik va tashkiliy-ma`muriy tadbirlardir.
- Shunday qilib, didaktika bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlaiga ko`ra o`qitishni individuallashtirish o`quv jarayonining shunday tashkil qilinishiki, unda individual yondashuv va individual shakl ustuvor hisoblanadi.**

- **O'qitishni individuallashtirish quyidagi mualliflik texnologiyalarida asoslab berildi:**
 - **Inge Untning o'qitishni individuallashtirish texnologiyasi**
- **A.S.Grantsikayaning moslashuvchan o'qitish texnologiyasi**
- **V.D.Shadrikovning individuallikka qaratilgan reja asosida o'qitish texnologiyasi**

2.AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA TA'LIMNING JAMOAVIY HAMDA GURUXIY TEXNOLOGIYASI

- Axborot texnologiyalari ma'lumotlarni boshqarish va qayta ishlash texnologiyalaridir
Odatda bu atama ostida kompyuter texnologiyalari tushuniladi.
Axborot texnologiyalari sohasida turli axborotni EHM va kompyuter tarmoqlari orqali yig'ish, saqlash, himoyalash, qayta ishlash, uzatish kabi amallar ustida ishlar olib boriladi.

- **Axborot texnologiyasini shartli ravishda:**
- **saqlovchi,**
- **ratsionallashtiruvchi,**
- **yaratuvchi** turlarga ajratish mumkin.
Birinchi turdagi texnologiyalar mehnatni, moddiy resurslarni, vaqtni tejaydi.
Ratsionallashtiruvchi axborot texnologiyalariga chiptalar buyurtma qilish, mexmonxona xisob-kitoblari tizimlari misol bo'ladi.
- **Yaratuvchi (ijodiy) axborot texnologiyalari** axborotni ishlab chiqaradigan, undan oydalanadigan va insonni tarkibiy qism sifatida o'z ichiga oladigan tizimlardan iborat.

- Bilim olishda, ya'ni ma'lum turdagi axborotlarni o'zlashtirishda kompyuter tizimining yordami benixoya kattadir. Axborot qanday ko'rinishda ifodalanishidan qat'i nazar, uni **yigish, saqlash, qayta ishlash** va foydalanishda kompyuter texnikasining rolini quyidagilar belgilaydi:
- **Birinchiidan**, o'qitishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish standart (an'anaviy) tizimga nisbatan o'quv jarayonini jadallashtirib, talabada ilmga qiziqishni oshiradi, ular ijodiy faoliyatini o'stiradi, bilim berishga differentsial yondashish, olingan bilimlarni takrorlash, mustaxkamlash va nazorat qilishni yengillashtiradi, talabani o'quv jarayonining sub'ektiga aylantiradi.
- **Ikkinchiidan**, yangi axborot texnologiyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagi shakllarda foydalanish mumkin bo'ladi:
 - muayyan pedmetlarni o'qitishda kompyuter darslari;
 - kompyuter darslari—ko'rgazmali material sifatida;
 - talabalarning guruxli va frontal ishlarini tashkillashtirishda;
 - talabalarning ilmiy izlanishlarini tashkillashtirishda;
 - talabalarning o'qishdan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilish masalalarini xal etishda va x.k.

- **Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish**
- Bu yondoshuvda kichik guruhlar 4-6 ta o'quvchidan tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O'quvchilarga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o'quvchi o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.
- O'quvchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.
- Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi 1976 yili Tel-Aviv universiteti professori SH.Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda ko'proq o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e'tibor qaratiladi.

• **O'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini guruhli tashkil etishda quyidagi elementlar hisobga olinmog'i zarur:**

- **O'quvchilarni guruhlarda ishlashga tayyorlash, o'quv topshiriqlarini aniq qo'yish, guruhda ishlash bo'yicha tushuncha berish, reglament o'rnatish.**
- **O'quv topshiriqlarini bajarish bo'yicha reja tuzish, uni muhokama etish. Uni hal etish yo'llarini aniqlash va ishni olib borish bo'yicha o'zaro vazifalarni taqsimlash.**
- **O'quv topshiriqlarini bajarish bo'yicha ishni tashkil eta olish.**

3. INSONPARVARLIK PEDAGOGIKASI. TARBIYA SAN'ATI VA TENOLOGIYASI. YAXLIT YONDASHUV VA TARBIYAVIY ISH

- **“Insonparvarlik pedagogika”si** zamonaviy tarbiya nazariyasi va amaliyotida XX asrning 50-yillari oxiri – 60-yillarining boshlarida AQSHda paydo bo'lgan yo'nalish.
- **Insonparvarlik pedagogikasining** falsafiy-g'oyaviy yo'nalganligi pedosentrizm g'oyalariga yaqin. “Detosentrizm, pedosentrizm – tarbiyaviy konsepsiya bo'lib, oilaning qiziqishlari faqat bolaga qaratiladi. Detosentrizm ko'proq bir bolali va to'liqsiz oilalar uchun xos”.
- **Insonparvarlik pedagogikasida** tarbiyaning bosh maqsadi shaxsning o'z-o'zini aktuallashtirishidir.
- **Insonparvarlik pedagogikasi** esa yangicha tarbiyalash va “progressivizm” pedosentrizmi g'oyalariga yaqinroq. Pedagogdan u bolani qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilishni, uning sezgisi va ehtiyojlarini his etishni talab etadi. AQSHda u boshlang'ich, o'rta va oily maktabda o'quv kurslarining mazmuniga va qurilishiga ta'sir ko'rsatadi.

- **Karl Rodjers** insonparvarlik ta'limotining asoschilaridan biri.
- **K.Rodjers** o'zining pedagogik qarashlarini inson xulqidagi o'zgarishlar asosi sifatidagi uning qobiliyatlari shaxsiy tajribalarga tayangan holda o'sadi, rivojlanadi va o'rgatiladi, deb ta'kidlangan.
- **“Freedom to learn for the 80's”** kitobida bayon etgan. Kimnidir o'zgartirish, unga tayyor tajribani uzatish kerak emas. Faqat uning rivojlanishiga imkon beruvchi muhitni yaratish mumkin. K.Rodjers bunday muhitni yaratishni “qulaylashtirish” (ingl. facilitate) deb ataydi.

- O'zining falsafiy qarashlarida mashhur matematik faylasuf **Abu Nasr Forobiy** pedagogikaning fan sifatidagi ayrim muhim vazifalarini ko'rsatib o'tadi.
- **“Tarbiyalash san'ati tamoyili** shundayki, - degan u,- tarbiyalash uchun reja tuzadigan kishilarning ko'z oldidan quyidagilar ketmasligi kerak va bu shunday: bolalar faqat hozirgi kungina emas, balki kelajak uchun xam tarbiyalanishlari lozim, ya'ni, odamzod mafkurasi uchun va uning umumiy burchi uchun tarbiya olishlari kerak”.
- Ulug' matematik, astronom **Mirzo Ulug'bek** o'z shogirdlariga tez-tez shunday deb turgan: “Agar yerdagi voqelikni yaxshitushunishni istasang, kelajakni yaxshi rejalashtira ol”.

- Astronomiya, matematika, fizika, tibbiyot, geografiya, tarix va ling-vistikaga oid ko'plab asar yozgan buyuk mutafakkir **Abu Rayhon al-Beruniy** ta'kidlagan: “Aqlli kishi kelajak avlod uchun foyda keltirib, u aql va idrok bilan hammani mushohada eta olsagina, ruhan qanoat hosil qilgan”.
- Vatanimizda faol ijtimoiy -pedagogik tafakkur rivoj-lanishiga Toshmuhammad Qori-Niyoziy, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori Abdurashid-xonovlar katta hissa qo'shdilar. Ularning asarlarida kelajak kishi siymosini yaratish g'oyasi muammosi alohida o'rin egallaydiki, unga erishish yo'lida **tarbiyaning** tegishli tizimi barpo bo'lishi lozim edi.

- Mashhur o'zbek pedagogi **Abdulla Avloniy** o'z asarlarida ko'p marta o'z diqqatini pedagogikaning vazifalarini tahlil qilishda, uning tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaviy faoliyatning san'at sifatidagi ahamiyatini yoritishga qaratdi. Abdulla Avloniyning fikricha, **«tarbiya san'atlarning** oliysidir, san'at esa hali mavjud bo'lmagan tomon intiladi, uning oldida ijodiyotining kelajakdagi maqsadi va g'oyaviy siymosi gavdalanadi».

Erkin tarbiya texnologiyasi

- Erkin tarbiya texnologiyasida asosiy urg'u bolaning o'z hayotiy faoliyati davomida mustaqil fikr yuritishi va tanlash erkinligiga qaratiladi. Tanlash xuquqiga ega bo'lgan o'quvchi sub'ekt vazifasini bajarishga tashqaridan bo'lgan ta'sir ostida emas, balki o'zining ichki kechinmalaridan kelib chiqqan holda intilib a'lo darajada bajaradi. An'anaviy ta'lim tizimidagi har qanday pedagogik texnologiyaning asosida tushuntirish yotadi, lekin shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida esa tushunish va o'zaro bir birini tushunish yotadi. Bu tushunchaga V.S.Bibler shunday izoh bergan; tushuntirishda bitta ong, bitta sub'ekt ishtirok etib monologni hosil qiladi. Tushunishda ikkita ong, ikkita sub'ekt ishtirok etib o'zaro (bir birini) tushunish, dialogni hosil qiladi. Tushuntirish doim "yuqoridan past"ga bo'lgan qarash, ya'ni "so'zini o'tkazish"ni anglatadi.
- Tushunish esa bu muloqot, hamkorlik, o'zaro (bir- birini) tushunish demakdir.

K E Y S L A R

Pedagogik mini keyslari⁵ namunalari

1-vaziyat. Feruza ismli qiz bola 6 yoshda. U 3 yoshidan xoreografik to'garakka, 5 yoshidan esa vokal va teatr studiyasiga qatnaydi. Tez-tez sahnada chiqish qiladi, turli tanlovlarda qatnashadi. Navbatdagi chiqish oldidan o'yin vaqtida Feruza o'zining tengqurlariga: "Men sizlardan yaxshiroq bilaman, men sahnaga ko'p marotaba chiqqanman, sizlar esa, chiqmagansizlar. SHuning uchun, men tulki rolini o'ynayman" deb, rahbarlik qilishga harakat qilmoqda. Tengqur qizlar unga bo'ysunishdan bosh tortishga harakat qilmoqdalar va tarbiyachi oldiga yordam so'rab bormoqdalar.

Keysga savol- vazifa:

Sizning harakatlaringiz qanday bo'ladi?

Yechim variantlari:

1-variant. Feruzaga o'zining dugonalariga o'zlarini namoyon qilishlariga yordam berish uchun ushbu o'yinda rejissyor rolini taklif etish. Ularning chiqishlari ham maqtovga loyiqligini ko'rsatish.

2-variant. Feruza bilan badiiy asar qahramonlari xulqlarining salbiy tomonlari (maqtanish, do'stlarining xafaligi va hokazo)ni tahlil qilishga yo'naltirilgan suhbat o'tkazish, boshqa qizlar uning dugonalarini ekanligini, ularda ham shu rolni o'ynashga xohishlari borligini tushuntirish. Tulki rolida navbat bilan o'ynashni taklif etish.

3-variant. Bolalarga tortishmaslikni taklif etish, balki rolni taqsimlashni qur'a tashlash yo'li bilan amalga oshirish. SHunda to'g'ri bo'lar.

4-variant. Tulki – bosh rolb uchun tanlov tashkil qilish, mustaqil hakamlarni (ushbu o'yinda qatnashmaydigan o'g'il bolalardan) tanlash.

5-variant. Ushbu muammoni hal etish uchun bolalarga murojaat qilish.

2-vaziyat. Shohruh 7 yoshda. U yoshligidan e'tiboran yelimplash, rasm chizish, qurishga qiziqadi. SHohruh yaxshi rasm chizadi, plastilindan turli narsalar yasaydi, ajoyib konstruktsiyalar yaratadi, ijodiy xayol suradi. Tarbiyachining bolani badiiy

⁵ A.A.Abdugodirov «Pedagogika» va «Psixologiya» fanlaridan keyslari va ulardan foydalanish uslubiyoti .-T.: «Fan va texnologiyalar», 2015. 37-bet

studiyaga berish taklifiga SHohruhning ota-onasi, u sport bilan shug'ullanishi kerak degan qarorga kelib, rad javobini berishdi. Bog'chada SHohruh hech kim bilan do'stlashmaydi, bolalar bilan ko'pincha nizoga kirishadi. Agar bolalardan biri uni rasm chizishiga, uycha qurishiga yoki boshqa o'yinlariga qo'shilmoqchi bo'lsa, SHohruh ko'pincha ularni qo'ymadi. U bolalarga aralashmaydi, uni o'z sevgan mashg'ulotidan chalg'itish yoki e'tiborini boshqa narsaga qaratish qiyin, ya'ni "bola o'zi bilan".

Keysga savol- vazifa:

Sizning harakatlaringiz qanday bo'ladi?

Yechim variantlari:

1-variant. Shohruhning o'zini-o'zi baholashi juda past holatda. Uning bahosi ota-onasi tomonidan tan olinmagan. Bolaning o'zini-o'zi baholashini rivojlantirishga harakat qilish kerak, tanlovlarda qatnashishni taklif etish lozim. SHohruhning muvaffaqiyatlarini ota-ona va bolalar baholashlari uchun, uning ishlarini ko'rgazmalarga qo'yish lozim.

2-variant. Sotsiometrik uslubdagi tadqiqot o'tkazish, bolani afzal ko'rish, uni ochish va turli umumiy vazifalar bergan holda, bolalar bilan yaqinlashtirishga harakat qilish, bolalar bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishga tortish kerak.

3-variant. Ota-ona bilan ish olib borish. Ularga bolaning qiziqishini ko'rish va tushunishga yordam berish. SHohruh unga tavsiya etilayotgan mashg'ulotga qiziqqan bo'lishi, faqat "onasi aytganligi uchun emas", balki unda moyillik va qiziqish bo'lgani uchun, qo'shimcha ta'lim tanlashda bolaning fikrini hisobga olishni taklif etish. Sport bilan yakshanba kunlari oilaviy shug'ullanish ham mumkinligini tushuntirish.

3-vaziyat⁶. Ahmad bolalar bog'chasida yana bir yil qolib, boshqa guruhda to'rt yil mobaynida tarbiyalangan tarbiyachisini sog'inmoqda. Ahmad ko'pincha o'zining avvalgi guruhiga mehmonga keladi: tarbiyachilar bilan muloqotda bo'ladi, bolalar bilan o'ynaydi, konstruktordan foydalanib, turli qurilmalarni yasashni o'rganadi va hokazo.

⁶ A.A.Abdugodirov «Pedagogika» va «Psixologiya» fanlaridan keyslar va ulardan foydalanish uslubiyoti .-T.: «Fan va texnologiyalar», 2015. 38-bet

Tarbiyachilar doimo Ahmadni yaxshi qabul qiladilar, uning onasiga ham o'g'lining bunday tashrifi yoqadi – tarbiyachilar bilan uning aloqasi yaxshi, ijobiy munosabatda. Kunlarning birida, Ahmadni bog'chadan olib keta turib, Marg'uba opa (onasi) uning qo'lida begona kichik mashinacha borligini payqab qoldi.

Keysga savol- vazifa:

Nima qilish kerak?

Yechim variantlari:

1-variant. Boladan quyidagilarni so'rash:

- Ahmad, bu kimning mashinachasi? Uni egasiga berish kerak.

- Men Muqaddas opaning (tarbiyachi) oldiga mehmonga bordim, bolalarga garaj qurishni o'rgatdim va bilmasdan cho'ntagimga solibman, - deb, Ahmad onasiga ayyorlik qildi.

- Bolalar oldiga borib, mashinachani qaytarib bergin.

- Yo'q, u menga yoqadi, menda bunday mashinacha yo'q, - deb Ahmad qaysarlik qildi.

- Ahmad, bu mashinachani bolalardan biri uyidan olib kelgandir va hozir yig'layotgandir, izlayotgandir, - deb ona ta'kidlaydi.

- Yo'q, bormayman. Tarbiyachi Muqaddas opaning jahli chiqadi va menga mashinachani o'g'irlagansan, deb aytadi, men uyalaman, - deb javob qaytaradi Ahmad.

- Ahmad, kel ertaga birgalikda Muqaddas opaning oldiga boramiz va mashinachani beramiz.

2-variant. Vaziyatni oldindan Muqaddas opa bilan muhokama qilgan holda bolani mashinachani qaytarib berishga ko'ndirish.

Kechqurun, Ahmadni olib ketishdan oldin, Marg'uba opa Muqaddas opaning oldiga kirib, bo'lgan voqeani aytib beradi va bolasi bilan kelishganligini ogohlantirib qo'yadi. Muqaddas opa onaning yondashuvini qo'llab-quvvatlaydi va bolaga mashinachani qaytarish vaqtida xursand bo'lib shunday deydi:

- Ahmad, Ravshanning mashinachasini topib olibsan-ku! Biz esa kun bo'yi uni izlayapmiz. Ravshan yig'layapti, tezroq kel, uni Ravshanga bergin, senga katta rahmat deydi.

3-variant. Marg'uba opaning o'zi mashinachani oladi va Muqad-das opaga olib borib beradi. Vaziyatni tushuntiradi. Lekin, begona narsalarni olish yaxshi emasligi haqida oldindan o'g'li bilan suhbatlashadi.

4-vaziyat. O'rta guruh bolalari kechqurun aylanishga to'planadilar. SHohruh va Maftunalarning kiyim-kechak javonchalari yonma-yon joylashgan. Bu ikki bola urishadilar, bir-birlariga xalaqit qiladilar. Vaziyatni yengillashtirish maqsadida tarbiyachi, bolalarga qulay bo'lishini ko'zlab stulchalarni uzoqlashtiradi, lekin bolalar tortishuvni davom ettiradilar.

Keysga savol- vazifa:

Nima qilish kerak?

1-variant. SHohruhga haqiqiy janob sifatida qizchaga joyni berishni taklif etish. Unga haqiqiy erkaklar o'zlarini xuddi shunday tutadilar, deb aytish.

2-variant. Maftunaga urishmaslikni, o'zining narsalarini olib boshqa joyga o'tishni taklif etish.

3-variant. Agar bolalar javonchalar uchun doimo urishayotgan bo'lsalar, u javonchalarining joyini "almashtirib qo'yish"ga harakat qilib ko'rish.

5-vaziyat. Bog'cha bolalari ota-onalarini bolalar maydonchasida kutib oladilar. Ota-onalar kelgunlariga qadar bolalar "Quvlash-machoq" o'ynaydilar. SHohruh va Muxlisa yugurish mobaynida to'qnashib ketadilar va bir-birlariga tashlanishadilar. Muxlisa yig'lab tarbiyachi oldiga keladi va SHohruh itarib yuborganini aytadi.

Keysga savol- vazifa:

Bu vaziyatda qanday yo'l tutish kerak?

1-variant. Bolalarga avvaldan o'yin qoidalarini, shuningdek, o'yin mobaynida rioya etiladigan xavfsizlik qoidalarini tushuntirish lozim. Yugurayotgan bolalar oldilariga qarab yugurishlari va boshqa bolalar bilan to'qnashib ketmasliklari uchun ulardan o'zlarini olib qochishlarini aytish kerak.

2-variant. Agar to'qnashuv sodir bo'lgan bo'lsa, aybni boshqaga to'nkash kerak emas. Ikkalangiz aybdorsiz, chunki oldingizga qaramagansiz, deb o'yinni to'xtatish va bolalarni tinchlantirish lozim.

3-variant. Bu holat qanday sodir bo'lganligini aniqlash uchun o'ynayotgan boshqa bolalarga murojaat qilish zarur. Bolalarni tinchlantirish va yupatish, so'ngra yugurish mobaynida rioya etila-digan o'yin xavfsizligini eslatish kerak.

6-vaziyat. Muxlisa (6 yosh) bolalar bog'chasining maktabga tayyorlash guruhiga qatnaydi. U o'qishni, yozishni biladi, o'yin tushishni, ashula aytishni, ifoda-li o'qishni yaxshi ko'radi. Onasi undan, Muxlisa esa o'zidan faxrlanadi.

Kunlardan bir kuni, Muxlisa onasi bilan uyga keta turib, onasiga: "Ertaga bog'chaga bormayman! Men javob bera olmasligim uchun, tarbiyachi opam, nuqul menga boshqa bolalarga qaraganda murakkab vazifalar beradi", -dedi.

Keysga savol- vazifa:

Ona Muxlisaning gaplaridan qanday ta'sirlanishi zarur?

1-variant. Muxlisaga ta'sir qilgan bolalar bog'chasidagi mumkin bo'lgan sabablarni o'ylab ko'rish.

2-variant. Qizining fikriga qo'shilish: «To'g'ri, sen eng aqlli qizimsan-ku. Agar javobni bilmasang, kel, ikkalamiz birgalikda aniqlaymiz (mumkin bo'lgan axborot manbalari)», deb aytish.

3-variant. E'tiborni qaratish! Balki Muxlisani haddan tashqari maqtash unda dastlabki vaqtlardagi muvaffaqiyat-sizliklarga ishonchsizlik uyg'otgandir.

7-vaziyat. Alisherning xotirasi juda yaxshi. SHuning uchun, u axborotlarni, matnlarni, qo'shiqlarni osongina yod oladi. Bayramlarni o'tkazish vaqtida Alisher o'zining rolini o'ynash bilan birga, boshqa bolalarning roliga suflyorlik qiladi, bu bilan boshqa bolalarning o'zlarini namoyon qilishlariga xalaqit beradi, bayramning borish qoidasiga xilof ish qiladi.

Keysga savol- vazifa:

Bu vaziyatda qanday yo'l tutish kerak?

Yechim variantlari:

1-variant. Alisherga alohida – suflyor rolini berish. "Sening vazifang: chiqishlar qilinayotgan vaqtda bolalar aytadigan so'z-larini yodlaridan chiqarib qo'ymasliklarini kuzatib borishdan iborat. Agar bolalarning aytadigan so'zlari yodidan ko'tarilgan bo'lsa, sen sekingina aytib berasan».

2-variant. Bayramga qadar Alisher bilan “Haqiqiy artist o’zini qanday tutishi kerak”ligi haqida suhbatlashish lozim.

3-variant. Alisherni boshqa faoliyat turlari (to’garak ishi)ga qiziqtirish kerak.

4-variant. Ota-onalar bilan ishlash kerak. Ota-onalarni Alisher xulqiga nisbatan qanday munosabatda bo’lishlarini aniqlash lozim. Agar ota-onalar muammoni tushunsalar, u holda, ularga Alisher bilan erkni shakllantirish sohasida ruhshunosning amaliy mashg’ulotlariga borib ko’rishni taklif etish. “Bog’cha yoshidagi bolalarda o’zini tutishni shakllantirish”, “Tez va katta hajmda yodga olish qobiliyatini qo’llash sohalari (masalan, shaxmat, shashka va hokazo)ga jalb etish” kabi tavsiyalar berish lozim.

Agar ota-onalar muammoni tushunmasalar, u holda shunga o’xshash o’zini-o’zi baholashni shakllantirish masalalari bo’yicha ishlar olib borishga harakat qilish zarur.

8-vaziyat⁷. Ota-onalar ko’pincha bola-larning mujmal nutqlariga haddan tashqari yuqori baho berib, ularni *vunderkind*, deb aytadilar.

Abdulazizga onasi: “Uzoqqa qochib ketma!” desa, Abdulaziz: “Xavotir olmang, oyi, men qochib ketaman va qaytib kelaman!” deb javob beradi.

Keysga savol- vazifa:

Bunday hodisa nima bilan bog’liq?

Yechim. Bunga o’xshash hodisa nutqning grammatik tuzilish nuqtai nazardan takomillashmaganligi bilan bog’liq. Abdulaziz qandaydir yangi so’zga o’zi egallagan shaklni berishi mumkin. Bola tomonidan tushungan holda egallangan bu shakl elementlari bolalarning so’z ijodkorligini keltirib chiqaradi.

9-vaziyat. Ota-onalar bolalari bilan muloqot paytida ko’pincha ularni boshqa bolalar bilan taqqoslaydilar.

Shirinning onasi, o’z qizining xulqidan xursand, ko’pincha u: “Sen borgan sari aqlli bo’layapsan. Sen hammadan ham yaxshisan”, “Sen eng chiroylisan”, -deydi.

⁷ A.A.Abdulloqodirov «Pedagogika» va «Psixologiya» fanlaridan keyslar va ulardan foydalanish uslubiyoti.-T.: «Fan va texnologiyalar», 2015. 42-bet

Dilnozaning onasi esa qiziga “Hamma bolalar ham bola, faqat sen mening tentagimsan”, “Qaragin, Dilfuza qanday aqlli qiz. U hamma ishni eplaydi, senda esa, hech nima chiqmaydi”, kabi jummalarni ishlatadi.

Keys bo'yicha savol va- vazifalar:

1. Ikkala ona ham o'z bolalariga yaxshilik istaydilar, lekin ularning qaysinisi tarbiyada yaxshiroq natijaga ega bo'ladi?

2. Bolalarning xulqini “loyihalash” yo'nalishi onalarning shaxsiy xususiyatlariga bog'liqmi?

Yechim. Ikkala ona ham o'zlarining qizlarini boshqa bolalar bilan taqqoslaydilar, lekin birinchi ona ijobiy taqqoslashlardan, ikkinchi ona esa salbiy taqqoslashlardan foydalanadi. SHu bilan birga, SHirin va Dilnozaning xulqlarini “loyihalash” turlichadir.

Agar ona, o'ziga ishongan inson bo'lsa, u holda, odatda, u o'zining bolasini maqtaydi va uni boshqa bolalardan ijobiy tarzda ajratadi. Bu bolaning ijtimoiy mavqei o'sishiga va o'zining tengqurlari bilan o'zaro munosabatidagi tizimda yaxshi o'rin egallashiga imkon beradi.

Agar ona, o'ziga ishonmagan inson bo'lsa, o'zini boshqa insonlarga nisbatan nima bilandir yomonroq sezsa, u holda o'zining ishonchsizligini uzatgan holda, bolasiga nisbatan ham shunday munosabatda bo'ladi. Bunday onaning bolasi past ijtimoiy mavqega ega bo'ladi.

Umuman, bolalarning xulqini kecha, avval bo'lgan o'zining shaxsiy xulqi bilan taqqoslash maqsadga muvofiq.

10-vaziyat. Biz ko'pincha onalarning o'z bolalari bilan muloqotda ularning imkoniyatlarini turlicha baholashlarining guvohi bo'lamiz. Ba'zi onalar: “Sen men qilolmagan ishlarni bajara olasan! Sen to'g'ri aytayapsan, barakalla!” kabi jummalardan foydalanadilar.

Boshqa onalar esa: “Sen hali yoshsan, kattalar aytganlariga quloq sol! Sen nimani ham bilar eding, o'rganib olgandan keyin tushunasan!” kabi jummalardan foydalanadilar.

Keysga savol- vazifa:

Turli onalarning o'z bolalari bilan muloqotidagi tubdan farq nimada?

Yechim. Bir xil onalar bolalarida o'ziga ishonchni shakllantiradilar (“Agar onam meni maqtasa, demak, men nimagadir qodirman!”). Ular bolaning kamol topishiga imkoniyat beradilar, unda hayotiy faollikni yaratadilar va to'g'ri shakllanishiga yordam beradilar.

Boshqa onalar, aksincha, bolada o'ziga ishonmaslikni shakllantiradilar, unda xavotirlanish hissini paydo qiladilar, faolligini pasaytiradilar, kelajakka ishonchsizlik tug'diradilar (“Agar onam meni urishsa, demak, men hech nimaga qodir emasman, men yomonman!”)⁸.

⁸ **A.A.Abduqodirov** «Pedagogika» va «Psixologiya» fanlaridan keyslar va ulardan foydalanish uslubi .-T.: «Fan va texnologiyalar», 2015. 43-bet

XOTIMA

Hozirgi kunda bilimlar juda ko'p bo'lib, ularni egallash uslublari ham zamon va makon talablari asosida tubdan o'zgarimoqda, ular nafaqat zamonaviy zarur bilimlar yig'indisida, balki yangi bilimlarni o'rganish uslublarida ham katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. respublikamizda ta'lim tizimining modernizatsiyasi amalga oshirilayotgan ayni paytda yangi mazmun, yondashuv, pedagogik mentalitet taklif etilmoqda.

Bunday sharoitlarda fan o'qituvchilari zamonaviy innovatsion texnologiyalar, g'oyalar, yo'nalishlarning keng qamrovida harakatlanishlariga to'g'ri keladi. Ma'lum narsalarni ochish emas, balki respublikamizda mavjud, qolaversa, xalqaro ijobiy pedagogik tajribalardan foydalanishlari zarur. Bugungi ta'lim texnologiyalarini o'rganmay turib, pedagogik savodli mutaxassis bo'lishi mumkin emas. Zero, "Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki boyliklarni, bilimlarni o'rganish, o'zlashtirish va rivojlantirish vazifasi turadi. Hayot taraqqiyoti va jamiyat rivojini shusiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu vazifani amalga oshirishning birdan bir yo'li ta'lim tizimini tinmay takomillashtirib borish orqali yosh avlodni barkamol, komil inson qilib tarbiyalash"⁹ ekanligi doimo pedagoglarning e'tiboridadir. Demak, bugungi ta'lim oluvchi kelajakdagi savodli mutaxassis bo'lishi uchun bizning bosh maqsadimiz ham ma'nau barkamol, mustaqil fikrli shaxs tarbiyalashni izchil amalga oshirish shartdir. Bu borada ta'lim sohasida olib boriladigan ishlar katta ahamiyat kasb etadi. Toki hayot davom etar ekan, ta'lim ham, tarbiya ham zamon o'rtaga qo'yayotgan yangi-yangi talablarga ko'ra muttasil ravishda o'zgarib-yangilanib boraveradi. Biz ham "Pedagogik texnologiya" o'quv qo'llanmasini yaratish drqli ta'lim sohadagi dastlabki qadamlarimizni to'g'ri qo'ydik, deb o'ylaymiz. Mazkur o'quv qo'llanma ustozlarning ilg'or tajribalari, fikr-mulohazalari, yaratgan asarlari, turli manbalar asosida etildi. "Pedagogik texnologiya" o'quv qo'llanmasi ilk bor chop etilayotganligi bois kamchilik va nuqsonlardan holi bo'lmasligi tabiiy, shu

⁹Komilov N. Komil inson – millat kelajagi. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.

sababli ustozlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar uchun biz mualliflar minnatdorchilik bildiramiz.

FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. SH.M.Mirziyoev. Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamlkatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir-Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 22b
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –T., 2017. –B.39.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni // QHMMB: 06/17/5264/0339-son 01.12.2017 y.
4. Azixodjayeva N .N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (darslik). - T.. 2006 y.
5. Ishmuxammedov P., Abdukodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. (o`quv qo`llanma). T., 2010.
6. Kolechenko A. K. Entsiklopediya pedagogicheskix texnologiy - SPb.: KARO, 2005g.
7. Selevko G. Pedagogicheskie texnologii na osnove didakticheskogo i metodicheskogo usoversh yenstvovaniya UVP (uchebnoe posobiya). - M. 2005 g.
8. Pedagogicheskie texnologii / Pod. red. Kukush ina V. S. (uchebnoe posobiya). - M .: 2006 g.
9. Podlasiy I. P. Pyedagogika V 2 kn. - M., 2003 g.
10. Kaldibekova A.S., Xodjaev V.X. O'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari - T., 2006 u.
11. Ishmuhamedov R.J. Bolalarni tarbiyalash va sog'lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiya (o 'zbek va rus tillarida). - T.,2004 u.
12. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yullari. - T., 2005 y.
13. Tolipov O ., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari.- T .: 2005 u.
14. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar - T., 2003 y.

15. N .N . A zizzo'jayeva pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg' armasi nashriyoti Toshkent-2006

16. Sh.S.Shodmonova va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar.-T: "Fan va texnologiya", Toshkent 2011

17. D.Ro'zieva, M.Usmonboeva, Z.Holiqova. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metodik qo'llanma.– Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013.

18. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv-uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – T.: "Iqtisodiyot" nashr., 2011.

19. Golish L.V. Texnologii obucheniya na lektsiyax i seminarax/ Uchebnoe posobie/ Pod obsh red. Akad. S.S. Gulyamova. - T.: TGEU, 2005.

20. O'. Tolipov, M. Usmonboeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005

21. A.A.Abduqodirov «Pedagogika» va «Psixologiya» fanlaridan keyslari va ulardan foydalanish uslubiyoti .-T.: «Fan va texnologiyalar», 2015.

22. O'Tolipov, D.Ro'ziyeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.-T.:Innovatsiyo-ziyo, 2019.

23. Komilov N. Komil inson – millat kelajagi. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. tdpu-INTRA.NET. Ped

MUNDARIJA

SO`Z BOSHI	
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA PEDAGOGIKANING MUSTAQIL SOXASI SIFATIDA. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING RIVOJI. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING ILMIY ASOSLARI.	
TA`LIM JARAYONIDA TA`LIM OLUVCHI SHAXSI. PEDAGOGIK TIZIM PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING ASOSI. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR TASNIFI	
MAQSADNI BELGILASH TA`LIMNI TEXNOLOGIYALSHTIRISHNING ASOSIY ELEMENTI. O`QITISHNI TEXNOLOGIYALASHTIRISHDA METOD VA VOSITALAR	
TA`LIMNING “KEYS-STADI” TEXNOLOGIYASI. TA`LIMNI SHAXSGA YO`NALTIRILGAN TEXNOLOGIYASI. TA`LIMNING LOYIXA TEXNOLOGIYASI	
O`QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH VA SAMARALI BOSHQARISH ASOSIDAGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA. TARBIYA JARAYONINI TEXNOLOGIYALASHTIRISH	
ILOVALAR	
K E Y S L A R	
XOTIMA	
FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI	